

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

Dilafro'z Botirova

**PEDAGOGLARDAGI KASBIY
SO'NISHNING IJTIMOIY-
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**"BOOKMANY PRINT"
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 371.126.152.22

KBK: 74.00

B 48

Botirova Dilafro‘z.

Pedagoglardagi kasbiy so‘nishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari [Matn]: monografiya / D.Botirova. – Toshkent: Bookmany print, 2025. – 134 b.

Mas’ul muharrir:

B.M.Umarov – Alfraganus universiteti, “Psixologiya” kafedrasи professori, psixologiya fanlari doktori

Taqrizchilar:

N.T.Rasulova – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Din psixologiyasi va pedagogika kafedrasи v,b., dotsenti psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

Sh.Abdullayeva – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Pedagogika va Psixologiya”kafedrasи mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor.

Ushbu monografiya O‘zbekistonda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalariga asoslangan bo‘lib unda pedagoglarda kasbiy so‘nish jarayonining ijtimoiy psixologik xususiyatlari yoritib berilgan. Shuningdek pedagog kasbiy so‘nish jarayonining pedagogik ish stajiga hamda emotsiонаl so‘nish darajasi, pedagogning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi, jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhitning kasbiy so‘nish bilan bog‘liqligi haqidagi ma’lumotlarni umumlashtirish hamda muayyan tizimga solish orqali ijtimoiy psixologiya, pedagogik psixologiya, kasb psixologiyasi fanlarini empirik dalillar bilan boyitilganligi, o‘qituvchilardagi kasbiy so‘nishga barqarorlikni shakllantirishda shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, emosional, kognitiv omillarni hisobga olgan holda ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Mazkur monografiya Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining 2024 yil 31-oktyabrdagi 3-sonli majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-381-7

© Botirova D., 2025.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

KIRISH

Jahonda kasbiy faoliyat mutaxassisini bo‘lgan pedagog shaxsida kuzatiladigan kasbiy so‘nish jarayoni uning faoliyati samaradorligini pasayishida o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, pedagoglarda kasbiy so‘nish butun dunyo miqyosida 10%dan-30%gacha ko‘rsatkichni tashkil etmoqda¹. Mazkur ko‘rsatkichlarning turli mamlakatlar bo‘yicha holatiga qarasak: Iroqda - 24,5%; Tayvanda - 26%; Shri-Lankada - 11,6%; ... Germaniyada - 47% o‘qituvchilarning kasbiy so‘nish alomatlari mavjud ekanligi kuzatiladi»². Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, o‘z faoliyatidan qoniqishining eng yuqori darajasi Avstriya, Ispaniya, Kanadada; eng past darajasi Angliya, Bolgariya, Portugaliya, Saudiya Arabistonimamlakatlari pedagoglarida kuzatilar ekan³. Bu o‘z navbatida pedagog shaxsida kuzatiladigan kasbiy so‘nish jarayonini o‘rganish mavzusini yanada dolzarblashtirib, zamonaviy jamiyatni rivojlantirish uchun pedagoglarda kasbiy so‘nish, uning o‘z-o‘zini anglashi, kasbiy rivojini oshirish uchun keng imkoniyatlarni ta’minlash muammosi bo‘yicha tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahon oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida pedagoglarda kasbiy so‘nish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganishga oid ilmiy izlanishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada pedagog shaxsida kuzatiladigan kasbiy so‘nish jarayonini faoliyat samaradorligi pasayishida asosiy jihatlarini aniqlash muhim masala bo‘lib, pedagog-o‘qituvchilarda ruhiy charchash holatining kelib chiqishi va genezisini o‘rganish muammosi ishlab chiqilmaganligi mazkur tadqiqotning dolzarbligini bildiradi. Shu bois pedagoglar kasbiy so‘nish jarayoniga ta’sir etuvchi vosita

¹ Occupational Burnout Prevalence and Its Determinants Among Physical Education Teachers: A Systematic Review and Meta-Analysis / T.A. Alsalhe, N. Chalghaf, N. Guelmami, F. Azaiez, N.L. Bragazzi // Frontiers in Human Neuroscience. 2021. Vol. 15. Article ID 553230. 14 p. DOI:10.3389/fnhum.2021.553230.

² Burnout among primary school teachers in Iraq: prevalence and risk factors / J. Al-Asadi, S. Khalaf, A. Al-Waaly, A. Abed, S. Shami // East Mediterr Health Journal. 2018. Vol. 24. № 3. P. 262—266. DOI:10.26719/2018.24.3.262.

³ Assessment of job satisfaction, self-efficacy, and the level of professional burnout of primary and secondary school teachers in Poland during the COVID-19 pandemic / A. Bartosiewicz, E. Luszczki, L. Zaręba, M. Kuchciak, G. Bobula, K. Deren, P. Krol // PeerJ. 2022. Vol. 10. Article ID e13349. 19 p. DOI:10.7717/peerj.13349.

va usullarni qo‘llash, ularning yetuk mutaxassis bo‘lib yetishishdagi rolini ko‘tarish, yuqori darajadagi aks ettirish ta’sirning asosiy «vositasi» sifatidagi shaxslararo muloqot, o‘zini o‘zi boshqarishning yuqori darajasi hamda ruhiy charchash holatini keltirib chiqarishiga oid ijtimoiy-psixologik omillar va psixologik ta’sir usullarini ilmiy tadqiq etish zarurati kuzatilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda pedagog shaxsida kuzatiladigan kasbiy so‘nish jarayonini faoliyati samaradorligi ta’siri borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilib, zarur huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi: «...jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash» ustuvor vazifa etib belgilanib, Prezident Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda «...jamiyat hayotini o‘zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta’lim tizimidan boshlanganini ko‘ramiz. Ta’lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o‘qituvchilardir»⁴. Shuningdek, O‘zbekistonda ilk bora qabul qilingan «Pedagogning Maqomi to‘g‘risida» Qonunda keltirilgan: «Ta’lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta’lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan jismoniy shaxs pedagogdir. Pedagogning huquqlari, sha’ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro‘sidi davlat himoyasi ostida bo‘ladi»⁵. Bu mas‘uliyatli maqom va vazifalarni o‘qituvchilar zimmasiga yuklash bilan bir qatorda, pedagog va professor-o‘qituvchilarning psixosotsial salomatligini saqlash, kasbiy so‘nishning oldini olish, pedagogik jamoalarda sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish, psixologik mexanizmlar asosida ularning stressga barqarorligini oshirishda mazkur tadqiqot muhim asos bo‘la oladi.

⁴ Sh.M.Мирзиёев “Бугундан бошлаб жамиятдаги енг хурматли инсон - муаллимдир” / Ёшларни ватанпарварлик рухида тарбиялаш ва жамиятда ўқитувчи мавқеини ошириш юзасидан кенгайтирилган ведоселектор йиғилишидаги нутқ. Тошкент. 2019 йил 24 август.

⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevraldagagi O‘RQ-901-sон «Pedagogning Maqomi to‘g‘risida» Qonuni, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.02.2024-y., 03/24/901/0082-son

O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 1 maydagi O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g`risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevraldaggi O‘RQ-901-son «Pedagogning Maqomi to‘g`risida» Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g`risida»gi Farmoni, 2020 yil 27 fevraldaggi PQ-4623-son «Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g`risida», 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884-son «Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g`risida»gi Qarorlar, O‘zbekiston Respublikasi O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 472-son «Psixologiya sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda huquqbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g`risida»gi Qarori hamda faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

I BOB. PEDAGOGLARDA KASBIY SO‘NISH MUAMMOSINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI PSIXOLOGIK TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA

Pedagoglarda kasbiy so‘nish muammosining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari psixologik tadqiqot predmeti sifatida deb nomlanib, mazkur bobda pedagoglarda kasbiy so‘nish muammosining ijtimoiy-psixologik tatqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari, kasbiy so‘nish tushunchasi, kelib chiqish sabablari, komponentlari, bosqichlari va uning psixologik tasnifi, o‘qituvchilarda kasbiy so‘nishni oldini olishning ilmiy-uslubiy va ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari talabi masalalar o‘rganilgan.

1.1-§. Pedagoglarda kasbiy so‘nish muammosining ijtimoiy-psixologik tatqiqi va uning ilmiy-nazariy asoslari

Kuzatishlardan ma’lum bo‘lishicha, psixologiyada kasbiy so‘nish muammosiga nisbatan qiziqish yaqin davrlardan boshlab, e‘tibor berila boshlandi. 20-asrning so‘nggi o‘n yilligidan boshlab, jamiyat va insoniyat hayotiga bozor munosabatlarining joriy etilishi hamda jamiyatda inson mehnatining faollahuvi mazkur muammoni ilmiy o‘rganishg zaruriyatini keltirib chiqardi.

Ammo chet el psixologiyasida bu hodisa bir necha o‘n yillar oldin o‘rganila boshlangan. Kasbiy shartli ravishda kasbga nisbatan psixologik so‘nishning shakllanishi ijtimoiy soha kasblarida eng yuqori darajada namoyon bo‘la boshladi. Bu esa mehnatning asosiy ob‘ekti inson, uning rivojlanish muammolarining o‘rganilishiga sabab bo‘lib xizmat qildi.

80-yillarning boshlarida Amerikalik ijtimoiy psixolog, Kaliforniya universiteti psixologiya professori Kristina Maslach kasbiy so‘nish muammosini o‘rganishga ilmiy yondashuvni ishlab chiqadi. Tadqiqotchi o‘z ilmiy izlanishlari natijasida kasbiy so‘nish bo‘yicha MBI metodikasi yaratilgan bo‘lib, u so‘nish, charchash kabi kasbiy faoliyatdagi sindromlarni o‘rganishga yo‘naltirilgan so‘rovnomaadir. Uning ta’kidlashicha, bu jarayon uchta tushuncha bilan tavsiflanadi: kinizm (qadimgi falsafiy muktab ta’limoti bo‘yicha hayotiy va

mehnat faoliyatiga ishonchning kamayishi), mehnat samaradorligining pasayishi va hissiy charchoq.

Yigirmanchi asrning 90-yillari oxirida ruhiy so‘nish odam kasbiy faoliyatining turli sohalarida "emotsioanal so‘nish sindromi" nomi ostida maishiy psixologiyada o‘rganila boshlandi. Xususan, o‘qituvchilar, psixologlar, shifokorlar, ijtimoiy xodimlarning mehnat faoliyati xususiyatlarini o‘rganish orqali ushbu "yordamchi" kasblar vakillarining barchasida kasbiy psixologik so‘nish xavfini oshiradigan stress omillarining mavjudligi bilan birlashganligi aniqlandi.

So‘nish, charchash tushunchasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Lekin mazkur tushunchaning nisbatan to‘g‘riroq tavsifi birinchi marta amerikalik psixiatr Gerbert Freydenberger tomonidan kiritilgan bo‘lib, u sog‘lom odam psixologik holatining o‘ziga xos xususiyati natijasida hissiy charchoqning kuchayishi bilan namoyon bo‘ladi va shunga xos bo‘lgan ijtimoiy sohada ishlovchi shaxsda hissiy charchash, so‘nish holatlari kuzatiladi deb, ta’kidlaydi. G.Freydenbergerga ko‘ra, hissiy charchash sindromiga moyil odamlar ko‘pincha insonparvar, muloyim, g‘ayratli, idealist, har doim yordam berishga tayyor va ayni paytda beqaror, aqidaparast g‘oyalarga beriluvchan shaxslardir [121].

Ruhiy charchoq (so‘nish) – bu insonda uning kasbiy faoliyati bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan maxsus ruhiy muammolar majmuidir. 1974 yilda birinchi marta Gerbert Freydenberger sog‘lijni saqlash markazlaridan birida psixiatr bo‘lib ishlayotganda, ko‘plab ishchilarning asta-sekin hissiy so‘nishini, motivatsiya va ish faoliyatiga qiziqishning yo‘qolishi, sog‘lig‘i va intellektual sohadagi o‘zgarishlarni aniqlagan. Undan tashqari “yordamchi kasblar” bo‘yicha mutaxassislar ko‘pincha, jamoat tashkilotlarida to‘liq fidoyilik va katta ishtiyoq bilan ishlaydigan odamlar ekanligini aniqlaydi. Bunday odamlar bir necha oylik ixtiyoriy faoliyatdan so‘ng, bir qator xarakterli alomatlarni ya’ni, charchoq, asabiylashish va boshqalarni o‘zlarida ko‘rsata boshlaydilar.

V.I. Oryol kasbiy so‘nishni qo‘zg‘atadigan shaxsiy xususiyatlarni "katalizatorlar" deb, uni sekinlashtiradiganlarni esa - "ingibitorlar" deb ataydi. Uning fikricha, ma’lum shaxsiy xususiyatlarga ega (tashvishli, sezgir, empatik, introversiyaga moyil, hayotga gumanistik munosabatda bo‘lgan, boshqalar bilan tanishishga moyil) odamlar

ruhiy so'nish sindromiga ko'proq moyil bo'ladilar. Psixik so'nish sindromining "ingibitorlari" optimizm, yuqori darajada o'z-o'zini hurmat qilish, ichki o'zini o'zi anglash, nizolarga qarshilik, ishtiyoy, maqsadlilikni ifodalashadi [89].

"Psixik so'nish ko'proq yordam kasblari vakillariga xos bo'lib, ularning ishi odamlar bilan intensiv, yaqin aloqada bo'lish, hissiy haddan tashqari zo'riqish (shifokorlar, ruhoniylar, o'qituvchilar, huquqshunoslar, ijtimoiy ishchilar, psixologlar, psixoterapevtlar va boshqalar) bilan bevosita bog'liq", deb ko'pgina tadqiqotchilar hisbolashadi. Chunki bunday kasblar xodimlaridan quyidagi fazilatlar talab qilinadi: muloqot qilish qobiliyati, empatiya (uning tajribalarida ishtirok etish orqali boshqa odamning ichki dunyosiga kirish), shaxsiy intilishlarni, tashabbuslarni va mijozlarning individual xususiyatlarini qabul qilish, insonparvarlik va rahm-shafqat.

V.A. Abramovning fikriga ko'ra, hissiy so'nish tushunchasi "emotsional charchoqni keltirib chiqaradigan salbiy xarakterdagi ruhiy hodisa" sifatida tavsiflanadi. Bu hodisa inson o'zining hissiy quvvatini uzoq vaqt sarflaydigan va shu bilan birga uni to'ldirish uchun vaqt va imkoniyatga ega bo'limgan paytlarda sodir bo'ladi" [7; 34-b.].

Shuningdek, kasbiy so'nish muammosini o'rganish N.E. Vodopyanova va uning hamkasblari. Ularning fikriga ko'ra, hissiy so'nish - bu professional faoliyat doirasidagi uzoq muddatli stress ta'sirining natijasidir [40].

K. Maslach nazariyasining izdoshi T.V. Ryabova o'z maqolasida shunday yozadi: "Hissiy charchoq asosiy tarkibiy qism bo'lib, hissiy haddan tashqari zo'riqish hissi va bo'shlik hissi, o'z hissiy resurslarining so'nishida namoyon bo'ladi" [73; 132-b.].

Olimlarning fikricha, kasbiy so'nish shakllanishi jarayoni atrofdagi odamlarga nisbatan salbiy, befarq munosabatni shakllantirish tendensiyasini o'z ichiga oladi. Hissiy so'nish sindromiga duchor bo'lgan odam beadab bo'lib, o'zini boshqalardan uzoqlashtiradi, hamkasblariga va bajarilgan ishlarga dushmanlik hissi bilan yondashadi. Xodim o'z faoliyatida qobiliyatsizlik hissini boshdan kechiradi, o'zini past baholaydi va kasbiy faoliyatda o'zini salbiy idrok qiladi. Shuning uchun ishdagi stress ta'siridan kelib chiqqan

holda, hodisani kasbiy deformatsiyalar burchagidan hisobga olgan holda, hissiy so‘nish sindromi kasbiy so‘nish deb ataladi.

K.Maslachning “Ruhiy charchash darajasini aniqlash so‘rovnomasni kasbiy so‘nishni o‘lchash uchun eng ko‘p qo‘llaniladigan anketadir. Shuning uchun ham bugungi kunda kasbiy so‘nish bo‘yicha K.Maslach tushunchasi umumiyligini qabul qilingan deb hisoblanadi.

Psixo-emotsional stress muammosi so‘nggi yillarda birinchi o‘ringa chiqdi. Stress va qayg‘u tushunchalarini ko‘pincha chalkashtirishadi. G.Sele stressdan qochning iloji yo‘qligini aytadi [103]. Uning fikricha, hayot - doimiy stressdan iborat. Tirik mavjudotning asosiy farqlovchi xususiyati esa bu moslashuvchanlikdir. Barcha vaziyatlarda biz har xil intensivlikdagi stressni boshdan kechiramiz. Bu befarqlik yoki uyqu paytida past bo‘ladi, lekin hech qachon nolga teng bo‘lmaydi (bu o‘limni anglatadi). Inson faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan, uning to‘liq tartibsizlanishigacha bo‘lgan moslashuvchan mexanizmlarning haddan tashqari kuchlanish – bu qiyinchilik (qayg‘u, baxtsizlik, bezovtalik, charchoq, muhtojlik)dir. Ayrim emotsiyonal omillar stressni qayg‘uga aylantiradi va jismoniy kuch ko‘p hollarda teskari ta’sir ko‘rsatadi.

L.V. Novikova kasbiy so‘nishning rivojlanishi uchun quyidagi ijtimoiy-psixologik omillarni ko‘rsatib o‘tadi [82; 62-66-b.].

1. Adolatsizlik tajribasi. Aksiyadorlik nazariyasi nuqtai nazaridan so‘nishni o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otdi. Unga ko‘ra, odamlar boshqalarga nisbatan o‘z imkoniyatlarini mukofot, narx va ularning qo‘sghan hissasi omillariga qarab baholaydilar. Chunki, odamlar adolatli munosabatlarni kutishadi, bunda ular o‘z kuchi, malakasi, bilimi va qobiliyatini ishga solib mehnat qilgandan so‘ng undan oladiganlari boshqa odamlarning mehnati va undan oladiganlariga mutanosib bo‘lishi kerak. Aks holdaadolatsizlik kasbiy so‘nishni keltirib chiqaradigan muhim omil sifatida xizmat qiladi. Adolatsizlik tajribasi qanchalik ko‘p ifodalangan bo‘lsa, kasbiy so‘nish shunchalik kuchli bo‘ladi. Bunday paytlarda hayotdagi qiyinchiliklarni va yoshga bog‘liq inqirozlarni muvaffaqiyatli yengishga qodir optimistik va quvnoq odamlar kamroq "yonib ketishadi". Faol hayotiy pozitsiyani egallagan va qiyin vaziyatlarga duch kelganda ijodiy izlanishga murojaat qiladigan, aqliy o‘zini o‘zi

boshqarish imkoniyatlariga ega bo‘lganlar, o‘zlarining psixoyenergetik va ijtimoiy-psixologik resurslarini to‘ldirishga g‘amxo‘rlik qiladilar.

Ma’lum bo‘lishicha, kasbiy so‘nishni kamaytirish yoki oshirishda ikki omil katta rol o‘ynaydi. Bu bir tomondan, xodimda kuchli kasbiy muvaffaqiyat hissi yuqori bo‘lsa, boshqa tomondan, hissiy charchoq mavjud bo‘lsa, kasbiy so‘nishning u yoki bu ko‘rinishi namoyon bo‘ladi. Shuningdek, shaxsga ko‘rsatiladigan yordam qanchalik ko‘p bo‘lsa, hissiy so‘nish xavfi shunchalik past bo‘ladi.

2. Ishdan norozilik. Kuchliroq so‘nish tashkilotdagi ishning yoqimsizligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, kasbga nisbatan mehr, muhabbat qanchalik yuqori bo‘lsa, kasbiy so‘nishningsh xavflilik darajasi ham shunchalik past bo‘ladi. Kasbiy faoliyatdagi surunkali so‘nish ishdan ham, butun tashkilotdan ham psixologik ajralishga olib kelishi mumkin. "So‘ngan" xodim hissiy jihatdan ish faoliyatidan uzoqlashadi, salbiy hissiy tuyg‘ularini tashkilotda ishlaydigan har bir kishiga o‘tkazadi va hamkasblari bilan har qanday aloqadan qochadi. Avvalo, bu jismoniy izolyatsiya shaklida bo‘lishi mumkin va agar so‘nish davom etsa, u doimiy ravishda stressli vaziyatlardan qochishga harakat qiladi.

Kasbiy so‘nishda mutaxassislar ko‘pincha ish bilan bog‘liq hissiy stresslarga dosh bera olmaganda hamda bu sindrom yetarli darajada rivojlanganda, ular o‘zlarining boshqa salbiy xislatlarini ham namoyon qila boshlaydilar. Shuningdek, tashkilotning madaniy muhitni kasbiy so‘nish jarayonining rivojlanishiga ish haqi darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa, so‘nish darajasi shunchalik past bo‘ladi. Kasbiy so‘nish kuchayishi yoki yumshashi mutaxassisning yoshi, ish tajribasi va ishdan qoniqish darajasi bilan so‘nish darajasi, kasbiy o‘sishdan qoniqish darajasi o‘rtasidagi mutanosibliklarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

3. Mansabga intilish. Tadqiqotchilarning umumiyligi xulosaga kelishishicha, mansab intilishlarning aksariyat qismini amalga oshira olmaslik hissiy so‘nish, ichki stress darajasining oshishiga olib keladi. Erkaklar ko‘proq depersonalizatsiya darajasi va kasbiy muvaffaqiyatlarni yuqori baholash bilan ajralib turadi, ayollar esa hissiy charchoqqa ko‘proq moyilligi aniqlangan.

O‘qituvchi - ayollar "qiyin o‘quvchilar yoki talabalar"ni eng kuchli stress omillari deb atashadi. Erkaklarda esa - maktablarga xos

bo‘lgan byurokratiya va katta miqdordagi "qog‘oz" ishining ko‘pligi, ish faoliyatida chegaralanmagan vaqtga amal qilish va boshqa qator omillar kasbiy so‘nish darajasining ortishiga olib kelishi mumkin ekan.

4. Kasbiy so‘nish rivojlanishidagi shaxsga bog‘liq omillar.

Nazorat - bu shaxsning o‘z faoliyati natijalari uchun mas‘uliyatni tashqi kuchlar ya’ni, boshliqlar, jamiyat, davlat, iqtisodiy vaziyat va boshqalar (tashqi, tashqi nazorat lokusi) yoki o‘z qobiliyati va sa’yi-harakatlari zimmasiga yuklashga moyilligini tavsiflovchi sifatdir. Tashqi boshqaruvga moyillikni ya’ni, o‘z qobiliyatiga ishonchsizlik, muvozanatsizlik, tashvish, shubha, muvofiqlik va tajovuzkorlik kabi xususiyatlarning namoyon bo‘lishiga olib kelishi - ichki nazorat lokusidir. Ichki nazorat lokusiga ega bo‘lgan odamlar o‘ziga ishongan, muvozanatli, ochiqko‘ngil, do‘stona va mustaqil bo‘lib, bu xislatlar so‘nishning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi.

5. Kasbiy so‘nish jarayoni rivojlanishiga ta’sir etuvchi kasbiy omillar.

Ishlash uchun kasbga mehr, mehnatsevarlik, o‘z kasbiy faol fidoyilik, ijodkorlik istagi va kasbning o‘zi uchun qadrli bo‘lishi kasbiy so‘nish darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. Biroq, ehtimollik darjasini teng bo‘lgan-da, xodimni ijtimoiy obro‘-e‘tiborga, kasb hisobidan moddiy manfaat va hokimiyat motivlariga ega bo‘lish istagi boshqaradi. Kasbiy so‘nish belgilarining rivojlanishiga bunday ehtiyojlarning qondirmasligi yordam berishi mumkin.

6. Kasbiy so‘nish uchun xavf omillari.

Bularga rollar to‘qnashuvi, rolning haddan tashqari yuklanishi va rolning noaniqligi kiradi. Rol ziddiyati - bu xodimga qarama-qarshi talablar. Rojning noaniqligi - bu xodim uchun noaniq, noaniq talablar. Rojning haddan tashqari yuklanishi - rolni kutish individual qobiliyat va vazifani bajarish uchun motivatsiyadan ko‘ra ko‘proqdir. Ko‘pgina tadqiqotlar noaniq yoki qarama-qarshi talablarni qondirishga urinish natijasida rol muammolari va so‘nish o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatadi, bu odatda salbiy hissiy tajribalarga va tashkilotga ishonch hissini yo‘qotishga olib keladi.

7. Tashkiliy xususiyatlari.

Tashkilot muhitining turli xil xususiyatlari, masalan, kadrlar ishi, ish tartibi, rahbarlik xarakteri, mukofotlash tizimi, ijtimoiy-psixologik iqlim va boshqalar ish joyidagi stressning rivojlanishiga va natijada so‘nishga ta’sir qilishi

mumkin. Har qanday lavozim ma'lum bir mas'uliyat o'chovini uch ichiga oladi. Noaniqlik yoki mas'uliyatning yetishmasligi ham kasbiy stressning rivojlanishiga olib keladi. Agar odam o'z ishida hech narsani o'zgartira olmasa, hech narsa unga bog'liq bo'lmasa va uning fikri inobatga olinmasa, u holda ish bilan bog'liq stressni rivojlanish ehtimoli ortadi.

8. O'qituvchilar sog'lig'ini tiklashi uchun yaratilgan psixologik sharoitlar. Bugungi kunda ko'pchilik maktablarda o'qituvchilarni kasbiy qo'llab-quvvatlash tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagan. Shu бөнс mumkin bo'lgan so'nishga o'qituvchining o'zi qarshi turishi kerak. Kasbiy so'nishni kamaytiradigan eng yaxshi yo'l - ishongan hamkasbi bilan juftlikda ishlashdir. Bu o'z navbatida hujjatlarni to'ldirishni, kasbiy muammolarni bиргаликда muhokama qilishni va barcha tashkiliy masalalarda o'zaro yordamni o'z ichiga oladi. Nazorat va interviziya usullari shunga yaqin.

Tadqiqotchilar E. Edelvich, A. Brodskiy so'nishni umidsizlik jarayoni kontekstida ko'rib chiqadilar. Kasbiy so'nishni o'rghanish natijasida idealizm va quvvatni yo'qotish deb ta'riflanadi. Bunda ideal g'oyalar real vaziyatga to'g'ri kelmaydi, natijada inson o'zi xohlagan natijaga erisha olmaydi [131].

Bundan tashqari, kasbiy so'nish jarayonini o'rghanish bo'yicha yana bir nechta modellar mavjud. Masalan, A. Pines-Aronson modeli. Ushbu yondashuvda hissiy so'nish hissiyotlar bilan to'yingan voqealarda uzoq vaqt qolish tufayli kognitiv, jismoniy va hissiy charchoqning maxsus holati sifatida taqdim etiladi.

Ijtimoiy psixolog K. Maslach, odamlardagi hissiy qo'zg'aluvchanlikni yengishga yordam beradigan kognitiv strategiyalarini o'rghanish asosida ishchilarning kasbiy xattiharakatlariga ta'sir qilishi mumkinligiga e'tibor qaratadi. U kasbiy so'nishning asosiy sababini professional va uning mijozni, "yordam beruvchilar va uni oluvchilar" o'rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan hissiy ortiqcha yuklama sifatida namoyon bo'lishini aniqladi [73].

K.Maslachning ta'kidlashlaricha, ular bunday ijtimoiy munosabatlarning psixologik xavfini o'z boshlaridan o'tagan, salbiy hissiy yuklamani o'zi yelkalariga oladigan, og'ir yuk hisoblanadigan insoniy muammolar bilan shug'ullanishadi. Xodimda bunday

vaziyatlarda uzoq muddatli stress holatlar kuzatiladi va ular shaxsning o‘ziga hamda boshqalarga munosabatini ifodalashda namoyon bo‘ladi, jumladan, hissiy charchoq paydo bo‘ladi, mijozlarga beparvo munosabatda bo‘ladi, o‘zini o‘zi anglash istagi, o‘z malakasiga va muvaffaqiyatga ishonchi pasayadi [73;48-71-b.].

Turli xil mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda hozirgi vaqtida "ruhiy so‘nish" hodisasi har xil ma’noga ega (hissiy so‘nish, kasbiy so‘nish, kasbiy so‘nish sindromi va boshqalar). Ammo bu ta’riflarni sinchkovlik bilan tahlil qilish orqali mazkur tavsiflarning o‘xshashligi mavjudligini kuzatish mumkin. "Ruhiy so‘nish" deganda zamonaviy ma’lumotlarda ijtimoiy soha kasblarida namoyon bo‘ladigan jismoniy, hissiy va ruhiy so‘nish holati tushuniladi. Jumladan, tadqiqotchi R. Kochyunas “to‘yinganlik sindromi”ni “uzoq davom etadigan emotsiyal stress tufayli emotsiyal, aqliy va jismoniy charchoq bilan kechadigan murakkab psixofiziologik hodisa” deb ta’riflaydi [63].

V.V. Boykoning fikricha, hissiy so‘nish kasbiy so‘nish inson psixikasi tomonidan ishlab chiqilgan himoya mexanizmidir [28]. Travmatik xarakterdagi vaziyatlarga javoban hissiy reaksiyani to‘liq yoki qisman istisno qilish jarayoni. Ushbu turdagি himoya ko‘pincha professional sohada olinadi. Kasbiy so‘nishning himoya reaksiyalari energiya resurslaridan hisoblangan va tejamkor foydalanish imkonini beradi. Ammo tananing salbiy oqibatlarini minimallashtirishga urinishdan tashqari, kasbiy so‘nish xodimning kasbiy faoliyatiga va shaxsning rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan oqibatlar ham mavjud.

Olimlarning tadqiqotlarida so‘nish fenomenini hisobga olgan holda, quyidagi asosiy yondashuvlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) Individual psixologik. Shaxsning shaxsiy g‘oyalari, individual-psixologik xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan omillar.

2) Ijtimoiy-psixologik. Kasbiy so‘nishning asosiy sababi sifatida ijtimoiy sohadagi ishlarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘riladi. Bu ko‘p sonli odamlar bilan muloqot qilish zarurati bilan bevosita bog‘liq.

3) Tashkiliy va psixologik. Tashkiliy tuzilma shaxs so‘nishining asosiy omili sifatida qaraladi. Bunda avtonom nazoratning yo‘qligi, qo‘llab-quvvatlash, ko‘p sonli ziddiyatli vaziyatlar va rahbariyat

tomonidan xodimning qadrlanmasligi kasbiy so‘nish rivojlanishiga ta’siri o‘rganiladi [27].

Agar biz tashkiliy va psioologik yondashuvni batafsilroq ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ish muhitini so‘nishning asosiy omili sifatida alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Ya’ni, ishdagi ko‘p sonli vazifalar va ish muammolari, muntazamsizlik, stress [28].

Ekzistensial yondashuv vakillari, xususan, A. Pines o‘z asarlarida yuqori darajadagi intilishlarga ega bo‘lgan ijtimoiy ishchilarni so‘nish sindromi rivojlanishiga eng sezgir deb hisoblaydi.

A. Lengle shunday ta’kidlaydi: ishning shaxs uchun ahamiyati qanchalik yuqori bo‘lsa, umidsizlik shunchalik ko‘p bo‘ladi va xodimni kasbiy so‘nishga olib kelishi mumkin. Va aksincha, u harakatlarda qanchalik kam ma’noni ko‘rsa, kasbiy so‘nish rivojlanish xavfi shunchalik yuqori bo‘ladi [68; 165-b.].

Shaxslararo yondashuv tarafdarlari kasbiy so‘nish sabablarini jamoadagi ishchilar o‘rtasidagi kelishmovchiliklarda ko‘rishadi. K.Maslach, shuningdek, so‘nishning muhim sabablaridan biri jamoadagi keskinlik, deb hisoblaydi. Xavf jamoada nomutanosib munosabatlarni keltirib chiqaradigan salbiy hissiy xatarda yotadi deydi [73; 234-b.].

Geshtalt-terapiya so‘nishni xodimning o‘zini butun shaxs sifatida idrok yetishini yo‘qotish bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Natijada, "Men - Real" bilan chegaralar yo‘qoladi va himoya quriladi.

Hissiy so‘nish muammosi nazariyalari va yondashuvlarida biroz farqlar mavjud bo‘lsada, ammo deyarli barcha tadqiqotchilar kasbiy so‘nishning asosiy manbai professional stress ekanligini ta’kidlashadilar. Kasbiy so‘nishga stress ta’sirini eng to‘liq o‘rgangan tadqiqotchi G. Sele bu masaning mohiyatini o‘z asarlarida ochib berishga harakat qiladi. Psixologik stress ma’lum bir shaxsning xususiyatlariga ko‘ra, ko‘p shakllarga ega va hissiy so‘nish stressli holatning turlaridan biridir. G. Sele hissiy so‘nish kuchli ruhiy, hissiy va kommunikativ ortiqcha yuklama bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi [103].

Oliy ta’lim o‘qituvchilarida so‘nishiga ikkita bog‘liq tushuncha mavjud - kasbiy so‘nish va hissiy so‘nish. Ularning har birini tahlii qiladigan bo‘lsak. Masalan, E.A.Chekareva kasbiy so‘nishni

"odamdan odamga" kasb turidagi eng xavfli kasb kasalligi sifatida ta'riflaydi: o'qituvchilar, ijtimoiy ishchilar, psixologlar, barcha darajadagi menejerlar, shifokorlar, jurnalistlar, biznesmenlar va siyosatchilar - barchasi. faoliyati aloqa bilan chambarchas bog'liq" [45].

N.V.Vodopyanova o'z asarlarida ta'kidlaganidek, kasbiy so'nish - bu o'rta intensivlikdagi uzoq muddatli professional stress natijasida yuzaga keladigan uzoq muddatli stress reaksiyasi. Buni kasbiy stress ta'sirida yuzaga keladigan shaxsiy deformatsiya aspektida ko'rib chiqish mumkin» [45;78-b].

Birinchi marta "hissiy so'nish" sindromining rivojlanishga moyillikdagi individual xususiyatlar N.A.Aminov tomonidan o'qituvchilik kasbini tanlashning asosiy sharti sifatida ko'rib chiqiladi. U "emosional charchash" sindromining rivojlanishiga tolerantlikdagi individual farqlar va asab tizimining tipologik xususiyatlari (zaiflik, labillik, asabiy jarayonlarning faollashishi) o'rtasidagi bog'liqliknini topadi.

N.A. Aminovning so'zlariga ko'ra, bu bog'lanishlar pedagogik faoliyat uchun tabiiy shartlar mavjudligi zarurdir. Aniqlangan individual farqlarning "hissiy charchash" rivojlanishiga tolerantlikning ta'siri pedagogik mutaxassislikni tanlash bosqichida emas, balki o'rta va oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalarini o'qitish jarayonida va ayniqlsa, maktabda ishlagan birinchi yetti yilga to'g'ri keladi [14].

T.V. Formanyuk o'z davrida mohiyatan emotsionallik o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyati ekanligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, ularda his-tuyg'ular spektri juda xilma-xildir: bu muvaffaqiyatli o'tkazilgan darsdan qoniqish va hamkasbining maqtovidan zavqlanish va ularning tarbiyalanuvchilari yoki hamkasblarining muvaffaqiyatidan quvonch va buzilgan darsdan qayg'u va afsuslanishlari, o'quvchi yoki talabaning darsga tayyor emasligi, tanlagan kasbidan g'ururlanishi yoki undan ko'ngli qolishi va boshqalardan iboratdir [119].

Pedagogik faoliyatga oid mavjud tadqiqotlardan (S.G.Vershlovskiy, A.V. Yemelyanenkova, [54] Z.F. Yesareva, [55] A.K.Markova, L.M.Mitina, [78] A. O Proxorov, A. S. Shafranova, A. I. Shcherbakov, V. A. Yakunin) ham pedagoglik kasbining potensial

hissiylikka xos deb tavsiflash imkonini beradigan bir qator xususiyatlarga ega ekanligini qayd etiladi.

N.V.Kuzmina, [62] Yu. L. Lvova, [64] N.B. Moskvina, [75] A.S. Slastenin, V.E.Orel, [84] A.A. Rukavishnikov va boshqalarning ta'kidlashlaricha, pedagogik ishning aqliy zo'riqishni talab etishligi uning o'ziga xosligi bilan belgilanadi va uchta asosiy tarkibiy qismlar: pedagogik muloqot, pedagogik faoliyat va o'qituvchi shaxsiyati xususiyatlari bilan bevosita bog'liqdir.

Shunday qilib, biz kasbiy so'nish - hissiy so'nishga nisbatan torroq yo'naltirilgan atama deb taxmin qilishimiz mumkin. Bu atamalarning o'zaro bog'liqligini birinchilardan bo'lib, E.Edelevich, A.Brodskiy kabi olimlar asoslab bergenlar. Ularning hissiy so'nishga bag'ishlangan ishlariga asoslanib, shunday xulosaga kelish mumkinki, hissiy so'nish kasbiy so'nish uchun "qo'shimcha" bo'lib xizmat qiladi. Ular tomonidan ishlab chiqilgan "asta-sekin progressiv umidsizlik" konsepsiyasi shuni ko'rsatadiki, kasbiy so'nish hissiy so'nishning bir qator omillari: kundalik voqelik tufayli idealistik umidlarning puchga chiqishi, faoliyat va ish sharoitlarini baholash natijasida yuzaga keladi [132]. Ular kasbiy so'nishning quyidagi bosqichlarini ajratadilar: "ishtiyooq bosqichi", "turg'unlik bosqichi", "fruziya bosqichi" va "apatiya bosqichi". Shuningdek, tadqiqotchilar kasbiy so'nish rivojlanishining ichki va tashqi sabablarini aniqlaydilar.

Hozirgi vaqtida so'nishga qarshi ko'plab mexanizmlar mavjud bo'lib, ular orasida A. Ellis va Ch.Reymondning kognitiv-xulq-atvor terapiyasiga asoslangan modellar mavjud [53]. Ushbu modellar o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishni o'rganish orqali o'z hayotini nazorat qilish tuyg'usini oshirishga qaratilgan. Olimlar nuqtai nazaridan his-tuyg'ular hayotimizda sodir bo'layotgan voqealar bilan bog'liq. Terapevtlarning ta'kidlashicha, odamlar bunday hodisalarni talqin qilishning noto'g'ri va mantiqsiz usullariga ega bo'lib, kuchli hissiy iztirob va stressni keltirib chiqaradi.

O'rganishlarimizga qaraganda, pedagoglarda kasbiy so'nish muammosi yuzasidan Respublikamizda juda kam ilmiy izlanishlar olib borilganligi kuzatiladi. Ammo, aynan kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini bo'lmasada, o'qituvchi shaxsi va uning shakllanishi, uning kasbiy rivojlanishi, kasbiy o'z-o'zini anglashi, o'qituvchi shaxsiga xos bo'lgan xislatlar, stress va kasbiy

stress masalalariga bag‘ishlagan ilmiy tadqiqotlar uchraydi. Xususan, psixologiya fanlari doktori D.S.Qarshiyevaning “Pedagog shaxsida kasbiy stress namoyon bo‘lishiga psixologik determinantlarning ta’siri” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ishida pedagog shaxsida kasbiy stressning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar va ularning o‘qituvchilarda kasbiy so‘nish jarayoniga ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotchi pedagoglardagi kasbiy stressning namoyon bo‘lishi pedagogik jamoadagi ijtimoiy-psixologik muhit, pedagogning kasbiy faoliyatga tayyorlik darajasi va pedagogik ish stajiga oid dinamik xususiyatlar, kasbiy stressni bartaraf etish chora-tadbirlari va salbiy emosional holatlarni bartaraf etish yo‘llari bo‘yicha qimmatli mulohazalarni o‘rtaga tashlaydi [61].

M.Kaplanova tomonidan “O‘zbek maktablari o‘qituvchisi shaxsining psixologik xususiyatlari” nomli dissertatsiya ishida o‘zbek maktabi o‘qituvchilarining shaxsiy kasbiy sifatlarini shakllanishiga ta’sir etuvchi etnopsixologik, ijtimoiy omillarning o‘rni tahlil qilib berilgan [57].

Tadqiqotchi o‘z dissertatsiya ishida pedagogning o‘z-o‘ziga munosabatini uch jihatni, ya’ni global o‘z-o‘ziga munosabat – integral “Men”, o‘z-o‘zini hurmat qilish va autosimpatiyaga asoslangan o‘z-o‘ziga munosabat, o‘z “Men”iga nisbatan aniq harakatlar darajasining o‘z-o‘ziga baho, shaxs xususiyatlari bilan bog‘liqligini etnopsixologik jihatlari tadqiq etilgan [57].

Sh.G.Saparovning o‘qituvchilarining shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotida ta’kidlanishicha, ularning shakllanishi va rivojlanishi kasbiy faoliyatda amalga oshadi. Uning namoyon bo‘lish darajasi va sifati o‘qituvchilarning yoshi va ish staji bilan uzviy bog‘liqdir. Shuningdek, muallif kasbiy xususiyatlarning rivojlanishida jins va kasbiy faoliyatning motivatsion asosi kabi omillarni ham ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, “Yutuqqa erishishga bo‘lgan ehtiyojning yuqori darajasi tendensiyasi asosan 10 yilgacha stajga ega bo‘lgan 30-35 yoshgacha o‘qituvchilarda namoyon buladi. Keyin faoliyatda yutuqqa erishish extiyojining barqarorlashib borishi natijasida o‘rtacha qiymatlar tenglashib boradi [239].

A.M.Jabborovning ilmiy izlanishlarida o‘qituvchi kasbi va unga qo‘yiladigan talablarning milliy mental xususiyatlari tahlil qilib berilgan. Bunda o‘qituvchining milliy xususiyatlari sifatida

atrofdagilarga xushmuomalalik va hurmat bilan munosabatda bo‘lish, o‘zini tuta bilish, milliy ong saviyasining yuqoriligi, o‘qituvchi obro“siga mosligi, ijtimoiy dadillik alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Muallif tomonidan ko‘rsatilgan o‘qituvchining milliy qiefasini bevosita uning kasbiy faoliyatga moslashuvini ta’minlaydi va bu holat kasbiy faoliyatdagi destruktiv holatlarning oldini olishga xizmat qiladi [54].

A.A.Beknazarov esa o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarning emotsiyal-qadriyatli tizimini tahlil qilgan. Emotsional-qadriyatli munosabatning qiesiy tahlili o‘qituvchi bilan o‘quvchilar orasidagi shaxslararo munosabatlarining emotsiyal barqarorligini, kognitiv darajada uyushqoqligini ta’minlaydi [22].

Yu.M.Asadovning dissertatsion tadqiqotida umumta’lim maktabi o‘qituvchisining malaka oshirish tizimidagi kasbiy-shaxsiy o‘sish yo‘nalishini belgilovchi psixologik xususiyatlari o‘rganiladi. Bu bosqichda mahoratni mustahkamlash, kasbiy tiklanish samaradorligi ko‘p jihatdan shaxsning psixologik xususiyatlariga bog‘liq [15].

Sh.X.Abdullayevaning “Umumiyy ta’lim maktab o‘qituvchilarining emosional baqarorligining psixologik xususiyatlari” mavzusidagi dissertasion tadqiqotida umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining shaxs, individual psixologik va hissiy-emosional xususiyatlari, o‘qituvchilarining o‘quvchilarga nisbatan shaxslararo munosabatlari emotsiyal beqarorlik holatining kelib chiqishiga ta’siri, umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining kommunikativ kompetentligi va o‘qituvchilarda emosional so‘nishning oldini olish ayrim masalalari va shu kabilar tadqiq qilingan. [11].

O.E.Xayitov, L.U.Inagamovalarning “Stressni boshqarish” darsligida yosh raxbarlar mo‘ljallangan stress psixologiyasi, stressga bardoshlilik to‘grisidagi ta’limotlarning asosiy nazariy qoidalari, stressli xolatlat va emosional toliqish vujudga kelishining sabablar yosh raxbarlarda stressga bardoshlilikni shakllantiruvchi psixologik mexanizmlari muayyan darajada taxlil qilingan. [122].

Z.B.Madaliyevaning tadqiqot ishida o‘qituvchining kasbiy faoliyatdagi beqaror emotsional holati emotsional so‘nish sindromining kelib chiqishiga va pedagogik faoliyat samaradorligini pasaytirishiga olib kelishi o‘rganilgan. Tadqiqotchi emotsional so‘nish sindromining kelib chiqishida psixoemotsional “Men obrazi”ni, kasbiy faoliyatdagi emotsional noturg‘unlikni, refleksiya,

empatiya, o‘z-o‘zini boshqarishning ahamiyatini tizimli ravishda tahlil qilib bergan [71]. Ilmiy tadqiqotdan olingan natijalar asosida pedagoglardagi emotsional so‘nish sindromini korreksiyalashda emotsional kompetentlikni oshirish mexanizmining mualliflik variantini taklif etgan.

R.Z.Gaynutdinov o‘z tadqiqotlarida o‘zbek milliy maktabi o‘qituvchisining “Men konsepsiysi”ga o‘z munosabatini bildirib, uning namoyon bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarga o‘qituvchining chuqur kasbiy bilimga egaligini (kompetentligi va layoqatini), o‘zbek milliy maktabi o‘qituvchisiga xos xususiyatlar sifatida konformlik harakatdagi ehtiyyotkorlik,sovuoqqonlik, o‘zaro hurmat, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanishni kutish, hamdardlik va yaxshilikka moyilik kabi etnotipik jihatlarini sanab o‘tadi [46].

R.B.Abduraxmonovaning “Pedagog va psixologlarda kasbiy yo‘nalganlikning kamol topishi” mavzusidagi dissertasion ishida kasbiy pedagogik va psixologik yo‘nalganlik komponentlari aniqlangan va oliv o‘quv yurtida tayyorgarlik davrida uning shakllanish dinamikasi o‘rganilgan.

1.2-§. Kasbiy so‘nish tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari, komponetlari va bosqichlari

Surunkali stress fonida rivojlanadigan va mehnat faoliyatida xodimning hissiy, energetik va shaxsiy resurslarining so‘nishiga olib keladigan sindrom bu kasbiy so‘nish hisoblanadi. Kasbiy so‘nish salbiy his-tuyg‘ularning ichki to‘planishi natijasida paydo bo‘lib, ulardan tegishli "qutulish" yoki "ozod qilinmaslik" bu jarayonning kuchayib borishiga olib keladi. Umumy olganda, kasbiy so‘nish - bu qayg‘u yoki umumiyl moslashish sindromining uchinchi - so‘nish bosqichidir.

Chet el adabiyotlarida so‘nish sindromi kuyish (inglizcha) atamasi bilan "so‘nish", "qiziqishning zaiflashishi" ma’nolarini anglatadi. Kasbiy so‘nish fenomeni bilan bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan ta’riflarni ko‘rib chiqamiz.

Kasbiy so‘nish – bu kasbiy faoliyat jarayonida shaxsning mavjud psixologik tuzilishining yo‘qolishi, o‘zgarishi yoki deformatsiyalanishidir.

Kasbiy so'nish sindromi - bu psixologik, psixofiziologik va xulq-atvor komponentlarini o'z ichiga olgan mehnat faoliyatidagi stressga nisbatan salbiy reaksiyadir. Ishdagi stressning oqibatlari og'irlashgani sayin, insonning ma'naviy va jismoniy kuchi zaiflashadi, u kuchsizlanadi, sog'lig'i yomonlashadi. Boshqalar bilan aloqalarning pasayishiga charchoqlik olib keladi va bu, o'z navbatida, yolg'izlikning kuchayishiga sabab bo'ladi. Ish faoliyatida odamlarning motivatsiyasi pasayadi, ishga befarqlik rivojlanadi, mehnat sifati va unumdorligi sustlashadi.

Kasbiy charchash yoki so'nish boshqacha qilib aytganda - bu odam uzoq vaqt davomida o'rtacha stress ostida bo'lganligi sababli paydo bo'ladigan uzoq davom etadigan stress reaksiyasi yoki sindromidir. Shuning uchun ko'plab tadqiqotchilar o'qituvchining hissiy charchashini aqliy yoki kasbiy charchoq sindromi deb ham atashadi.

Amerikalik psixiatr G. J. Freydenberger buni ruscha "to'yganlik" degan ma'noni anglatuvchi "*burnout*" deb atagan. Ko'pincha bu so'z so'zlashuv ingliz tilida giyohvandlik haqida gap ketganda ishlatiladi. Ular ta'lim sohasi haqida gapirganda, o'z ishiga juda kuchli kirishib ketgan o'qituvchilarning qaramligini bildiradi.

Tadqiqotlarga ko'ra, kasbiy so'nish ko'proq yoshi 35-40 yoshdan oshgan odamlarda uchraydi. Bu vaqtida ular tajribali mutaxassis bo'lib, farzandlari ulg'ayib, ularga kamroq kuch sarflaydilar. Bu professional yuksalish bo'lishi kerak bo'lgan paytga o'xshaydi, ammo hamma narsa butunlay boshqacha tarzda sodir bo'ladi. Ya'ni, o'qituvchi o'z ishida kamroq faol bo'ladi, uning motivatsiyasi yo'qoladi, charchoq kuchayadi. Ko'pincha juda yaxshi o'qituvchi kasbiy charchaganligi sababli mакtabda ishlashga yaroqsiz bo'lib qoladi. Bunday vaziyatlarda ayrim pedagoglar o'z ish joyini ta'lim bilan bog'liq bo'lmasligi uchun o'zgartiradilar, lekin bari bir bolalar bilan mashg'ulotlarni juda sog'inadilar.

Xo'sh so'nish sindromi qanday namoyon bo'ladi? Agar o'qituvchining kasbiy so'nishi o'z vaqtida sezilmasa yoki uni bartaraf etish uchun ataylab hech qanday chora ko'rilmasa, bu shaxsning o'zgarishiga olib kelishi mumkin.

O'qituvchining kasbiy so'nishini ko'rsatadigan asosiy belgilar:
- uyqusizlik;

- charchoq;
- psixosomatik asoratlar;
- maktab o‘quvchilari va hamkasblariga nisbatan salbiy munosabat;
- o‘z kasbiga nisbatan salbiy munosabat, ishlashni istamaslik;
- o‘z vazifalarini bajarishga beparvolik;
- psixostimulyatorlar hajmining oshishi;
- ishtahaning yo‘qolishi yoki ortiqcha ovqatlanish;
- o‘ziga past baho berish;
- tajovuzkorlikning kuchayishi;
- passivlikning kuchayishi;
- aybdorlik hissi.

So‘nish asta-sekin rivojlanadi: birinchi navbatda, hissiy charchoq hissi paydo bo‘ladi, keyin qattiq charchoq yuzaga keladi, bu esa bir muncha vaqt o‘tgach, umidsizlikka aylanadi, o‘qituvchi endi bu kasbga qiziqmasligini va ishga borish istagi yo‘qligini tushunadi.

So‘nish sindromining eng keng tarqalgan modeli 1981 yilda ishlab chiqilgan K. Maslach va S. Jekson bo‘lib, ular hissiy charchashni uchta asosiy komponentga ajratdilar:

1. Emosional charchoq nochorlik, umidsizlik, tanazzul, charchoq hissi, energiya tonusi va ish sifatining pasayishi, jismoniy kasalliklarning paydo bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Ma’lum bo‘lishicha, his-tuyg‘ulari yo‘q shaxs, boshqalarda muammolar va umuman his-tuyg‘ularni keltirib chiqarmaydi.

2. Ikktnchi komponent - depersonalizasiya, bu boshqalar bilan o‘zgargan munosabatlarda kuzatilishi mumkin. Ba’zilar uchun bu boshqa odamlarga qaramlikning ko‘rinishi, kimdir, aksincha, hech kim bilan muloqot qilishni istamaydi va odamlarga salbiy munosabatda bo‘ladi. Depersonalizatsiya rivojiana boshlaganda, o‘qituvchida bolalarni alohida shaxslar sifatida ko‘rishni to‘xtataydi. O‘qituvchi o‘quvchilardan yomonlik kutgani uchun ulardan uzoqlashadi. Salbiy reaksiyalar aloqa qilishni istamaslik, bolalarga nisbatan kamsituvchi munosabat, ularning iltimoslarini e‘tiborsiz qoldirishga olib kelishi mumkin.

3. Oxirgi komponent - qisqartirilgan professional amaliyat. Bu salbiy o‘z-o‘zini tanqid qilish, o‘z kasbi va undagi muvaffaqiyatiga, xizmatdagi fazilatlari va mahoratiga salbiy baho berish yoki o‘z qadr-

qimmatini kamsitish, o‘z imkoniyatlarini va boshqalar oldidagi majburiyatlarini kamaytirish orqali ifodalanishi mumkin. Kuchlanish bilan kurashish uchun manbalar har bir insonda turli xil resurs profiliga ega bo‘lib, u professional charchashni yengish va uni yengish yo‘llarini topishga yordam beradi [74].

Shunday qilib, inson hayotda ishdan tashqari juda ko‘p qiziqarli va muhim narsalar borligini tushunadi. Va butunlay boshqacha holat - odam doimiy stressda bo‘lsa, u oilada muammolarga duch keladi, bo‘sh vaqt yetarli emas yoki u o‘zini o‘zi yuq qilishga sarflaydi va uning resurslari tugaydi.

Insonning kasbiy o‘zini o‘zi anglashini shakllantirish va maktab o‘qituvchilari o‘rtasida kasbiy so‘nish sindromining paydo bo‘lishi shaxsiy, tashkiliy va vaziyat omillarining murakkab o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, subdepressiya belgilariga moyil bo‘lgan o‘qituvchilar past kompetentsiya, turli xil hayotiy vaziyatlarga dosh bera olmaslik, muvaffaqiyatga intilmasligi va o‘z-o‘zini intizomining pastligi kabi bir qator xususiyatlarni namoyon qiladi. Bu omillar hissiy charchoqqa olib keladigan subdepressiya belgilarining rivojlanishiga yordam beradi.

O‘quv faoliyatida subdepressiv hissiy charchoqning paydo bo‘lishiga ta’sir qiluvchi uchta asosiy omil mavjud: shaxsiy, kommunikativ va tashkiliy. Shaxsiy omil asosiy rol o‘ynaydi va boshqa omillarning ta’sirini yumshatadi. O‘z-o‘ziga ishonchning yo‘qligi, tashvishning kuchayishi, hissiy qat’iylikka moyillik va histuyg‘ular va xatti-harakatlarning o‘zini o‘zi boshqarishning past

darajasi o‘qituvchilarda subdepressiya belgilari rivojlanishiga yordam beradigan asosiy shaxsiy xususiyatlardir.

Kommunikativ omillari ham muhim rol o‘ynaydi. Kam emotsiyal sezuvchanlik, kasbiy sohadagi munosabatlardan norozilik, hamkasblar va talabalar bilan aloqa o‘rnatolmaslik, shuningdek, jamoadagi psixologik iqlimga moslasha olmaslik hissiy charchoq alomatlarini oshiradi.

Kuchlanishning tizimli omillari qadriyatlar, ish talablari va tashkiliy omillar o‘rtasidagi nomuvofiqlikni o‘z ichiga oladi. Doimiy ravishda boshqalarning his-tuyg‘ulari va bolalar va ularning muammolari uchun mas’uliyat bilan o‘ralganligi o‘qituvchilarning hissiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Ma’lumki, pedagogik faoliyat, eng avvalo, ma’lum bilimlarni bolalarga berishdir. O‘qituvchi bolalarga borishi kerak bo‘lgan asosiy narsa - mavzuni bilish, bilimdonlik, ma’lumotni bilish, sog‘liq, o‘zini o‘zi qadrlash, bolalarga muhabbat, xotirjamlik, psixologik iqlim, hissiy munosabat va boshqalar. Albatta, barcha kasbiy faoliyat nafaqat jismoniy va psixologik xususiyatlarga, balki muvaffaqiyatli ishslashga yordam beradigan shaxsiy fazilatlarga ham qurilgan. Bu, ayniqsa, boshqa shaxs bilan o‘zaro munosabat faoliyatning asosi bo‘lgan kasblar uchun to‘g‘ri keladi va muvaffaqiyat ikkala tomonning fazilatlariga bog‘liq.

Shunday qilib, o‘qituvchi ma’lum bir shaxsiy fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligiga shubha yo‘q. Pedagogik adabiyotlar ko‘pincha muvaffaqiyatli o‘rganish uchun zarur bo‘lgan ushbu fazilatlarni aniqlashga harakat qiladi. Biroq, bunday harakatlar odatda zamonaviy jamiyatda munosib insonga xos bo‘lgan fazilatlarni sanab o‘tishga to‘g‘ri keladi: insoniylik, halollik,adolat, mehnatsevarlik va boshqalar. Biroq, bu fazilatlar, garchi muhim bo‘lsa-da, har doim ham aniq bir kasb bilan bevosita bog‘liq emas.

O‘qituvchilar orasida hissiy charchoq, birinchi navbatda, ularning individual shaxsiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu o‘qituvchining qiymat-motivatsion sohasidagi qarama-qarshiliklar, shu jumladan qadriyatlarni amalga oshirishning mumkin emasligi, muhim shaxsiy xususiyatlari, xulq-atvor turlari va kasbiy faoliyatning ma’nosini tashkil etuvchi afzal qilingan harakat uslubi bilan bog‘liq. Emotsional beqarorlik bilan ajralib turadigan nevrotizmning yuqori darajasi ham

muhim rol o‘ynaydi. Bu omillar o‘qituvchilarning hissiy charchoqlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga ta’sir qiladi, jumladan, o‘z his-tuyg‘ularini nazorat qila olmaslik, o‘z-o‘zini boshqarishda moslashuvchanlikning yo‘qligi va boshqa jihatlar.

O‘qituvchining yoshi va tajribasi bilan o‘quv yuki ortadi, bu esa charchoqqa, tashvishning kuchayishiga va kayfiyatning pasayishiga olib keladi. Bu turli xil psixologik va xatti-harakatlarning buzilishiga olib kelishi mumkin. Emotsional va intellektual charchoq hissi, ish qobiliyatining pasayishi va depressiv tajribalar o‘qituvchilarning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlariga aylanib bormoqda, bu ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga ta’sir qiladi.

O‘qituvchi faoliyatidagi hissiy stress doimo rag‘batlantirish va jazolar to‘g‘risida qaror qabul qilishda, nizolarni hal qilishda, o‘qitish va tarbiya usullarini tanlashda va hokazolarda yuzaga keladi. O‘qituvchining kundalik ishi fikrlash va eng yaxshi echimlarni topish uchun vaqt yo‘qligi sababli katta nevro-psixik yuk bilan birga keladi. Hissiy kuchli vaziyatlar o‘qituvchini ularni uchrashishdan yoki kutishdan qochishga majbur qiladi.

2.2-§. Pedagoglarda kasbiy so‘nish muammosini o‘rganishning metodologik ta’minoti

Psixologiya fanining metodologik muammolari to‘g‘risida aniq-ravshan mulohaza yuritish metodologiyaning o‘ziga qanday ta’rif berilganligini tahlil qilib chiqish lozim, maxsus nashrlarda (ensiklopediya, falsafiy va psixologik lugatlarda, ayrim monografiyalarda hamda darsliklarda) metodologiya terminiga turlituman shaklda, keng va tor ko‘lamda uning moxiyatini yechib berishga xarakat qilingan va bu asnoda muayyan darajada aniklikka erishilgan ham. Hozirgi zamon psixologiya fanida ilmiy an‘analarga asoslangan holda "metodologiya" terminini tahlil qilinganida ilmiy yondashuvning har xil xususiyatlari uch darajasi nazarda tutiladi va ularning o‘zaro aloqasi, o‘zaro ta’siri hamda umumiylilik, taqozo etuvchanlik tomonlari (jabhalari) zaruriy unsur sifatida e‘tiborga olinadi.

Quyida tadqiqotimizda qo‘llanilgan metodikalarning qisqacha tavsifini berib o‘tamiz.

1. K.Maslach va S.Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” so‘rovnomasining (Maslach Burnout Inventory MBI) N.E.Vodopyanova tomonidan modifikatsiya qilingan varianti o‘tkazildi va so‘rovnoma keltirilgan his-tuyg‘ularni qanchalik tez-tez boshdan kechirishlarini ko‘rsatish so‘raladi.

So‘rovnoma 3 ta shkala mavjud: “Hissiy charchoq” (9 ta ta’kid); "Depersonalizatsiya" (5 ta ta’kid); "Shaxsiy yutuqlarning kamayishi" (8 ta ta’kid).

So‘rovnoma javoblari quyidagicha baholandi: 0 ball - "hech qachon", 1 ball - "juda kam", 3 ball - "ba’zan", 4 ball - "ko‘pincha", 5 ball - "juda tez-tez", 6 ball - "har kuni".

Birinchi va ikkinchi shkala bo‘yicha ballar yig‘indisi qancha ko‘p bo‘lsa, mavzuda "so‘nish" ning turli tomonlari shunchalik aniq bo‘ladi. Uchinchi shkala bo‘yicha ball qancha past bo‘lsa, professional "tushganlik" shunchalik past bo‘ladi.

“Emotsional buzilish” – 1, 2, 3, 6, 8, 13, 14, 16, 20-bandlar bo‘yicha javoblar.

«Depersonalizatsiya» – 5, 10, 11, 15, 22-bandlar bo‘yicha javoblar.

“Shaxsiy yutuqlarni reduksiya qilish ” – 4, 7, 9, 12, 17, 18, 19, 21-bandlar bo‘yicha javoblar.

2.V.V.Boykoning “Emotsional so‘nish darajasi diagnostikasi” so‘rovnomasi.

Ushbu metodikaning maqsadi psixojarohatlovchi ta’sirga javoban his-tuyg‘ularni to‘liq yoki qisman chiqarish orqali o‘zini namoyon qiladigan psixologik himoya mexanizmini aniqlashdir.

So‘rovnoma 84 ta ta’kidlarni o‘z ichiga oladi.

V. Boyko bo‘yicha emotsional kuyish sindromi uchta fazaga ajratiladi:

1. Tajriba kasbiy faoliyatdan hissiy beqarorlik va charchoq bilan tavsiflanadi. Quyidagi alomatlar kuzatiladi:

-Inson travmatik vaziyatlarni boshdan kechiradi, mehnat sharoitlari va shaxslararo munosabatlarni psixotravmatik sifatida idrok qiladi.

-O‘zidan qoniqmaslik hissi: o‘z kasbiy faoliyatidan norozilik va o‘z mahoratiga ishonchhsizlik.

-Qaror qabul qilishda qiyinchilik: istiqbol yo‘qligi va vaziyatni yoki kasbiy faoliyatni o‘zgartirish istagi.

- Xavf va depressiya: ishdagi stress va noaniqlik hissi natijasida stress va tushkunlik hissi kuchayishi.

2. «Rezistensiya» – emotsional buzilish bilan xarakterlanib, u insondagi himoya reaksiyalari sifatida namoyon bo‘lib, shaxsda hissiy yetishmovchilik, yolg‘izlanish, e‘tiborsizlik xislatlarni kuchaytiradi. Bunday ko‘rinishdagi har qanday emotsional buzilishda kasbiy faoliyat va kommunikativ jarayondagi buzilishlar kuzatiladi.

Quyidagi alomatlar kuzatiladi:

- noadekvat hissiy javob reaksiyasi – kasbiy faoliyatga nisbatan nazorat qilib bo‘lmaydigan kayfiyat;

- emotsional-ma’naviy yo‘nalganlikning buzilishi - kasbiy munosabatlarga nisbatan e‘tiborsizlik;

- hissiy saqlash sohasining kengayishi: hissiy yaqinlik, begonalashish va har qanday aloqadan qochish istagida o‘zini namoyon qiladi;

- kasbiy mas’uliyatni kamaytirish: ishdan tanaffus qilish va kasbiy vazifalarni bajarishga imkon qadar kamroq vaqt sarflash istagida namoyon bo‘ladi.

3 "Charchoq" psixofiziologik toliqishni, xaddan tashqari charchashni, kasbiy yutuqlarni tan olmaslikni, kasbiy muloqotni buzishni va hamkasblarga nisbatan qo‘pol munosabatni, shuningdek, psixosomatik kasallikkarni anglatadi.

Simptomlarga quyidagilar kiradi:

- Hissiy yetishmovchilik: ortiqcha ish, ishda hissiy investitsiyalarning pasayishi, avtomatizm va vazifalarni bajarishga buzg‘unchi yondashuv tufayli hissiy befarqlikda namoyon bo‘ladi.

- Hissiy begonalashuv: professional muloqotda himoya qatlamini yaratishda ifodalanadi.

- Shaxsiy begonalashuv (depersonalizatsiya): professional munosabatlarning buzilishiga va boshqalarga nisbatan qo‘pol xattiharakatlarga olib keladi.

- Psixosomatik kasalliklar: jismoniy farovonlikning yomonlashishi, uyqu buzilishi, bosh og‘rig‘i va qon bosimi muammolari.

Natijalarni talqin qilish uch bosqichda sodir bo‘ladi, ularning har biri to‘rtta simptomni o‘z ichiga oladi. Kalitdan foydalanganda

quyidagi hisob-kitoblar amalga oshiriladi: ballar miqdori har bir xususiyat uchun alohida belgilanadi. Bu usul tükenmişlik sindromi haqida batafsil ma'lumot beradi. Avvalo, siz individual alomatlarga e'tibor berishingiz kerak. 20 yoki undan yuqori ballga ega semptomlar bosqichda yoki umumiylar charchoq sindromida dominant hisoblanadi.

So'rov natijalarini tahlil qilishning navbatdagi bosqichi "kuchlanish", "qarshilik" va "charchoq" ko'rsatkichlari bilan ifodalanadigan stressning rivojlanish bosqichlarini tushunishdir. Ushbu ko'rsatkichlarning har biri 0 dan 120 ballgacha baholanishi mumkin. Biroq, bosqich ko'rsatkichlarini taqqoslash noto'g'ri bo'lishi mumkin, chunki ular nisbiy ahamiyatini yoki sindromning rivojlanishiga hissasini ko'rsatmaydi. Fazalarning har biri qanchalik rivojlanganligini va ularning qaysi biri aniqroq ta'sirga ega ekanligini tushunish muhimdir.

3. A. A. Rukavishnikov "Psixik toliqishni aniqlash" testi.

Sinovning maqsadi. Ushbu test ruhiy "charchash"ning integral diagnostikasiga qaratilgan bo'lib, shaxsning turli subtuzulmalarini o'z ichiga oladi.

A.A. Rukavishnikovning "Psixik so'nishni aniqlash" metodikasining integral diagnostikasi, shu jumladan turli xil shaxsiy tuzilmalarni aniqlashga qaratilgan. Savollardan ish bilan bog'liq histuyg'ularga oid bir qator ta'kidlarga javob berish so'raladi.

Metodika uchta asosiy shkalani o'z ichiga oladi: psixo-emotsional toliqish (PET), shaxsiy begonalashish (ShB) va kasbiy motivatsiya (KM).

Ushbu yondashuv doirasida psixo-emotsional charchoq odamlar bilan ishlaydigan mutaxassisning hissiy, jismoniy va energiya resurslarini kamaytirish jarayoni sifatida qaraladi. Charchoq surunkali hissiy va jismoniy charchoq, ruhiy tushkunlik, asabiylashish, boshqalarga befarqlik va sovuqqonlik bilan namoyon bo'ladi. Shaxsiy masofa odamlar bilan muloqotda bo'lgan mutaxassisning ijtimoiy moslashuvining o'ziga xos shaklini tavsiflaydi.

Shaxsiy begonalashuv aloqalar sonining kamayishi, asabiylashishning kuchayishi, muloqotga toqat qilmaslik va boshqa odamlarga salbiy munosabatda namoyon bo'ladi.

Kasbiy motivatsiya mehnat motivatsiyasi darajasi va ishning altruistik tomoniga ishtiyoq sifatida qaraladi. U samaradorlik, optimizm, qiziqish, o‘z-o‘zini baholash va odamlar bilan ishlashda muvaffaqiyat kabi ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholanadi.

Har bir shkala bo‘yicha aqliy charchoq darajasi javoblarni uch ballli tizimga aylantirish va umumiy ballni hisoblash orqali baholanadi. Keyin me'yoriy jadval yordamida har bir shkala bo‘yicha hissiy charchoq darajasi aniqlanadi.

Shuningdek, aqliy charchoq darajasini baholash uchun har bir shkala bo‘yicha javoblarni baholashning uch balli tizimi qo‘llaniladi ("tez" - 3 ball, "odatda" - 2 ball, "kamdan-kam" - 1 ball, "hech qachon" - 0 nuqta). Keyin umumiy ball har bir shkala bo‘yicha aqliy charchoq darajasini aniqlash uchun me'yoriy jadval yordamida tahlil qilinadi.

Ta’kidlarning mazmuniy xususiyatlari

Psixo-emotsional charchoq - hissiy, jismoniy charchash jarayoni, odamlar bilan ishlaydigan mutaxassisning energiya resurslari. Charchoq surunkali hissiy va jismoniy charchoq, befarqlik va sovuqlikda depressiya va asabiy lashish belgilari bilan boshqalarga nisbatan munosabatlarda o‘zini namoyon qiladi.

Shaxsiy uzoqlashuv - bu odamlar bilan ishlashda mutaxassis ijtimoiy moslashuvining o‘ziga xos shakli. Shaxsiy uzoqlashuv atrofdagilar bilan aloqaga kiroishning pasayishi, vaziyatlarda asabiylik va murosasizlikning oshiishi, boshqa odamlarga nisbatan negativizm.

Kasbiy motivatsiya - ish motivatsiyasi darajasi va ishga altruistik munosabat asosidagi entuziazm (g‘ayratlilik). Kasbiy faoliyatning samaradorligi ko‘rsatkich bilan baholanadigan motivatsion sohaning holati, optimizm va ishga qiziqish, kasbiy kompetentlik va o‘z-o‘zini baholash hamda odamlar bilan ishlashdagi muvaffaqiyat darajasi.

4. D.Fontanning kasbiy stress shkalasi so‘rovnomasi

Ko‘rsatma: jumlalarni o‘qing va "ha" yoki "yo‘q" deb javob bering. E’tibor bering, agar savollar sizning hamkorlaringizga tegishli bo‘lsa, ular siz har kuni muloqot qiladigan va muloqot qiladigan kasbiy faoliyatning sub'ektlarini anglatadi.

Maqsadi: Shaxsdagi stress holatlari va nevrozlarni aniqlash.

Nazariy asosi. Stress - bu organizmning unga beriladigan tashqi yoki ichki ta'sirlarga nisbatan maxsus bo'lmagan javobidir.

D. Fontan stress rivojlanishining uchta fazasini ajratadi:

- 1) vahimaning shakllanishi;
- 2) qarshilik ko'rsatishning rivojlanishi;
- 3) ixtisoslashgan imkoniyatlarning yo'lga qo'yilmasligi.


Birinchi bosqichda stressogen omiliga qarshilik ko'rsatish uchun kuchlar safarbar qilinadi. Ikkinci bosqichda vazifani bartaraf etishga qaratilgan harakatchilik reaksiyalar rivojlanadi. Bunda ko'pincha inson o'zi uchun yangi imkoniyatlar ochadi, ilgari foydalanilmagan faoliyat usullarini o'zlashtiradi. Uchinchi bosqich – stress holatidan chiqish, yoki kuchlarni yo'qotish va kurashishdan tashqari – buzilishdan iborat.

2.3-§. Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy so'nish jarayoni namoyon bo'lishining empirik tahlili

Tadqiqotimizda kasbiy so'nish jarayonini o'qituvchilarda o'rghanish maqsadida K.Maslach va S.Jeksonlarning "Psixik so'nish darajasini aniqlash" (MBI) so'rovnomasining N.E.Vodopyanova tomonidan modifikatsiya qilingan varianti o'tkazildi. Tadqiqotda Toshkent shahridagi umumta'lim maktablaridan 74 nafar, Toshkent viloyati maktablaridan 27 nafar, Qashqadaryo viloyati umumta'lim maktablaridan 92 nafar o'qituvchilar, jami 193 nafar o'qituvchilar tajriba-sinov ishlarida qatnashdilar.

Tadqiqotimizda dastlab, respondentlarda kasbiy so'nish darajasi haqidagi umumiy holatni bilish maqsadida "Psixik so'nish darajasini aniqlash" (MBI) so'rovnomasidan olingan natijalarini tahlil qilishga harakat qildik. MBI so'rovnomasini natijalariga ko'ra, "psixoemotsional charchoq" shkalasi eng yuqori darajani ko'rsatdi (13,2%). Viloyatlar kesimida bu ko'rsatgich (12,3; 10,3%) biroz pastroq darajani ifodalaydi. Tabiiy ravishda bu kasbiy so'nish bo'yicha ham o'rtacha ko'rsatkichning Toshkent shahri o'qituvchilarida yuqori darajada ifodalanishiga olib kelgan (13,1%). Bu shundan dalolat berdiki, Toshkent shahri o'qituvchilarida yuqori psixoemotsional charchash holati kuzatiladi. Shundan kelib chiqib, bu borada tegishli choratadbirlarni amalgalash oshirish maqsadga muvofiq sanaladi deb hisoblaymiz.

Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi) shkalasi darajasi Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon qildi (12,6%). Bu shkala bo‘yicha ikkinchi o‘rinda Toshkent viloyati o‘qituvchilari qayd etildi (11,1%). Psixik so‘nish darajasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich (12,3%) Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilariga to‘g‘ri keldi. (2.3.1 rasm)



2.3.1-rasm. “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” (MBI) so‘rovnomasi bo‘yicha kasbiy so‘nishning namoyon bo‘lishi ko‘rsatkichi, n=193

Ushbu natijalardan kelib chiqib qayd etishi mumkinki, depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi) xususiyati viloyat o‘qituvchilarida biroz yuqori darajani ifodalamoqda. Toshkent shahri o‘qituvichlarida esa bu ko‘rsatgich past darajani namoyon qildi (11,5%). Buning sababini nazarimizda Toshkent shahri o‘qituvchilarining o‘z ustida ishslash va muayyan qo‘srimcha faoliyatlar bilan shug‘ullanish imkoniyatining yuqoriligi, shartsharoit va turmush tarzining viloyatlar o‘qituvchilarinikiga qaraganda yaxshiligi va boshqalarga bog‘liq holda izohlash mumkin.

Yuqoridagi MBI so‘rovnomasi bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasi ko‘rsatgichlarini psixologik tahlil qiladigan bo‘lsak, sinaluvchilarda “kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi” yuqori darajada ifodalaganligi (30,2%) bilan bir qatorda, “emotsional charchoq” (27,3%) holatining ham nisbatan yorqin namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Bu o‘qituvchilarda ruhiy charchoq, depressiya alomatlarining mavjudligidan dalolat beradi, agarda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari amalga oshirilmasa, ularda kasbiy so‘nish jarayonining rivojlanishi kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun bunday o‘qituvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash juda muhim sanaladi.

Tadqiqotimizda kasbiy so‘nish jarayoniga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash maqsadida kasbiy so‘nishning o‘qituvchilar jinsi, yoshi va ish tajribasi bo‘yicha ifodalanishining qiyosiy xususiyatlarini ham o‘rganishga harakat qildik. Shu maqsadda o‘qituvchilarning bu boradagi ma’lumotlari MBI metodikasini o‘tkazish jarayonida so‘rov asosida olindi.

Respondentlarning psixik so‘nish darajasi bo‘yicha olingan natijalarini tahlil qilishda shkalalar ko‘rsatgichi bo‘yicha korrelyatsion tahlil qilindi. “Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi” (Reduksiya) ($r=0,820$, $p\leq 0,05$) bilan “Psixoemotsional charchoq” shkalalari ($r=0,788$, $p\leq 0,01$), ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro korrelyatsion moslik kuzatildi

2.3.1-jadval

“Psixik so‘nish darajasini aniqlash” (MBI) so‘rovnomasi natijalari bo‘yicha korrelyatsiya ko‘rsatkichlari, n=193


Nº	Shkalalar	1	2	3	4
1.	Psichoemotsional charchoq	1	0,427*	0,381**	0,788**
2.	Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi (Reduksiya)		1	0,684	0,820**
3.	Kasbiy so‘nish			1	0,540**
4.	Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi)				1

Izoh: * $r\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$

Respondentlarning psixik so‘nish darajasi bo‘yicha olingan natijalarini tahlil qilishda shkalalar ko‘rsatgichi bo‘yicha korrelyatsion tahlil qilindi. “Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi” (Reduksiya) ($r=0,820$, $p\leq 0,05$) bilan “Psichoemotsional charchoq” shkalalari ($r=0,788$, $p\leq 0,01$), ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro korrelyatsion moslik kuzatildi. “Kasbiy so‘nish” ($r=0,540$, $p\leq 0,01$) va “Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi)” shkalalari o‘rtasida

esa manfiy ko'rsatkichlar namoyon bo'ldi. Ushbu holatlar Respondentlarda "Psixoemotsional charchoq" va "Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi (Reduksiya)" shkalalari yuqori, "Kasbiy so'nish" va Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi) nisbatan pastroq darajada ifodalanganligini ko'rsatadi.

MBI so'rvnomasining gender xususiyati bo'yicha Toshkent shahri erkak o'qituvchilarida kasbiy so'nishning shakllanganlik darajasi 47,5 % ni, Toshkent viloyatida 39,4% ni va Qashqadaryo viloyatida 36,1% ni tashkil qildi. Ayol o'qituvchilarda esa mos ravishda bu ko'rsatgich Toshkent shahri o'qituvchilarida 46,9% ga, Toshkent viloyatida 36,3% ga, Qashqadaryo viloyatida esa 33,7% ga teng bo'lган (2.3.2-rasm).



2.3.2-rasm. MBI so'rvnomasi bo'yicha kasbiy so'nishning gender xususiyati bo'yicha ifodalanish ko'rsatkichlari, n=193

Natijalarni tahlil qilganimizda, kasbiy so'nish darajasi hududlar bo'yicha Toshkent shahri erkak o'qituvchilarida biroz yuqori darajani ko'rsatganligi ma'lum bo'ldi. Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida esa bu ko'rsatkich biroz past darajani ifodalagan. Bu shahar joylardagi maktablarda o'qituvchilik kasbining o'ziga xos bir qator qiyinchiliklari mavjudligidan dalolat beradi.

Respondentlarda psixik so'nish darajasining gender xususiyatlari bo'yicha tahliliga ko'ra, erkaklardiagi kasbiy so'nish darajasi ($r=0,810$, $p\leq0,05$), bilan ayollardagi ($r=0,788$, $p\leq0,01$), kasbiy

so‘nish ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro korrelyatsion moslik kuzatildi. “Kasbiy so‘nish” ($r=0,540$, $p\leq 0,01$) va “Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi)” shkalalari o‘rtasida esa manfiy ko‘rsatkichlar namoyon bo‘ldi. Ushbu holatlar Respondentlarda “Psixoemotsional charchoq” va “Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi (Reduksiya)” shkalalari yuqori, “Kasbiy so‘nish” va Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi) nisbatan pastroq darajada ifodalanganligini ko‘rsatadi.


2.3.2-jadval

Psixik so‘nish darajasini aniqlash” (MBI) so‘rovnomasi natijalarining gender xususiyatlari bo‘yicha korrelyatsiya ko‘rsatkichlari, n=193

Nº	Shkalalar	1	2
1.	Erkak	1	0,810**
2.	Ayol		1

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Kasbiy so‘nishning yosh davri xususiyatlari bo‘yicha ifodalanishiga ko‘ra, Toshkent shahridagi mакtab o‘qituvchilarida kasbiy so‘nishning shakllanganlik darajasiga ko‘ra, 20-24 yoshda 29,7%, 25-30 yoshda 48,3%, 31-35 yoshda 34,2%, 36-42 yoshda 36,1%, 43-53 yoshda 35,4%, 54-60 yoshda 41,5%, 60 dan yuqori yoshda 36,1% ni tashkil qildi. Toshkent viloyati bo‘yicha 20-24 yoshda 26,6%, 25-30 yoshda 42,0%, 31-35 yoshda 22,8%, 36-42 yoshda 18,1%, 43-53 yoshda 22,8%, 54-60 yoshda 24,2%, 60 dan yuqori yoshda 21,%ni tashkil qildi. Qashqadaryo viloyati bo‘yicha esa, 20-24 yoshda 24,3%, 25-30 yoshda 41,2%, 31-35 yoshda 29,6%, 36-42 yoshda 21,9%, 43-53 yoshda 16,7%, 54-60 yoshda 19,8%, 60 dan yuqori yoshda 23,5%ga teng bo‘lgan (2.3.3-rasm).



2.3.3-rasm. MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasining yosh xususiyatlari bo‘yicha ifodalanish ko‘rsatkichlari, n=193

Ushbu holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘qituvchilarning uzoq muddat o‘qituvchilik kasbida ishlashi, zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan yangicha talablarning ortib borishi, oila a’zolarining yoshi ulg‘ayishi asenosida oylik maoshlarining yetarli bo‘lmay borishi, yoshga ko‘ra o‘z ustida ishlash imkoniyatlarining cheklanilganligi va shu kabi bir qator ijtimoiy-psixologik omillar ta’sirida ularda kasbiy so‘nish shakllanishi darajasining yuqori daraja ifodalanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Qolaversa, bugungi kunda o‘qituvchining ishi juda katta mas‘uliyat va katta kuchlanishni talab qilishi ularda stress holatlarining paydo bo‘lishiga olib kelishi holati ham yosh kattalashgani sari kasbiy so‘nish darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bugungi kunda ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan yangilanishlar ta’lim tizimi o‘qituvchisi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar darajasini talab qilishi holatlari ham ularda kasbiy charchoqni shakllanishiga olib kelishi shubhasizdir.

Eng asosiyalaridan biri shuki, hozirgi vaqtida pedagogik faoliyatdagi ishning ramkaga solinishi o‘qituvchini qiy nab qo‘yishga, kasbidan ko‘ngli Sovushga olib kelmoqda. Davr taqozasiga ko‘ra, ta’lim tizimiga turli xil yangiliklarning joriy qilinishi, ta’limni

yaxshilash istagi, o‘quvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilarning hamma narsani qilishi, uni uddalashi shartligi holati yoshi ulug‘roq o‘qituvchilarda kasbiy so‘nishning rivojlanishiga olib kelmoqda. Chunki, bu sodir bo‘layotgan yangiliklarni o‘qituvchi qisqa vaqt ichida bajarishi, yangi narsalarni o‘rganishi, mashg‘ulotlarning tezlashtirilgan sur‘atda o‘tilishi va boshqalar yoshi katta o‘qituvchilarga og‘irlik qilish mumkin.

Tadqiqotimizda MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasining yosh davri xususiyatiga ko‘ra, ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlarini tahlil *qildik*. *Bunga ko‘ra, olingan natijalar bo‘yicha 20-24 (r=0,638) va 25-30 (r=0,744) yoshdagi respondentlarda emotsiyal so‘nish darajasi ko‘rsatkichlari o‘rtasida korrelyatsion moslik kuzatildi, bu bo‘yicha olingan natijalar 2.3.3-jadvalda qayd etilgan*

2.3.3-jadval

MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasining yosh davri xususiyatiga ko‘ra ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlari, n=193

Nº	Yosh davrlari	1	2	3	4	5	6	7
1.	20-24	1	0,638* *	0,237*	0,266*	-0,257*	0,381**	0,684**
2.	25-30		1	0,744	0,567* *	0,469*	0,267	0,823**
3.	31-35			1	-0,094 0,449**		0,297**	0,394**
4.	36-42				1 0,801**	0,029	0,371**	
5.	43-53					1 0,384*	0,387	
6.	54-60						1 -0,198	
7.	60dan yuqori							1

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Tadqiqotimizda MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasining yosh davri xususiyatiga ko‘ra, ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlarini tahlil *qildik*. *Bunga ko‘ra, olingan natijalar bo‘yicha 20-24 (r=0,638) va 25-30 (r=0,744) yoshdagi*


respondentlarda emotsional so‘nish darajasi ko‘rsatkichlari o‘rtasida korrelyatsion moslik kuzatildi (2.3.3-jadval). Bu 20-24 va 25-30 yoshdagi respeondentlar kasbiy faoliyatlarini endigina boshlashayotganligi va kasbiy faoliyatga hamda yangi jamoa muhitiga moslashish jarayoni kechayotganligi tufayli kasbiy faoliyatdagi emotsional so‘nish darajasining yuqoriligiga sabab bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi mumkin degan xulosani keltirib chiqaradi.

31-35 yosh ($r=-0,341^{**}$) va 36-42 yoshdagi ($r=-0,371^{**}$) respondentlarda kasbiy emotsional so‘nish ko‘rsatgichlari o‘rtasida manfiy korreliatsiya namoyon bo‘ldi (2.3.3-jadval). Bu mazkur yoshdagi respondentlarda kasbiy emotsional so‘nish darajasining nisbatan past ifodalanganligidan dalolat beradi. 43-53 va 54-60 yoshdagi respondentlarda esa past darajadagi moslik kuzatildi. Bu katta yoshga kelib, birinchidan, yosh davri xususiyati va ikkinchidan, kasbiy faoliyatda uzoq muddat ishslash jarayoni ularda kasbiy toliqishning namoyon bo‘lishiga va emotsional so‘nish darajasining ortishiga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkinligini ifodalaydi. Xuddi shunday holat ta’siri natijalariga ko‘ra, 60 va undan yuqori yoshdagi respondentlarda ham kasbiy so‘nish darajasi manfiy munosabatni ifodalaydi.

Quyida respondentlarning ish staji bo‘yicha kasbiy emotsional so‘nish darajasi ko‘rsatgichlarini statistik va psixologik tahlil qilishga harakat qilamiz.

Olingan natijalardan ma’lum bo‘lishicha, ish staji 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarida kasbiy so‘nish darajasi Toshkent shahri o‘qituvchilarida 31,3%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 30,2% va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 28,9%ni, 6 yildan 16 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan Toshkent shahri o‘qituvchilarida 49,3%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 41,9 %, Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 39,8% va 17 yildan 27 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan Toshkent shahri o‘qituvchilarida 47,4%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 44,8% va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 42,9%ni ko‘rsatgan.

28 yildan 38 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan Toshkent shahri o‘qituvchilarida 50,8 %, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 46,2 %, Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 44,3% ko‘rsatkichlar namoyon bo‘lganligining guvohi bo‘ldik (2.3.4- rasm).



2.3.4-rasm. Ish staji bo'yicha respondentlarda kasbiy emotsiyal so'nish darajasining namoyon bo'lish ko'rsatkichlari, n =193

Yuqoridagi natijalarni psixologik tahlili qiladigan bo'lsak, ish stajining ortib borishiga ko'ra, Toshkent shahri o'qituvchilarida kasbiy so'nish darjasini biz o'rgangan ikkita viloyat o'qituvchilariga nisbatan biroz yuqoriligi aniqlandi. Buni shaxsning pedagogik faoliyatda qanchalik ko'p ishlashiga ko'ra, uzluksiz stressogen omillarning ta'sir etib borishi, shahar ta'lim tizimidagi o'ziga xosliklar, o'quvchilar psixologiyasi, maktabdagi psixologik muhitning ta'siri va boshqa omillar ularda kasbiy so'nish darajasining oshishiga xizmat qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lganligi holati bilan izohlash mumkin.

Viloyatlar o'qituvchilarida esa, kasbiy so'nish darjasini biroz pastroqni ifodalangan bo'lsada, ularda ham ish stajining ortib borishiga ko'ra, uning darjasini ham ortganligi kuzatildi. Bunday holatni psixologik tahlili qiladigan bo'lsak, viloyatlarning hududiy va etnopsixologik xususiyatlari, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarda qadriyatli munosabatlarning saqlanib qolganligi, hudud o'quvchilarining ilm olishga bo'lgan o'ziga xos munosabatlari, turmush tarzi, hayotiy qadriyatlari va boshqalar hududlar o'qituvchilarida kasbiy so'nishning nisbatan pastroq namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Shuningdek, olingen ma'lumotlarga ko'ra aytish mumkinki, ish staji 21 yildan 30 yilgacha bo'lgan guruhga kiritilgan o'qituvchilar hissiy charchash sindromiga ko'proq moyil ekanlar. To'rtinchi guruh

vakillari esa ushbu sindromga nisbatan eng kam moyil bo‘lib, ular pedagogika sohasida eng ko‘p ishlagan o‘qituvchilar (30 yildan ortiq).

Shunday qilib, hissiy charchash sindromi uzoq muddatli kasbiy faoliyat natijasida rivojlanadi degan gipoteza tasdiqlanmadı. Chunki kasbiy faoliyat davomida hissiy charchash darajasi monoton ravishda oshmaydi, faqat uning qaramlik bo‘yicha namoyon bo‘lishining ba’zi jihatlari o‘qituvchining yoshi va kasbiy inqirozlari bo‘yicha sindrom namoyon bo‘lish bosqichlarining kuchayishiga ta’sir qilmaydi.

Har bir o‘qituvchilar guruhida so‘nish sindromining turli bosqichlarini namoyish yetadiganlar aniqlanganligi sababli, bizning tadqiqotimiz namunasining barcha o‘qituvchilariga charchash sindromining oldini olish uchun turli xil profilaktika choralarini taklif qilish zarurligini qayd etib o‘tmoqchimiz.

Shuningdek, Kasbiy staji 10 yildan ortiq bo‘lmagan o‘qituvchilarda asosan, ruhiy charchash sindromining shakllanmaganlik bosqichi yuqori darajani namoyon etdi. Shu bilan birga, ba’zi o‘qituvchilarda "travmatik holatlarni boshdan kechirish", "hissiyotlarni tejash sohasining kengayishi", "psixosomatik va vegetativ kasalliklar", "kasbiy mas‘uliyatning kamayishi" kabi hissiy charchoq alomatlari kuzatilganligi aniqlandi

Mehnat staji 6 yildan ortiq, ammo 20 yildan kam bo‘lgan o‘qituvchilarda ham charchash sindromining shakllangan bosqichi yuqori darajada namoyon bo‘lganligi kuzatildi. Shu bilan bir qatorda ularda "etarli bo‘lmagan hissiy javob", "kasbiy mas‘uliyat hissining kamayishi", "tashvish va depressiya" kabi hissiy charchash alomatlari ham mavjudligi kuzatildi. Aytish mumkinki, bu yosh davridagi o‘qituvchilarda kasbiy emotsional so‘nish xavfi yuqoriroq ekan. Bu o‘z navbatida aynan shu yoshdagi o‘qituvchilardagi emotsional kasbiy so‘nishning oldini olish bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqoza qiladi.

MBI so‘rovnomasasi bo‘yicha ish stajiga ko‘ra, kasbiy so‘nish darajasi ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlari natijalaridan ma’lum bo‘lshicha, 1 yildan 5 yilgacha mehnat stajiga ega bo‘lgan respondentlar ($r=0,524$; $p < 0.01$) ko‘rsatgichi bilan 6 yildan 16 yilgacha stajga ega bo‘lgan respondentlar ($r =0,635^{**}$ $p < 0.01$) natijalari o‘rtasida moslik darajasi kuzatildi (2.3.4-jadval). Bu 1

yildan 5 yilgacha mehnat stajiga ega bo‘lgan va asosan 6 yildan 16 yilgacha stajga ega bo‘lgan respondentlarda kasbiy so‘nish darajasi yuqori darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Shuningdek, korrelyatsiya natijalaridan ko‘rinadiki, mehnat stajining ortib borishi bilan ham o‘zaro moslik kuzatiladi ($r=0,364^{**}$ $p < 0.01$). Bu umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining uzoq muddat pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlari tufayli ularda kasbiy so‘nish darajasi oshib borar ekan degan xulosani berdi. Buning sababi nazarimizda o‘qituvchining o‘zoq muddat o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashi ularda hissiy charchoqning kelib chiqishiga va nafaqaga chiqish istagining ortib borishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

2.3.4-jadval

MBI so‘rovnomasini bo‘yicha ish stajiga ko‘ra kasbiy so‘nish darajasi ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlari, n =193

Nº	Mehnat staji	1	2	3	4
1.	1-5 yil	0,584 ^{**}	0,376*	-0,231*	0,524 ^{**}
2.	6-16 yil		0,567 ^{**}	0,469*	0,635 ^{**}
3.	17-27 yil		-0,194	-0,249 ^{**}	0,314 ^{**}
4.	28-38 yil			0,315 ^{**}	-0,241

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Tadqiqotimizda umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining psixik so‘nish darajasini o‘rganish maqsadida A.A.Rukavishnikov “Psixik toliqishni aniqlash” testidan foydalandik.

Testdan olingan natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, psixoemotsional charchoq shkalasi ko‘rsatgichi eng yuqori darajani ko‘rsatdi (27,7%). Hududlar bo‘yicha taqqoslanganda eng yuqori ko‘rsatgich Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan umumta’lim maktablari o‘qituvchilar zimmasiga (29,5%) to‘g‘ri keldi. Mos ravishda ushbu shkala bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlar Toshkent viloyati umumta’lim maktablari o‘qituvchilar (27,5%) va Qashqadaryo viloyati umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida (26,3%) kuzatildi. (2.3.4-rasm)


Bu shundan dalolat beradiki, shahar maktablari o‘qituvchilar faoliyati o‘ziga xos hissiy charchoqni keltirib chiqaruvchi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologiak omillar yoki shart-sharoitlarga egadir. Quyida ana shunday omillarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Toshkent shahridagi ta’lim maktablari o‘qituvchilarida psixoemotsional charchash holatining yuqoriligi nazarimizda, Toshkent shahrining megapolis xususiyatiga ko‘ra, aholining zichligi tufayli shaxslararo munosabatlar shahar joylardagi narx navoning qimmatligi, oylik maoshning kamligi, urbanizasiya, shovqin, axborot maydonining kengligi, transport vositalarining ko‘pligi, ko‘pchilik aholining “dom”larda yashashi va shu kabi bir qator ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Psixoemotsional charchoq shkalasi darajasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilarda haddan tashqari emotsional zo‘riqishning ifodalanishi, o‘zini bir xil ishtivoq bilan ishlashga bag‘ishlay olmaslik, agressivlik, boshqalarning baholashlariga nisbatan yuqori sezuvchanlik, past darajadagi hissiy tolerantlik, tajanglik va tahlikaga beriluvchanlik, sababsiz ishga kelmay qolish odatlarining ifodalanishi, surunkali charchoq hissi, emotsioanl resurslarning yetishmasligi kabi simptomlar namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Respondentlarning individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra, "emotsional charchoq"ning yaqqol belgilari sifatida – ortiqcha ish yuklamasi hissi, kasbiy faoliyatidan norozilik, kayfiyat tushkunligi, psixik charchoqning kuchayishi, hissiy befarqlik, asabiylashish yoki atrofdagilarga nisbatan qiziqishning yo‘qolishi, o‘zini o‘zi baholash darajasining pasayishi, yuqori darajadagi jismoniy va hissiy stress holatlari yorqin ifodalanganligi aniqlandi.

Emotsional charchoq ko‘rsatgichi Toshkent (27,5%) va Qashqadaryo (26,3%) viloyatlari o‘qituvchilarida biroz pastroq darajaga egaligi aniqlandi (2.3.5-rasm). Bunday holatning ifodalanishi viloyatlarning geografik imkoniyatlari, shaxslararo munosabatlar doirasining kamligi, tabiat va ekologiyaning o‘ziga xos ta’siri, huddudlardagi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmatning qadriyatli yo‘nalganligi va boshqalar bilan xarakterlanadi.



2.3.5 -rasm. Umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kasbiy so'nish turlari bo'yicha olingan natijalar, n =193

Tadqiqotimizda "depersonalizatsiya" shkalasining yuqori darajasi Toshkent shahri (25,0%) va Qashqadaryo (25,7%) viloyatlari o'qituvchilarida kuzatildi. Bunday sinaluvchilarda boshqalarga qaramlik yoki negativizmning kuchayishi, boshqalarni mensimaslik, ularni kansitishga yo'naltirilgan senistik munosabatning yaqqol ifodalanganligi ko'zga tashlandi.

Shuningdek, ularda hissiy tonusning pasayishi, psixik charchoqning kuchayishi, boshqalarga nisbatan qiziqish va ijobiy histuyg'ularning yo'qolishi, ishdan "to'yinganlik" va umuman hayotdan norozilik hissining namoyon bo'lishi kuzatildi.

"Depersonalizatsiya" shkalasi bo'yicha 27,7% o'qituvchilarga o'rtacha darajali tashxis to'g'ri keldi. Ya'ni, sinaluvchilarning aksariyati o'rtacha hissiy charchoq darajasini ko'rsatdilar. (Depersonalizasiya - psixopatolgik simptom sifatida qaralganda, shaxsni o'z-o'zini idrok etishning buzilishi va aqliy xususiyatlari bo'yicha begonalashuv bilan tavsiflanadi. Boshqacha aytganda depersonalizatsiya - insonda o'z "Men"ining yo'qolishi, begonalashuvi (yunon tilidan. "bo'sh" - "yo'qdek" - his qilishdir) ko'rinishda ham tavsiflanadi).

Shuningdek, depersonalizatsiyalashuvning o'rtacha darajasiga ega bo'lgan sinaluvchi o'quvchilar va ota-onalar bilan aloqa

o‘rnatishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari holatlari kuzatildi. Lekin unutmaslik kerakki, depersonalizatsiyalashganlik ma’lum darajada o‘qituvchilar uchun psixologik himoya rolini ham o‘taydi. Ammo, depersonalizasiyalashganlik darajasi past o‘qituvchilar boshqalar bilan hissiy aloqalarni yaxshi o‘rnatish, ish va innovatsion faoliyatda faol ishtirok etishilari bilan xarakterlanadi.

“Kasbiy yutuqlarning kamayishi” shkalasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, esa yuqori ko‘rsatkich Toshkent (25,4%) va Qashqadaryo (25,7%) viloyatlari umumiyligi o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga to‘g‘ri keldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, umumiyligi o‘rta ta’lim tizimi o‘qituvchilarida o‘z zimmasidagi vazifalarni bajarish samaradorligi va natijadorligi darajasi pasaygan. Natijada kasbiy faoliyatga nisbatan munosabatning salbiylashuvi, o‘z faoliyatidan norozilik hissi, faoliyat qiymatining pasayishi, kasbiy faoliyatda salbiy o‘zini o‘zi idrok etish holatlari kuzatilgan. Buni o‘zlaridagi negativ kechinmalar va ularning namoyon bo‘lishini izohlashda o‘qituvchilar o‘zlarini ayblashadilar. Bu kasbiy faoliyatda emotsiyonal ehtiyojlarni talab qiladigan majburiyatlarni o‘z shaxsiy yutuqlarining kamayishini yengillashtirish yoki kamaytirishga urinish sifatida ifodalanganliklarini ko‘rsatadi. Past ko‘rsatkich Toshkent (21,2%) shahridagi umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida kuzatildi. O‘rtacha ko‘rsatkich 26,1% ni tashkil qildi.

2.3.5-jadval

Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida kasbiy so‘nish darajasida psixik so‘nishning ifodalanish ko‘rsatkichi, n=193

Nº	Shkalalar	Toshkent shahri	Toshkent viloyati	Qashqadaryo viloyati	O‘rta cha
1.	Psixoemotsional charchash	27,5	24.5	22,3	24,8
2.	Shaxs depersonaliza-siyasi (shaxsning begonalashuvi)	25,0	24.8	27,2	25,7
3.	Kasbiy yutuqlarning kamayishi (Reduksiya)	23,2	28,4	26,7	26,1
4.	Psixik so‘nish bo‘yicha o‘rtacha qiymat	24,3	22.3	23,8	23,5

Ma'lumki, depersonalizatsiya - bu doimiy yoki vaqtı-vaqtı bilan o'zgarish va begonalashish hissi hamda odamlar bilan ishlovchi personalning ijtimoiy moslashuvining o'ziga xos shakli bo'lib, o'z shaxsiyati, tanasi va aqliy jarayonlarining bo'linishi bilan tavsiflanadigan o'z-o'zini anglashning buzilishidir.

Asosiy alomatlarga o'z-o'zini kuzatishning yetishmasligi, tajribani yo'qotish, yangi notanish his-tuyg'ularning paydo bo'lishi, fikrlash va idrok etish tarzidagi o'zgarishlar, boshqalar bilan aloqalar sonining kamayishi, asabiylashish va muloqotda murosasizlikning kuchayishi kiradi. boshqa odamlarga nisbatan salbiy ko'rinish sifatida.

O'qituvchilar, shuningdek, kasbiy yutuqlarning pasayishiga duch kelishlari mumkin, bu o'z sohasi bo'yicha qobiliyatsizlik hissi, nomutanosiblik va kasbiy mahoratning yo'qolishi. Ushbu alomatlar kasbiy sohada, ayniqsa maktabda va maktabdan tashqari muhitda o'quvchilar bilan ishslashda depersonalizatsiya sharoitida charchash jarayonining boshlanishini ko'rsatadi.

"Kasbiy yutuqlarning kamayishi" shkalasi bo'yicha olingen natijalarga ko'ra, esa yuqori ko'rsatkich Toshkent (25,4%) va Qashaqadaryo (25,7%) viloyatlari umumiyligi o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilariga to'g'ri keldi. Bu shuni ko'rsatadiki, umumiyligi o'rta ta'lim tizimi o'qituvchilarida o'z zimmasidagi vazifalarni bajarish samaradorligi va natijadorligi darajasi pasaygan. Natijada kasbiy faoliyatga nisbatan munosabatning salbiylashuvi, o'z faoliyatidan norozilik hissi, faoliyat qiymatining pasayishi, kasbiy faoliyatda salbiy o'zini o'zi idrok etish holatlari kuzatilgan. Buni o'zlaridagi negativ kechinmalar va ularning namoyon bo'lishini izohlashda o'qituvchilar o'zlarini ayplashadilar. Bu kasbiy faoliyatda emotsional ehtiyojlarni talab qiladigan majburiyatlarni o'z shaxsiy yutuqlarining kamayishini yengillashtirish yoki kamaytirishga urinish sifatida ifodalanganliklarini ko'rsatadi. Past ko'rsatgich Toshkent (21,2%) shahridagi umumta'lim maktablari o'qituvchilarida kuzatildi. O'rtacha ko'rsatkich 26,1% ni tashkil qildi.

Mazkur holatlarni psixologik tahlili qiladigan bo'lsak, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari o'qituvchilarida "Kasbiy yutuqlarning kamayishi" shkalasi ko'rsatgichining yuqoriligi birinichidan hududiy xususiyatga ya'ni, turmush tarzi, oilaviy yumushlar, oilada farzand

tarbiyasi, tez-tez turli xil mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri kelish va boshqalar o‘qituvchining o‘z ustida ishlash, kasbiy mahoratini oshirish va butun borlig‘i bilan pedagogik faoliyatga o‘zini bag‘ishlash imkoniyatlarini biroz cheklaydi. Buning natijasida kasbiy faoliyat samaradorligi, kasbiy yutuqlar darajasi pasayishi mumkin.


Respondentlarda “psixik so‘nish” shkalasi darajasi Toshkent shahri o‘qituvchilarida yuqori ko‘rsatkichni namoyon qildi (24,3%). Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida bu shkala ikkinchi o‘rinni egalladi (22,3%). Mazkur shkala bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatgich 23,5 % ni tashkil qildi.

Tadqiqotimizda kasbiy so‘nish jarayonini o‘qituvchilarda o‘rganish maqsadida K.Maslach va S.Jeksonlarning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” (MBI) so‘rovnomasining N.E.Vodopyanova tomonidan modifikatsiya qilingan varianti o‘tkazildi. Tadqiqotda Toshkent shahridagi umumta’lim maktablaridan 74 nafar, Toshkent viloyati maktablaridan 27 nafar, Qashqadaryo viloyati umumta’lim maktablaridan 92 nafar o‘qituvchilar, jami 193 nafar o‘qituvchilar tajriba-sinov ishlarida qatnashdilar.

Tadqiqotimizda dastlab, respondentlarda kasbiy so‘nish darajasi haqidagi umumiyl holatni bilish maqsadida “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” (MBI) so‘rovnomasidan olingan natijalarni tahlil qilishga harakat qildik. MBI so‘rovnomasini natijalariga ko‘ra, “psixoemotsional charchoq” shkalasi eng yuqori darajani ko‘rsatdi (13,2%). Viloyatlar kesimida bu ko‘rsatgich (12,3; 10,3%) biroz pastroq darajani ifodalaydi. Tabiiy ravishda bu kasbiy so‘nish bo‘yicha ham o‘rtacha ko‘rsatkichning Toshkent shahri o‘qituvchilarida yuqori darajada ifodalanishiga olib kelgan (13,1%). Bu shundan dalolat berdiki, Toshkent shahri o‘qituvchilarida yuqori psixoemotsional charchash holati kuzatiladi. Shundan kelib chiqib, bu borada tegishli choratadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq sanaladi deb hisoblaymiz.

Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi) shkalasi darajasi Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon qildi (12,6%). Bu shkala bo‘yicha ikkinchi o‘rinda Toshkent viloyati o‘qituvchilari qayd etildi (11,1%). Psixik so‘nish

darajasi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich (12,3%) Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilariga to‘g‘ri keldi. (2.3.1 rasm)



2.3.1-rasm. “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” (MBI) so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nishning namoyon bo‘lishi ko‘rsatkichi, n=193

Ushbu natijalardan kelib chiqib qayd etishi mumkinki, depersonalizatsiya (shaxsnинг begonalashuvi) xususiyati viloyat o‘qituvchilarida biroz yuqori darajani ifodalamoqda. Toshkent shahri o‘qituvchilarida esa bu ko‘rsatgich past darajani namoyon qildi (11,5%). Buning sababini nazarimizda Toshkent shahri o‘qituvchilarining o‘z ustida ishslash va muayyan qo‘srimcha faoliyatlar bilan shug‘ullanish imkoniyatining yuqoriligi, shart-sharoit va turmush tarzining viloyatlar o‘qituvchilarinikiga qaraganda yaxshiligi va boshqalarga bog‘liq holda izohlash mumkin.

Yuqoridagi MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasi ko‘rsatgichlarini psixologik tahlil qiladigan bo‘lsak, sinaluvchilarda “kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi” yuqori darajada ifodalaganligi (30,2%) bilan bir qatorda, “emotsional charchoq” (27,3%) holatining ham nisbatan yorqin namoyon bo‘lishi kuzatildi. Bu o‘qituvchilarda ruhiy charchoq, depressiya alomatlarining mavjudligidan dalolat beradi, agarda ularni bartaraf etish choratadbirlari amalga oshirilmasa, ularda kasbiy so‘nish jarayonining

rivojlanishi kelib chiqishi mumkin. Shuning uchun bunday o‘qituvchilarni psixologik qo‘llab-quvvatlash juda muhim sanaladi.

Tadqiqotimizda kasbiy so‘nish jarayoniga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash maqsadida kasbiy so‘nishning o‘qituvchilar jinsi, yoshi va ish tajribasi bo‘yicha ifodalanishining qiyosiy xususiyatlarini ham o‘rganishga harakat qildik. Shu maqsadda o‘qituvchilarning bu boradagi ma’lumotlari MBI metodikasini o‘tkazish jarayonida so‘rov asosida olindi.

Respondentlarning psixik so‘nish darajasi bo‘yicha olingan natijalarini tahlil qilishda shkalalar ko‘rsatgichi bo‘yicha korrelyatsion tahlil qilindi. “Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi” (Reduksiya) ($r=0,820$, $p\leq 0,05$) bilan “Psixoemotsional charchoq” shkalalari ($r=0,788$, $p\leq 0,01$), ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro korrelyatsion moslik kuzatildi

2.3.1-jadval

“Psixik so‘nish darajasini aniqlash” (MBI) so‘rovnomasini natijalari bo‘yicha korrelyatsiya ko‘rsatkichlari, n=193


№	Shkalalar	1	2	3	4
1.	Psixoemotsional charchoq	1	0,427*	0,381**	0,788**
2.	Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi (Reduksiya)		1	0,684	0,820**
3.	Kasbiy so‘nish			1	0,540**
4.	Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi)				1

Izoh: * $r\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$

Respondentlarning psixik so‘nish darajasi bo‘yicha olingan natijalarini tahlil qilishda shkalalar ko‘rsatgichi bo‘yicha korrelyatsion tahlil qilindi. “Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi” (Reduksiya) ($r=0,820$, $p\leq 0,05$) bilan “Psixoemotsional charchoq” shkalalari ($r=0,788$, $p\leq 0,01$), ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro korrelyatsion moslik kuzatildi. “Kasbiy so‘nish” ($r=0,540$, $p\leq 0,01$) va “Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi)” shkalalari o‘rtasida esa manfiy ko‘rsatkichlar namoyon bo‘ldi. Ushbu holatlar Respondentlarda “Psixoemotsional charchoq” va “Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi (Reduksiya)” shkalalari yuqori,

“Kasbiy so‘nish” va Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi) nisbatan pastroq darajada ifodalanganligini ko‘rsatadi.

MBI so‘rovnomasining gender xususiyati bo‘yicha Toshkent shahri erkak o‘qituvchilarida kasbiy so‘nishning shakllanganlik darjasи 47,5 % ni, Toshkent viloyatida 39,4% ni va Qashqadaryo viloyatida 36,1% ni tashkil qildi. Ayol o‘qituvchilarda esa mos ravishda bu ko‘rsatgich Toshkent shahri o‘qituvchilarida 46,9% ga, Toshkent viloyatida 36,3% ga, Qashqadaryo viloyatida esa 33,7% ga teng bo‘lgan (2.3.2-rasm).



2.3.2-rasm. MBI so‘rovnomasi bo‘yicha kasbiy so‘nishning gender xususiyati bo‘yicha ifodalanish ko‘rsatkichlari, n=193

Natijalarni tahlil qilganimizda, kasbiy so‘nish darjasи hududlar bo‘yicha Toshkent shahri erkak o‘qituvchilarida biroz yuqori darajani ko‘rsatganligi ma’lum bo‘ldi. Qashqadaryo va Toshkent viloyatlarida esa bu ko‘rsatkich biroz past darajani ifodalagan. Bu shahar joylardagi maktablarda o‘qituvchilik kasbining o‘ziga xos bir qator qiyinchiliklari mavjudligidan dalolat beradi.

Respondentlarda psixik so‘nish darajasining gender xususiyatlari bo‘yicha tahliliga ko‘ra, erkaklardagi kasbiy so‘nish darjasи ($r=0,810$, $p\leq 0,05$), bilan ayollardagi ($r=0,788$, $p\leq 0,01$), kasbiy so‘nish ko‘rsatkichlari o‘rtasida o‘zaro korrelyatsion moslik kuzatildi. “Kasbiy so‘nish” ($r=0,540$, $p\leq 0,01$) va “Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi)” shkalalari o‘rtasida esa manfiy

ko‘rsatkichlar namoyon bo‘ldi. Ushbu holatlar Respondentlarda “Psixoemotsional charchoq” va “Kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi (Reduksiya)” shkalalari yuqori, “Kasbiy so‘nish” va Depersonalizatsiya (shaxsning begonalashuvi) nisbatan pastroq darajada ifodalanganligini ko‘rsatadi.

2.3.2-jadval


**Psixik so‘nish darajasini aniqlash” (MBI) so‘rovnomasi
natijalarining gender xususiyatlari bo‘yicha korrelyatsiya
ko‘rsatkichlari, n=193**

Nº	Shkalalar	1	2
1. Erkak		1	0,810**
2. Ayol			1

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$

Kasbiy so‘nishning yosh davri xususiyatlari bo‘yicha ifodalanishiga ko‘ra, Toshkent shahridagi maktab o‘qituvchilarida kasbiy so‘nishning shakllanganlik darajasiga ko‘ra, 20-24 yoshda 29,7%, 25-30 yoshda 48,3%, 31-35 yoshda 34,2%, 36-42 yoshda 36,1%, 43-53 yoshda 35,4%, 54-60 yoshda 41,5%, 60 dan yuqori yoshda 36,1% ni tashkil qildi. Toshkent viloyati bo‘yicha 20-24 yoshda 26,6%, 25-30 yoshda 42,0%, 31-35 yoshda 22,8%, 36-42 yoshda 18,1%, 43-53 yoshda 22,8%, 54-60 yoshda 24,2%, 60 dan yuqori yoshda 21,%ni tashkil qildi. Qashqadaryo viloyati bo‘yicha esa, 20-24 yoshda 24,3%, 25-30 yoshda 41,2%, 31-35 yoshda 29,6%, 36-42 yoshda 21,9%, 43-53 yoshda 16,7%, 54-60 yoshda 19,8%, 60 dan yuqori yoshda 23,5%ga teng bo‘lgan (2.3.3-rasm).

Ushbu holatni tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘qituvchilarning uzoq muddat o‘qituvchilik kasbida ishlashi, zamonaviy o‘qituvchiga qo‘yiladigan yangicha talablarning ortib borishi, oila a’zolarining yoshi ulg‘ayishi asenosida oylik maoshlarining yetarli bo‘lmay borishi, yoshga ko‘ra o‘z ustida ishlash imkoniyatlarining cheklanilganligi va shu kabi bir qator ijtimoiy-psixologik omillar ta’sirida ularda kasbiy so‘nish shakllanishi darajasining yuqori daraja ifodalanishiga sabab bo‘lishi mumkin.



2.3.3-rasm. MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasining yosh xususiyatlari bo‘yicha ifodalanish ko‘rsatkichlari, n=193

Qolaversa, bugungi kunda o‘qituvchining ishi juda katta mas‘uliyat va katta kuchlanishni talab qilishi ularda stress holatlarining paydo bo‘lishiga olib kelishi holati ham yosh kattalashgani sari kasbiy so‘nish darajasining oshishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, bugungi kunda ta’lim tizimida sodir bo‘layotgan yangilanishlar ta’lim tizimi o‘qituvchisi ega bo‘lishi kerak bo‘lgan kompetensiyalar darajasini talab qilishi holatlari ham ularda kasbiy charchoqni shakllanishiga olib kelishi shubhasizdir.

Eng asosiyalaridan biri shuki, hozirgi vaqtida pedagogik faoliyatdagi ishning ramkaga solinishi o‘qituvchini qiyab qo‘yishga, kasbidan ko‘ngli Sovushga olib kelmoqda. Davr taqozasiga ko‘ra, ta’lim tizimiga turli xil yangiliklarning joriy qilinishi, ta’limni yaxshilash istagi, o‘quvchilar, ota-onalar va o‘qituvchilarning hamma narsani qilishi, uni uddalashi shartligi holati yoshi ulug‘roq o‘qituvchilarda kasbiy so‘nishning rivojlanishiga olib kelmoqda. Chunki, bu sodir bo‘layotgan yangiliklarni o‘qituvchi qisqa vaqt ichida bajarishi, yangi narsalarni o‘rganishi, mashg‘ulotlarning tezlashtirilgan sur‘atda o‘tilishi va boshqalar yoshi katta o‘qituvchilarga og‘irlik qilish mumkin.

Tadqiqotimizda MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasining yosh davri xususiyatiga ko‘ra, ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatgichlarini tahlil qildik. *Bunga ko‘ra, olingan natijalar bo‘yicha 20-24 (r=0,638) va 25-30 (r=0,744) yoshdagi respondentlarda emotsiyal so‘nish darajasi ko‘rsatkichlari o‘rtasida korrelyatsion moslik kuzatildi*, bu bo‘yicha olingan natijalar 2.3.3-jadvalda qayd etilgan

2.3.3-jadval

MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasining yosh davri xususiyatiga ko‘ra ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlari, n=193

Nº	Yosh davrlari	1	2	3	4	5	6	7
1.	20-24	1	0,638**	0,237*	0,266*	-0,257*	0,381**	0,684**
2.	25-30		1	0,744	0,567**	0,469*	0,267	0,823**
3.	31-35			1	-0,094	-0,449**	0,297**	0,394**
4.	36-42				1	0,801**	0,029	0,371**
5.	43-53					1	0,384*	0,387
6.	54-60						1	-0,198
7.	60dan yuqori							1

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Tadqiqotimizda MBI so‘rovnomasini bo‘yicha kasbiy so‘nish darajasining yosh davri xususiyatiga ko‘ra, ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlarini tahlil qildik. *Bunga ko‘ra, olingan natijalar bo‘yicha 20-24 (r=0,638) va 25-30 (r=0,744) yoshdagi respondentlarda emotsiyal so‘nish darajasi ko‘rsatkichlari o‘rtasida korrelyatsion moslik kuzatildi (2.3.3-jadval).* Bu 20-24 va 25-30 yoshdagi respepondentlar kasbiy faoliyatlarini endigina boshlashayotganligi va kasbiy faoliyatga hamda yangi jamoa muhitiga moslashish jarayoni kechayotganligi tufayli kasbiy faoliyatdagi emotsiyal so‘nish darajasining yuqoriligidagi sabab bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi mumkin degan xulosani keltirib chiqaradi.

31-35 yosh ($r=-0,341^{**}$) va 36-42 yoshdagi ($r=-0,371^{**}$) respondentlarda kasbiy emotsiyal so‘nish ko‘rsatgichlari o‘rtasida

manfiy korreliatsiya namoyon bo‘ldi (2.3.3-jadval). Bu mazkur yoshdagi respondentlarda kasbiy emotsional so‘nish darajasining nisbatan past ifodalanganligidan dalolat beradi. 43-53 va 54-60 yoshdagi respondentlarda esa past darajadagi moslik kuzatildi. Bu katta yoshga kelib, birinchidan, yosh davri xususiyati va ikkinchidan, kasbiy faoliyatda uzoq muddat ishlash jarayoni ularda kasbiy toliqishning namoyon bo‘lishiga va emotsional so‘nish darajasining ortishiga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkinligini ifodalaydi. Xuddi shunday holat ta’siri natijalariga ko‘ra, 60 va undan yuqori yoshdagi respondentlarda ham kasbiy so‘nish darajasi manfiy munosabatni ifodalaydi.


Quyida respondentlarning ish staji bo‘yicha kasbiy emotsional so‘nish darajasi ko‘rsatgichlarini statistik va psixologik tahlil qilishga harakat qilamiz.

Olingan natijalardan ma’lum bo‘lishicha, ish stoji 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarda kasbiy so‘nish darajasi Toshkent shahri o‘qituvchilarida 31,3%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 30,2% va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 28,9% ni, 6 yildan 16 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan Toshkent shahri o‘qituvchilarida 49,3%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 41,9 %, Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 39,8% va 17 yildan 27 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan Toshkent shahri o‘qituvchilarida 47,4%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 44,8% va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 42,9% ni ko‘rsatgan.

28 yildan 38 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan Toshkent shahri o‘qituvchilarida 50,8 %, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 46,2 %, Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 44,3% ko‘rsatkichlar namoyon bo‘lganligining guvohi bo‘ldik (2.3.4- rasm).

Yuqoridagi natijalarni psixologik tahlili qiladigan bo‘lsak, ish stajining ortib borishiga ko‘ra, Toshkent shahri o‘qituvchilarida kasbiy so‘nish darajasi biz o‘rgangan ikkita viloyat o‘qituvchilariga nisbatan biroz yuqoriligi aniqlandi. Buni shaxsning pedagogik faoliyatda qanchalik ko‘p ishlashiga ko‘ra, uzlusiz stressogen omillarning ta’sir etib borishi, shahar ta’lim tizimidagi o‘ziga xosliklar, o‘quvchilar psixologiyasi, maktabdagagi psixologik muhitning ta’siri va boshqa omillar ularda kasbiy so‘nish darajasining oshishiga

xizmat qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘lganligi holati bilan izohlash mumkin.



2.3.4-rasm. Ish staji bo‘yicha respondentlarda kasbiy emotsional so‘nish darajasining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari, n =193

Viloyatlar o‘qituvchilarida esa, kasbiy so‘nish darajasi biroz pastroqni ifodalangan bo‘lsada, ularda ham ish stajining ortib borishiga ko‘ra, uning darajasi ham ortganligi kuzatildi. Bunday holatni psixologik tahlili qiladigan bo‘lsak, viloyatlarning hududiy va etnopsixologik xususiyatlari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi shaxslararo munosabatlarda qadriyatli munosabatlarning saqlanib qolganligi, hudud o‘quvchilarining ilm olishga bo‘lgan o‘ziga xos munosabatlari, turmush tarzi, hayotiy qadriyatlari va boshqalar hududlar o‘qituvchilarida kasbiy so‘nishning nisbatan pastroq namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, olingen ma’lumotlarga ko‘ra aytish mumkinki, ish staji 21 yildan 30 yilgacha bo‘lgan guruhga kiritilgan o‘qituvchilar hissiy charchash sindromiga ko‘proq moyil ekanlar. To‘rtinchi guruh vakillari esa ushbu sindromga nisbatan eng kam moyil bo‘lib, ular pedagogika sohasida eng ko‘p ishlagan o‘qituvchilar (30 yildan ortiq).

Shunday qilib, hissiy charchash sindromi uzoq muddatli kasbiy faoliyat natijasida rivojlanadi degan gipoteza tasdiqlanmadı. Chunki kasbiy faoliyat davomida hissiy charchash darajasi monoton ravishda oshmaydi, faqat uning qaramlik bo‘yicha namoyon bo‘lishining ba’zi

jihatlari o‘qituvchining yoshi va kasbiy inqirozlari bo‘yicha sindrom namoyon bo‘lish bosqichlarining kuchayishiga ta’sir qilmaydi.

Har bir o‘qituvchilar guruhida so‘nish sindromining turli bosqichlarini namoyish yetadiganlar aniqlanganligi sababli, bizning tadqiqotimiz namunasining barcha o‘qituvchilariga charchash sindromining oldini olish uchun turli xil profilaktika choralarini taklif qilish zarurligini qayd etib o‘tmoqchimiz.

Shuningdek, Kasbiy staji 10 yildan ortiq bo‘lmagan o‘qituvchilarda asosan, ruhiy charchash sindromining shakllanmaganlik bosqichi yuqori darajani namoyon etdi. Shu bilan birga, ba’zi o‘qituvchilarda "travmatik holatlarni boshdan kechirish", "hissiyotlarni tejash sohasining kengayishi", "psixosomatik va vegetativ kasalliklar", "kasbiy mas‘uliyatning kamayishi" kabi hissiy charchoq alomatlari kuzatilganligi aniqlandi

Mehnat staji 6 yildan ortiq, ammo 20 yildan kam bo‘lgan o‘qituvchilarda ham charchash sindromining shakllangan bosqichi yuqori darajada namoyon bo‘lganligi kuzatildi. Shu bilan bir qatorda ularda "etarli bo‘lmagan hissiy javob", "kasbiy mas‘uliyat hissining kamayishi", "tashvish va depressiya" kabi hissiy charchash alomatlari ham mavjudligi kuzatildi. Aytish mumkinki, bu yosh davridagi o‘qituvchilarda kasbiy emotSIONAL so‘nish xavfi yuqoriroq ekan. Bu o‘z navbatida aynan shu yoshdagi o‘qituvchilardagi emotSIONAL kasbiy so‘nishning oldini olish bo‘yicha zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqoza qiladi.

MBI so‘rovnomasasi bo‘yicha ish stajiga ko‘ra, kasbiy so‘nish darajasi ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlari natijalaridan ma’lum bo‘lshicha, 1 yildan 5 yilgacha mehnat stajiga ega bo‘lgan respondentlar ($r=0,524$; $p < 0.01$) ko‘rsatgichi bilan 6 yildan 16 yilgacha stajga ega bo‘lgan respondentlar ($r =0,635^{**}$ $p < 0.01$) natijalari o‘rtasida moslik darajasi kuzatildi (2.3.4-jadval). Bu 1 yildan 5 yilgacha mehnat stajiga ega bo‘lgan va asosan 6 yildan 16 yilgacha stajga ega bo‘lgan respondentlarda kasbiy so‘nish darajasi yuqori darajada namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi.

Shuningdek, korrelyatsiya natijalaridan ko‘rinadiki, mehnat stajining ortib borishi bilan ham o‘zaro moslik kuzatiladi ($r=0,364^{**}$ $p < 0.01$). Bu umumta’lim maktablari o‘qituvchilarning uzoq muddat pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishlari tufayli ularda kasbiy

so‘nish darajasi oshib borar ekan degan xulosani berdi. Buning sababi nazarimizda o‘qituvchining o‘zoq muddat o‘quvchilar jamoasi bilan ishlashi ularda hissiy charchoqning kelib chiqishiga va nafaqaga chiqish istagining ortib borishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin.

2.3.4-jadval

MBI so‘rovnomasi bo‘yicha ish stajiga ko‘ra kasbiy so‘nish darajasi ifodalanishining korrelyatsiya ko‘rsatkichlari, n =193

№	Mehnat staji	1	2	3	4
1.	1-5 yil	0,584**	0,376*	-0,231*	0,524**
2.	6-16 yil		0,567**	0,469*	0,635**
3.	17-27 yil		-0,194	-0,249**	0,314**
4.	28-38 yil			0,315**	-0,241

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$

Tadqiqotimizda umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining psixik so‘nish darajasini o‘rganish maqsadida A.A.Rukavishnikov “Psixik toliqishni aniqlash” testidan foydalandik.

Testdan olingan natijalardan ma’lum bo‘lishicha, psixoemotsional charchoq shkalasi ko‘rsatgichi eng yuqori darajani ko‘rsatdi (27,7%). Hududlar bo‘yicha taqqoslanganda eng yuqori ko‘rsatgich Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan umumta’lim maktablari o‘qituvchilar zimmasiga (29,5%) to‘g‘ri keldi. Mos ravishda ushbu shkala bo‘yicha quyidagi ko‘rsatkichlar Toshkent viloyati umumta’lim maktablari o‘qituvchilar (27,5%) va Qashqadaryo viloyati umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida (26,3%) kuzatildi. (2.3.4-rasm)

Bu shundan dalolat beradiki, shahar maktablari o‘qituvchilar faoliyati o‘ziga xos hissiy charchoqni keltirib chiqaruvchi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologiak omillar yoki shart-sharoitlarga egadir. Quyida ana shunday omillarni tahlil qilishga harakat qilamiz.

Toshkent shahridagi ta’lim maktablari o‘qituvchilarida psixoemotsional charchash holatining yuqoriligi nazarimizda, Toshkent shahrining megapolis xususiyatiga ko‘ra, aholining zichligi tufayli shaxslararo munosabatlar shahar joylardagi narx navoning qimmatligi, oylik maoshning kamligi, urbanizasiya, shovqin, axborot maydonining kengligi, transport vositalarining ko‘pligi, ko‘pchilik

aholining “dom”larda yashashi va shu kabi bir qator ijtimoiy-psixologik omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.


Psixoemotsional charchoq shkalasi darajasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilarda haddan tashqari emotсional zo‘riqishning ifodalanishi, o‘zini bir xil ishtiyоq bilan ishlashga bag‘ishlay olmaslik, agressivlik, boshqalarning baholashlariga nisbatan yuqori sezuvchanlik, past darajadagi hissiy tolerantlik, tajanglik va tahlikaga beriluvchanlik, sababsiz ishga kelmay qolish odatlarining ifodalanishi, surunkali charchoq hissi, emotсional resurslarning yetishmasligi kabi simptomlar namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Respondentlarning individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra, "emotsional charchoq"ning yaqqol belgilari sifatida – ortiqcha ish yuklamasi hissi, kasbiy faoliyatidan norozilik, kayfiyat tushkunligi, psixik charchoqning kuchayishi, hissiy befarqliк, asabiy lashish yoki atrofdagilarga nisbatan qiziqishning yo‘qolishi, o‘zini o‘zi baholash darajasining pasayishi, yuqori darajadagi jismoniy va hissiy stress holatlari yorqin ifodalanganligi aniqlandi.

Emotsional charchoq ko‘rsatgichi Toshkent (27,5%) va Qashqadaryo (26,3%) viloyatlari o‘qituvchilarida biroz pastroq darajaga egaligi aniqlandi (2.3.5-rasm). Bunday holatning ifodalanishi viloyatlarning geografik imkoniyatlari, shaxslararo munosabatlar doirasining kamligi, tabiat va ekologiyaning o‘ziga xos ta’siri, huddudulardagi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hurmatning qadriyatli yo‘nalganligi va boshqalar bilan xarakterlanadi.

Tadqiqotimizda "depersonalizatsiya" shkalasining yuqori darajasi Toshkent shahri (25,0%) va Qashqadaryo (25,7%) viloyatlari o‘qituvchilarida kuzatildi. Bunday sinaluvchilarda boshqalarga qaramlik yoki negativizmning kuchayishi, boshqalarni mensimaslik, ularni kansitishga yo‘naltirilgan senistik munosabatning yaqqol ifodalanganligi ko‘zga tashlandi.

Shuningdek, ularda hissiy tonusning pasayishi, psixik charchoqning kuchayishi, boshqalarga nisbatan qiziqish va ijobiy histuyg‘ularning yo‘qolishi, ishdan "to‘yinganlik" va umuman hayotdan norozilik hissining namoyon bo‘lishi kuzatildi.



2.3.5 -rasm. Umumta'lif maktablari o'qituvchilarida kasbiy so'nish turlari bo'yicha olingan natijalar, n =193

“Depersonalizatsiya” shkalasi bo'yicha 27,7% o'qituvchilarga o'rtacha darajali tashxis to'g'ri keldi. Ya'ni, sinaluvchilarning aksariyati o'rtacha

hissiy charchoq darajasini ko'rsatdilar. (Depersonalizasiya - psixopatolgik simptom sifatida qaralganda, shaxsni o'z-o'zini idrok etishning buzilishi va aqliy xususiyatlari bo'yicha begonalashuv bilan tavsiflanadi. Boshqacha aytganda depersonalizatsiya - insonda o'z "Men"ining yo'qolishi, begonalashuvi (yunon tilidan. "bo'sh" - "yo'qdek" - his qilishdir) ko'rinishda ham tavsiflanadi).

Shuningdek, depersonalizatsiyalashuvning o'rtacha darajasiga ega bo'lgan sinaluvchi o'quvchilar va ota-onalar bilan aloqa o'rnatishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishlari holatlari kuzatildi. Lekin unutmaslik kerakki, depersonalizatsiyalashganlik ma'lum darajada o'qituvchilar uchun psixologik himoya rolini ham o'taydi. Ammo, depersonalizasiyalashganlik darajasi past o'qituvchilar boshqalar bilan hissiy aloqalarni yaxshi o'rnatish, ish va innovatsion faoliyatda faol ishtirok etishilari bilan xarakterlanadi.

“Kasbiy yutuqlarning kamayishi” shkalasi bo'yicha olingan natijalarga ko'ra, esa yuqori ko'rsatkich Toshkent (25,4%) va Qashqadaryo (25,7%) viloyatlari umumiyligi o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilariga to'g'ri keldi. Bu shuni ko'rsatdiki, umumiyligi o'rta ta'lif tizimi o'qituvchilarida o'z zimmasidagi vazifalarni bajarish samaradorligi va natijadorligi darajasi pasaygan. Natijada kasbiy faoliyatga nisbatan munosabatning salbiylashuvi, o'z faoliyatidan

norozilik hissi, faoliyat qiymatining pasayishi, kasbiy faoliyatda salbiy o‘zini o‘zi idrok etish holatlari kuzatilgan. Buni o‘zlaridagi negativ kechimlar va ularning namoyon bo‘lishini izohlashda o‘qituvchilar o‘zlarini ayblashadilar. Bu kasbiy faoliyatda emotsiyal ehtiyojlarni talab qiladigan majburiyatlarni o‘z shaxsiy yutuqlarining kamayishini yengillashtirish yoki kamaytirishga urinish sifatida ifodalanganliklarini ko‘rsatadi. Past ko‘rsatkich Toshkent (21,2%) shahridagi umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida kuzatildi. O‘rtacha ko‘rsatkich 26,1% ni tashkil qildi.

2.3.5-jadval

Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida kasbiy so‘nish darajasida psixik so‘nishning ifodalanish ko‘rsatkichi, n=193

№	Shkalalar	Toshkent shahri	Toshkent viloyati	Qashqa daryo viloyati	O‘rta cha
1.	Psixoemotsional charchash	27,5	24.5	22,3	24,8
2.	Shaxs depersonaliza-siyasi (shaxsning begonalashuvi)	25,0	24.8	27,2	25,7
3.	Kasbiy yutuqlarning kamayishi (Reduksiya)	23,2	28,4	26.7	26,1
4.	Psixik so‘nish bo‘yicha o‘rtacha qiymat	24,3	22.3	23,8	23,5

Ma’lumki, depersonalizatsiya - bu doimiy yoki vaqtiga vaqtiga bilan o‘zgarish va begonalashish hissi hamda odamlar bilan ishlovchi personalning ijtimoiy moslashuvining o‘ziga xos shakli bo‘lib, o‘z shaxsiyati, tanasi va aqliy jarayonlarining bo‘linishi bilan tavsiflanadigan o‘z-o‘zini anglashning buzilishidir.

Asosiy alomatlarga o‘z-o‘zini kuzatishning yetishmasligi, tajribani yo‘qotish, yangi notanish his-tuyg‘ularning paydo bo‘lishi, fikrlash va idrok etish tarzidagi o‘zgarishlar, boshqalar bilan aloqalar sonining kamayishi, asabiylashish va muloqotda murosasizlikning kuchayishi kiradi. boshqa odamlarga nisbatan salbiy ko‘rinish sifatida.

O‘qituvchilar, shuningdek, kasbiy yutuqlarning pasayishiga duch kelishlari mumkin, bu o‘z sohasi bo‘yicha qobiliyatsizlik hissi, nomutanosiblik va kasbiy mahoratning yo‘qolishi. Ushbu alomatlar kasbiy sohada, ayniqsa maktabda va maktabdan tashqari muhitda

o‘quvchilar bilan ishlashda depersonalizatsiya sharoitida charchash jarayonining boshlanishini ko‘rsatadi.

“Kasbiy yutuqlarning kamayishi” shkalasi bo‘yicha olingen natijalarga ko‘ra, esa yuqori ko‘rsatkich Toshkent (25,4%) va Qashaqadaryo (25,7%) viloyatlari umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilariga to‘g‘ri keldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta’lim tizimi o‘qituvchilarida o‘z zimmasidagi vazifalarni bajarish samaradorligi va natijadorligi darajasi pasaygan. Natijada kasbiy faoliyatga nisbatan munosabatning salbiylashuvi, o‘z faoliyatidan norozilik hissi, faoliyat qiymatining pasayishi, kasbiy faoliyatda salbiy o‘zini o‘zi idrok etish holatlari kuzatilgan. Buni o‘zlaridagi negativ kechinmalar va ularning namoyon bo‘lishini izohlashda o‘qituvchilar o‘zlarini ayblashadilar. Bu kasbiy faoliyatda emotsional ehtiyojlarni talab qiladigan majburiyatlarni o‘z shaxsiy yutuqlarining kamayishini yengillashtirish yoki kamaytirishga urinish sifatida ifodalanganliklarini ko‘rsatadi. Past ko‘rsatgich Toshkent (21,2%) shahridagi umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida kuzatildi. O‘rtacha ko‘rsatkich 26,1% ni tashkil qildi.

Mazkur holatlarni psixologik tahlili qiladigan bo‘lsak, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari o‘qituvchilarida “Kasbiy yutuqlarning kamayishi” shkalasi ko‘rsatgichining yuqoriligi birinichidan hududiy xususiyatga ya’ni, turmush tarzi, oilaviy yumushlar, oilada farzand tarbiyasi, tez-tez turli xil mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri kelish va boshqalar o‘qituvchining o‘z ustida ishlash, kasbiy mahoratini oshirish va butun borlig‘i bilan pedagogik faoliyatga o‘zini bag‘ishlash imkoniyatlarini biroz cheklaydi. Buning natijasida kasbiy faoliyat samaradorligi, kasbiy yutuqlar darajasi pasayishi mumkin.

Respondentlarda “psixik so‘nish” shkalasi darajasi Toshkent shahri o‘qituvchilarida yuqori ko‘rsatkichni namoyon qildi (24,3%). Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida bu shkala ikkinchi o‘rinni egalladi (22,3%). Mazkur shkala bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatgich 23,5 % ni tashkil qildi.

Ikkinci bob bo'yicha xulosalar

Ikkinci bob tahlilari yuzasidan quyidagicha xulosalar yuzaga keldi.

1. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, ruhiy charchash "odam-odam" sohasi bilan shug'ullanadigan shifokorlar, ruhoniylar, o'qituvchilar, huquqshunoslar, ijtimoiy ishchilar, psixologlar, psixoterapevtlar va boshqalar kabi ishchilar orasida ko'proq uchraydi. Bu odamlarga yo'naltirilgan kasblar muloqot qobiliyatini, hamdardlikni, mijozlarning shaxsiy intilishlari va o'ziga xos xususiyatlarini qabul qilishni, shuningdek, insoniylik va mehr-shafqatni namoyon qilishni talab qiladi.

2. O'qituvchilarning hissiy charchoqlari, birinchi navbatda, individual shaxsiy xususiyatlar bilan belgilanadi. Bunga qiymat-motivatsion sohadagi qarama-qarshiliklar, nevrotizmning yuqori darajasi (hissiy beqarorlik), hissiy holatni nazorat qilish qobiliyatining etarli emasligi va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatları kam rivojlangan bo'lishi mumkin.

3. O'qituvchilarda kasbiy so'nish darajasi ko'rsatgichlarining psixologik tahlili bo'yicha "kasbiy faoliyatda shaxsiy yutuqlarning kamayishi" yuqori darajada ifodalaganligi bilan bir qatorda, "emotsional charchoq" holatining ham nisbatan yorqin namoyon bo'lishi kuzatildi. Bu o'qituvchilarda ruhiy charchoq, depressiya alomatlarining mavjudligidan dolalat beradi, agarda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari amalga oshirilmasa, ularda kasbiy so'nish jarayonining rivojlanishi kelib chiqishi mumkin.

Olingan ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, ish staji 21 yildan 30 yilgacha bo'lган guruhga kiritilgan o'qituvchilar hissiy charchash sindromiga ko'proq moyil ekanlar. To'rtinchı guruh vakillari esa ushbu sindromga nisbatan eng kam moyil bo'lib, ular pedagogika sohasida eng ko'p ishlagan o'qituvchilar (30 yildan ortiq). Shunga ko'ra qayd etish mumkinki, tadqiqotimiz boshidagi hissiy charchash sindromi uzoq muddatli kasbiy faoliyat natijasida rivojlanadi degan gipoteza tasdiqlanmadı

III BOB. PEDAGOGLARDA KASBIY SO‘NISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Pedagoglarda kasbiy so‘nishning ijtimoiy-psixologik omillari deb nomlangan bo‘lib, mazkur bobda o‘qituvchilarda “Emotsional so‘nish darajasi diagnostikasi” metodikasi bo‘yicha empirik natijalar tahlili, o‘qituvchilarda kasbiy so‘nish jarayonining shakllanishiga stressning ta’siri, pedagoglarda kasbiy so‘nish jarayonining ijtimoiy psixologik omillarini o‘rganish natijalari, oliy ta’lim professor-o‘qituvchilarida kasbiy so‘nishni empirik o‘rganish natijalari ilmiy asoslab berilgan.

3.1-§. Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarda “Emotsional so‘nish darajasi diagnostikasi” metodikasi bo‘yicha empirik natijalar tahlili

Tadqiqotimizda V.V.Boyko tomonidan ishlab chiqilgan va Ye.Ilina tomonidan modifikatsiya qilingan “Emotsional so‘nish darajasi diagnostikasi” metodidan foydalanildi. Tadqiqotda jami 193 nafar o‘rta umumiyligi ta’lim maktablari o‘qituvchilari qatnashdilar.

Mazkur metodika emotsional charchashning namoyon bo‘lish darajasini o‘lchash, ular hissiy charchashning uch bosqichini aniqlashga imkon beradi: kuchlanish, qarshilik va charchoq. Har bir bosqich unga xos bo‘lgan to‘rtta alomat asosida tashxis qilishga uchun mo‘ljallangan bo‘lib, 84 ta ta’kidni o‘z ichiga olgan savollardan iborat bo‘lib, ular hissiy charchashning uch bosqichini aniqlashga imkon beradi: kuchlanish, qarshilik va charchoq. Har bir bosqichda unga xos bo‘lgan to‘rtta quyidagi alomatlar asosida tashxis qilinadi.

3.3.1-jadval

Emotsional so‘nish darajasi simptomlari va boschqichlari

Bosqich	№	Simptomlar
Taranglik	1	Psixik jarohatlovchi holatlarni boshdan kechirish
	2	O‘zidan qoniqmaslik
	3	O‘zini qafasga tushib qolgandek his qilish
	4	Tashvishlanish va depressiya
Rezistensiya (qarshilik ko‘rsatish)	1	Hissiy reaksiyaning noadekvatligi
	2	Hissiy-axloqiy dezoriyentatsiya
	3	Hissiyotni tejash sohasining kengayishi

	4	Kasbiy ma'suliyat hissining kamayishi (reduksiya)
Charchoq hissi	1	Emotsional tanqislik
	2	Emotsional begonalashish
	3	Shaxsiy begonalashish
	4	Psixosomatik va psixovegetativ buzilish

"Taranglik" bosqichi tashvishlanishning taranglashuvi deb atalib, bu bosqichda kasbiy charchash jarayoni shakllanadi. Taranglik dinamik xarakterga ega bo'lib, u charchash doimiyligini keltirib chiqaradi va jarohatli imkoniyatlar darajasini oshiradi. Ushbu bosqichga quyidagilar kiradi:

- psixologik jarohatli holatlarni boshdan kechirish kasbiy faoliyatning psixologik jarohatli omillari to'g'risida xabardorlikni oshirish sifatida namoyon bo'ladi va ulariga barham berish ancha mushkuldir. Psixologik jarohatli omilning ta'sir etish xususiyati astasekin ortib boradi va shaxsda umidsizlik hamda tashvishlanish holatini kuchaytiradi. Natijada ko'p holatlarni nazorat qilish izdan chiqadi va bu esa kasb egasida charchashni keltirib chiqaradi;

- o'zidan qoniqmaslik - vaqt o'tishi bilan odamda o'zidan qoniqish hissi yo'qoladi va bu o'z kasbidan, mavqeidan qoniqmaslik, mas'uliyatsizlikni namoyon qiladi. Shuning uchun ham kasbiy so'nishning dastlabki bosqichlarida o'zidan oniqmaslik muhim rol o'ynaydi;

- qafasda qolib ketganlikni o'zida his qilish - vaziyat odamga bosim o'tkazganda va u hech narsa qila olmasa, u bu muammodan chiqish yo'lini qidiradi, lekin hech narsa chiqmaydi, uning biror bir yo'lini ko'rmaydi va psixologik himoyaning izdan chiqishiga olib keladi, shundan so'ng odam o'zida qafasda qolib ketganlik hissini boshdan kechiradi;

- tashvishlanish va depressiya – murakkab vaziyatda kasbiy faoliyat bilan bog'liq holat bo'lib, bu odamda himoya vositasi sifatida hissiy charchashni keltirib chiqaradi. O'zidan va kasbiy faoliyatidan qoniqmaslik hissi har qanday vaziyatda keskinlik va tashvish hissini, o'zidan umidsizlik va hokazolarni keltirib chiqaradi va keyinchalik depressiya namoyon bo'ladi;

"Rezistensiya" (qarshilik ko'rsatish) bosqichi - bu psixologik himoya sifatida ko'rildigan shaxsning qarshiligi bo'lib, bu bosqichning

mohiyati shundaki, "rezistensiya"da u bilan birga ishlaydigan odamlar va ayniqsa, o'quvchilar bezovtalanadilar. Bunday holatda kasb egasi ularga nafrat bilan munosabatda bo'ladi va ulardan nafratlana boshlaydi. Shu bilan birga, kasb egasining o'ziga ham psixologik ta'sir yetadi va bu quyidagilarda ifodalanadi:

- noto'g'ri hissiy javob hissiy munosabatda ziqnalik va nomutanosiblikni o'z ichiga oladi, bu erda professional turli hodisalarini farqlash qobiliyatini yo'qotadi. Bunda kasb egasi o'z histuyg'ularini tejay boshlaydi, ish va muloqot paytida tanlangan javob tufayli hissiy izdan chiqish yuzaga keladi. Natijada "men xohlayman yoki xohlamayman" qoidasi asosida, agar kerak deb topsam, e'tibor beraman, agar kayfiyat bo'lsa, javob beraman, agar bo'lmasa, yo'q ko'rinishdagi munosabatlar bildiriladi;

- hissiy va axloqiy dizoriyentatsiya - bu hamkasblar yoki o'quvchilar bilan munosabatlardagi reaksiyani chuqurlashuvlidir. Bunda ko'pincha, odam o'zi qilgan harakatlari yoki gapirgan iboralari orqali o'zini oqlashga harakat qila boshlaydi. Natijada ko'pincha u atrof-muhit haqida salbiy gapiradi, hamdardlik ko'rsatmaydi, biror narsani tanqid qiladi yoki masxara qiladi;

- tuyg'ularni tejash sohasining kengayishi - bunday alomat hissiyotlarni tejash ishdan tashqarida bo'lganda va yaqin va aziz odamlarga qaratilganda o'zini namoyon qiladi;

- kasbiy majburiyatlarini his qilishning qisqarishi - odamlar bilan ko'p muloqot qiladigan kasbiy faoliyatda hissiy reaksiyalar talab qilinadigan holatlarda mas'uliyatni his qilishning kamayishi yoki pasayishi holatidir;

"Charchoq hissi" bosqichi - bu bosqichda sog'liq va kasbiy qadriyatlarning yo'qolishi kuzatiladi. Bunda u hamkasblari yoki o'quvqilaridan o'zini olib qochadi va asta-sekin kasbiy kasallik rivojlanadi, natijada ishdan ertaroq ketish yoki ishga kelmaslik uchun bahona izlay boshlaydi. Bu bosqich odatda quyidagi alomatlarning namoyon bo'lishi bilan birga kechadim:

- hissiy tanqislik – kasbiy emotsional charchoq natijasida kasb egasi hissiy jihatdan o'z kasbi bilan bog'liq odamlarga yordam bera olmasligini his qila boshlaydi va ularga hamdardlik yoki yordam ko'rsata olmaydi. Bunday paytda insonning ishi va hissiy holatida asosan salbiy jihatlar namoyon bo'ladi;

- hissiy begonalashish – bunda inson hissiyotlari kasbiy faoliyatidan deyarli chiqarib tashlanadi, natijada u hech narsaga ahamiyat bermaydigan, e‘tiborsizlik, hissiy aloqalarni xush ko‘rmaslik holatlari kuzatiladi. Kasb egasi asta-sekin robot kabi ishlay boshlaydi. Mutaxassisning hamkasblariga yoki undan ham yomoni, o‘quvchiga yetkazadigan zarari tobora ko‘payib boradi. O‘zining befarqliligi tufayli atrofdagilarga salbiy ta’sir etishi mumkin;

- shaxs begonalashuvi yoki depersonalizatsiya – bu keng miqyosda ifodalanib, kasbiy faoliyatdagi kayfiyat va harakatlar yo‘nalishining salbiylashuviga olib keluvchi holatdir. Kasbiy faoliyatda atrofdagi odamlarga qiziqishning to‘liq yoki qisman yo‘qolishi kuzatiladi va o‘zining muammolarini hamkasblari yoki atrofdagilarga yuklaydi, uning uchun ishda bo‘lish eng yoqimsiz haqiqatga aylanadi. Ularda hissiy-ixtiyoriy munosabatning namoyon bo‘lishi natijasida emotsional charchash sodir bo‘ladi. Bundaylarning ta’kidlashlaricha, odamlar bilan ishlash ular uchun qiziq emas, qoniqish bermaydi va hech qanday qadriyatlarni anglatmaydi;

- psixosomatik va psixovegetativ buzilishlar – bu simptom ruhiy va jismoniy farovonlik darajasida o‘zini namoyon qilib, ko‘pincha u salbiy xususiyatning shartli refleks aloqasi orqali ifodalanadi. Bu esa kasbiy faoliyat bilan bog‘liq aqliy va somatik buzilishlarni keltirib chiqaradi. Hatto ularga ish yuzasidagi yoki o‘zaro hamkorlik haqidagi fikrlar yomon kayfiyat, qo‘rquv hissi, uyqusizlik, yoqimsiz hislar va surunkali buzilishlarning kuchayishiga olib keladi. Hissiyotlarning psixosomatik tus olishi – muammoli vaziyatlarda o‘zini himoya qilish qobiliyatining pasayishi va quvvatning qayta taqsimlanishi natijasida tana o‘zini himoyalay olmay qoladi.


Natijalarni interpretatsiya qilish ishlari to‘rtta simptomlarni o‘z ichiga olgan uch bosqichda amalga oshirildi. Kalit bo‘yicha quyidagi hisob-kitoblar amalga oshirildi: ballar yig‘indisi va foiz ko‘rsatgichi har bir simptom uchun alohida belgilandi. Avvalo, alohida e‘tibor berilishi lozim bo‘lgan holatlар e‘tiborga olindi. Jumladan, 20 yoki undan ortiq ball yoki foiz ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan simptomlar dominatligi muayyan bosqichda yoki butun emotsional charchash sindromida davomida ifodalangan yoki ifodalanganligi hisobga olindi.

“Emotsional so‘nish darajasi diagnostikasi” metodikasi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, “Taranglik” bosqichi bo‘yicha eng yuqori

ko‘rsatgich Toshkent shahri o‘qituvchilarida kuzatildi (36,3%). Toshkent va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida bu ko‘rsatgich biroz pastroq darajada ifodalanishi kuzatildi (35,6; 32,7%) (3.1.1-rasm).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, psixik taranglik Toshkent shahri o‘qituvchilarida ancha yuqoridir. Buning sababini Toshkent shahrining megapolis xususiyatiga ko‘ra, aholining zichligi tufayli shaxslararo munosabatlar maydoning kengligi, shahar joylardagi narx navoning qimmatligi, oylik maoshning kamligi, urbanizatsiya, shovqin, axborot maydonining kengligi, taransport vositalarining ko‘pligi, ko‘pchilik aholining “dom”larda yashashi va shu kabi bir qator ijtimoiy-psixologik omillar ta’siri natijasida ularda emosional so‘nish darajasi kasbiy faoliyatidan norozilik, kayfiyat tushkunligi, psixik charchoqning kuchayishi, hissiy befarqlik, asabiylashish holatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lganligi bilan izohlash mumkin.

Rezistensiya (qarshilik) bosqichi bo‘yicha Toshkent shahri o‘qituvchilarida 41,0%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 38,2% va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida esa 20,8%ni tashkil etdi (3.1.1-rasm).



3.1.1-rasm. Respondentlarda “Emotsional so‘nish darajasi diagnostikasi” metodikasining hududlar bo‘yicha natijalari, n=193

Foizlar ko‘rsatgichidan ma’lum bo‘ladiki, bu bosqichda ham Toshkent shahri o‘qituvchilarida yuqori darajani ko‘rsatgan. Bu Toshkent shahri mакtablaridagi psixologik muhit, kasbiy, oilaviy va

hayotiy qadriyatlari sohasi, o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar darajasi, urbanizatsiya va shu kabi omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin degan xulosani beradi.

“Hissiy charchoq” bosqichi bo‘yicha: Toshkent shahri o‘qituvchilarida 40,3%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 39,2% va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida esa 20,5%ga teng bo‘ldi. Sog‘liqni saqlash, kasbiy va oilaviy qadriyatlarning yo‘qolishi kabi xususiyatlar “hissiy charchoq” darajasini ifodalarydi.

Hissiy charchoq bosqichida respondentlarda “emotsional tanqislik” va “psixosomatik va psixovegetativ kasalliklar” simptomlari ustunlik qiladi. Shuningdek, diagnostik sinovda qatnashgan ba’zi o‘qituvchilarda hissiy charchashning muayyan bosqichlarida dominant simtomlar aniqlandi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

V.V.Boyko so‘rovnomasiga natijalariga ko‘ra, birinchi bosqich bo‘yichada o‘qituvchilar eng yuqori darajani ko‘rsatdi (35,4%). Rezistensiya (qarshilik) bosqichi bo‘yicha esa ikkinchi darajani ko‘rsatdi (34,5). Hissiy charchoq bosqichi so‘nggi pog‘onani namoyon qildi. (30,4%)


Shunday qilib, kasbiy so‘nish sindromi shakllanishi darajasining turli bosqichlar bo‘yicha sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlar asosidagi tahlillar, o‘qituvchi shaxsidagi kasbiy so‘nish haqidagi yetarli darajadagi ma’lumotlarni taqdim etdi va shu asosda uning oldini olish, psixokorreksiyalash bo‘yicha individual-psixologik chora-tadbirlarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi.

Ushbu jarayon quyidagi savollarga oydinlik kiritishga qaratilgan: o‘qituvchining so‘nish jarayonida qanday alomatlar ustunlik qiladi va kasbiy charchash (agar aniqlangan bo‘lsa) kasbiy omillar yoki sub'ektiv omillar tufayli yuzaga keladimi? Emotsional so‘nish holatini oldini olish va shaxsning o‘ziga, hamkasblariga ziyon yetkazmaslik uchun xodim xulq-atvorining qaysi jihatlari korreksiyaga muhtoj? kabi savollarga javob berishi imkoniyatini berdi.

O‘qituvchilarda kasbiy so‘nish jarayoni haqida yanada kengroq ma’lumotlar olish maqsadida tadqiqotimizda kasbiy so‘nish simptomlarini ham alohida o‘rganishga harakat qildik. O‘rganish bo‘yicha olingan natijalardan ma’lum bo‘lishicha, “psixik jarohatlovchi holatlarni boshdan kechirish” simptomi Toshkent shahri o‘qituvchilarida past ko‘rsatgichni namoyon qildi (7,5%).

O‘rganish asosida olingan natijalardan ma’lum bo‘lishicha, “psixik jarohatlovchi holatlarni boshdan kechirish” simptomni Toshkent shahri o‘qituvchilarida past ko‘rsatgich namoyon bo‘ldi (6,2%). Bu shundan dalolat beradiki, Toshkent shahri o‘qituvchilarida psixik jarohatlovchi holatlarni boshdan kechirish holati nisbatan kamroq uchrar ekan. Lekin bu simptom respondentlarda 6,3% o‘rtacha daraja ifodalangan. Bu shundan dalolat beradiki, o‘qituvchilarda umuman olganda ma’lum darajada namoyon bo‘lar ekan. Bunday simptomni boshdan kechirgan respondentlar ko‘pincha o‘zlarida ta’sirchanlik xususiyatini ifodalaydi va natijada ular ko‘p holatlarda o‘zlarini nazorat qilaolmaslik, umidsizlik holatlarini namoyon qilishadi.

Mazkur simptom Toshkent va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida esa bu simptom nisbatan pastroq darajada ifodalanganligi aniqlandi. (5,3%; 4,9%). Bu, viloyatlar maktablarida psixik jarohatlovchi holatlar kamroq uchrashligidan dalolat beradi. Bu simptomga ega bo‘lgan o‘qituvchilarda ko‘pincha, “o‘zidan qoniqmaslik”, “o‘zini qafasga tushib qolgandek his qilish”, “tashvishlanish va depressiya” simptomlari yaqqol namoyon bo‘lganligi kuzatildi.



3.1.2-rasm. Respondentlarda kasbiy so‘nish simptomlarining namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari, n =193

Tadqiqotimizda V.VA.Boykoning “Emotsioanal so‘nish darajasi diagnostikasi” bo‘yicha respondentlarda kasbiy so‘nish simptomlari namoyon bo‘lishining korrelyatsiya tahlili amalga oshirildi. Unga ko‘ra, “Psixik jarohatlovchi holatlarni boshdan kechirish” ($r=0,213^{**}$), “O‘zidan qoniqmaslik” ($r=0,144^{**}$), “Tashvishlanish va depressiya” ($r=0,145^{**}$) va “Kasbiy majburiyatlarni bajarish hissining kamayishi (reduksiya)” ($r=0,142^{**}$) simptomlari yuqori darajadagi manfiy munosabatni namoyon qildi (3.1.2-rasm). Shuningdek boshqa simptomlar ham deyarli manfiy ko‘rsatgichni ifodaladi. Bu o‘rganilgan respondentlarda kasbiy so‘nish simptolarining deyarli ko‘pchiligi kuzatilayotganligidan dalolat beradi. Ushbu holatdan kelib chiqib, bunday holatning oldini olish yuzasidan zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirish zaruriyatini taqoza qiladi.

V.V.Boyko so‘rovnomasni natijalariga ko‘ra, birinchi bosqich bo‘yichada o‘qituvchilar eng yuqori darajani ko‘rsatdi (35,4%). Rezistensiya (qarshilik) bosqichi bo‘yicha esa ikkinchi darajani ko‘rsatdi (34,5). Hissiy charchoq bosqichi so‘nggi pog‘onani namoyon qildi (30,4%)

Izoh: 1- psixik jarohatlovchi holatlarni boshdan kechirish; 2 - o‘zidan qoniqmaslik; 3 - o‘zini qafasga tushib qolgandek his qilish; 4 - tashvishlanish va depressiya; 5 - hissiy reaksiyaning noadekvatligi; 6 - hissiy-axloqiy dezoriyentatsiya; 7 - hissiyotni tejash sohasining kengayishi; 8 - kasbiy majburiyatlarni bajarish hissining kamayishi (reduksiya); 9 - emotsiyal tanqislik; 10 - emotsiyal begonalashuv; 11 - shaxsiy begonalashuv; 12 - psixosomatik va psixovegetativ buzilish.

“O‘zidan qoniqmaslik” simptomi Toshkent shahri o‘qituvchilarida biroz past darajani (5,6%), viloyat maktablari o‘qituvchilarida esa yuqoriroq darajani ko‘rsatdi (6,2%; 6,8%). Bunday holatni biz o‘rgangan viloyat maktablari o‘qituvchilarining oilaviy yumushlar, qishloq xujaligi ishlari bilan ko‘proq shug‘ullanishlariga to‘g‘ri kelishi tufayli o‘z ustida ishlash, kasbiy faoliyatlarida yuqoriroq yutuqlarni qo‘lga kiritish imkoniyatlarining biroz cheklanganligi va boshqalar bilan izohlash mumkin.

Qolaversa, o‘rganilgan viloyatlar maktablarining 2021-2022 o‘quv yilidagi Respublika maktablarining ta’lim sifati bo‘yicha baholanish natijalariga ko‘ra, eng oxirgi o‘rnlarni egallaganliklari

ham ularning o‘z-o‘zidan qonimaslik hissining namoyon bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lishi mumkin degan xulosani keltirib chiqaradi. Shuningdek, o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, bilim, malaka va mahoratirni oshirib borish mutaxassis sifatida o‘z shaxsiy imkoniyatlarni namoyon etish tomon harakat, pedagogik jarayon talablariga adaptatsiya, kasbiy kompetentlikni muntazam oshirib borish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni uzlusiz rivojlantirish kabi faoliyatni amalga oshirish hamda shaxsiy tashabbuskorlik, mustaqillik, mas‘uliyatlilik va irodaviy sifatlarning namoyon bo‘lishiga xizmat qiladi.

Bunday o‘qituvchilarda ko‘pincha, o‘zlarining mavqeidan qoniqmaslik, zimmalariga yuklangan vazifalarni yoqtirmaslik, pedagogik faoliyatga nisbatan nosog‘lom munosabatni ifodalash holatlari kuzatiladi.

“O‘zini qafasga tushib qolgandek his qilish” simptomni bo‘yicha yuqoriroq ko‘rsatgich Toshkent shahri o‘qituvchilarida aniqlandi (5,3%). Viloyatlarda esa bu simptom nisbatan pastroq darajani ifodaladi (4,8%; 4,2%). Buni shahar muhiti va undagi urbanizatsiya xususiyati, aholining zinch joylashuvi, shaxslarao muloqotga kirishish imkoniyating kengligi va boshqalar natijasida o‘qituvchilarda muammoli vaziyatlarning tez-tez uchrab turishi tufayli bu simptomni boshdan kechirish darajasi yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Bu simptom rivojlangan o‘qituvchilarida vaqtiga-vaqtiga bilan hayotiy va kasbiy faoliyatlarida yuzaga keladigan muammoli holatlar yechimni ko‘rmaydigan vaziyatlar kuzatiladi.

“Tashvishlanish va depressiya” simptomni tadqiqotda o‘rganilgan viloyatlardagiga qaraganda, Toshkent va Qarshi shaharlari maktablari o‘qituvchilarida biroz yuqoriroq darajani ko‘rsatdi (8,6; 6,5; 5,3%). Bunday holatni kasbiy tashvishlanish va depressiya holati namoyon bo‘lishining pedagogik stajga bog‘liqlik tomonlari, uning namoyon bo‘lishiga ta’sir etuvchi shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, shaxsiy ambitsiyalar, pedagog kasbiy rivojlanishining subyektiv usuli va o‘zini o‘zi anglashi bilan bog‘liq jihatlari va boshqalar bu simptomning rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi bilan izohlash mumkin.

“Hissiy reaksiyaning noadekvatligi” simptomni Toshkent shahri o‘qituvchilarida 14,0%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 11,3% va

Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida 12,8%ni tashkil qildi. Olingan natijalarga ko‘ra, bu sipmtom Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyati o‘qittuvchilarida yanada yaqqol namoyon bo‘lganligi kuzatildi. Buni o‘qituvchilarning tez-tez muammoli vaziyatlarga tushib turishlari, muammoli vaziyatlarda maqbul qaror qabul qilish xususiyati, emotsiyalarning tashqi ob‘ektlari ta’siri, ularning aloqalari va munosabatlari, kasb egasi faoliyatida amalga oshiriladigan ob‘ektiv vaziyatlar haqidagi axborotni sub‘ektiv aks etishi natijasida kelib chiqadigan hissiy reaksiyaning noadekvatligi bilan tushuntirish mumkin.

“Hissiy-axloqiy dezorientatsiya” simptomiga ko‘ra, respondentlarda Toshkent shahri bo‘yicha 12,3%, Toshkent viloyati bo‘yicha 12,0%, Qashqadaryo viloyati bo‘yicha 10,9% ko‘rinish namoyon bo‘ldi. Bu simptom ko‘pincha, shaxs hayotiy yoki kasbiy faoliyatidagi munosabatlarda hissiy-axloqiy jihatdan buzilishlarni namoyon etib, shaxaslararo va kasbiy aloqalarda hissiy tus berilgan munosabatlarni ifodalaydi.

"Hissiyotni tejash sohasining kengayishi" simptomini Toshkent viloyati o‘qituvchilarida biroz yuqori darajani ifodaladi (7,5%). Toshkent shahri va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida esa mos ravishda 7,2%, 6,3 % ga teng bo‘ldi. Bunday simptomga ega bo‘lgan kasb egalari odatda kamsuqum, e‘tiborsiz, aralashmaslik, muloqotdan qochish, yolg‘izlikni xush ko‘rvchanlik kabi xususiyatlarni o‘zlarida ifodalaydilar. Tabiiyki, bunday holat hayotiy, shaxsiy va kasbiy faoliyatda o‘ziga xos susayishlarga olib kelishi mumkin. Bunday simptomga ega bo‘lgan o‘qituvchilar odatda nafaqat ishda, balki yaqin va aziz odamlariga ham hissiyotlarini tejashadi natijada ular yakkalanib qolish holatlariga yuz tutishlari mumkin.

“Kasbiy majburiyatlarni bajarish hissining kamayishi” (reduksiya) simptomini bo‘yicha Toshkent shahri o‘qituvchilarida yuqori qiymatni ko‘rsatdi (10,2%). Bu simtom Toshkent viloyatida 9,6%ni va Qashqadaryo viloyatida 8,3%ni tashkil qildi. Bu simptomli o‘qituvchilar odamlar bilan kamroq aloqada bo‘lish maqsadida mas‘uliyatni soddallashtirish va kamaytirishga ta’sir ko‘rsatadi.

“Emotsional tanqislik” simptomini qiymati Toshkent shahri o‘qituvchilarida 6,4%, Toshkent viloyati o‘qituvchilarida 9,8%, Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida esa 10,4%ni tashkil qiladi.

Mazkur ko'rsatgichlar shundan dalolat beradiki, emotsional tanqislik holati Toshkent shahri o'qituvchilariga nisbatan viloyat maktablari o'qituvchilari yuqoriroq darajani ko'rsatmoqda.


"Emotsional begonalashuv" simtomi bo'yicha eng yuqori ko'rsatgich Toshkent viloyati o'qituvchilarida (8,3%) namoyon bo'lganligi aniqlandi. Shuningdek, Toshkent shahri (7,6%) va Qashqadaryo viloyati o'qituvchilarida (7,2%) kuzatildi.

"Shaxsiy begonalashuv" (depersonalizatsiya) simtomi bo'yicha esa viloyatlar o'qituvchilarida biroz yuqoriligi (9,0%;10,1%) ma'lum bo'ldi. "psixosomatik va psixovegetativ buzilish" sindromida ham viloyat o'qituvchilarida (9,7%;10,4%) yuqori darajani namoyon qilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib qayd etish mumkinki, kasbiy so'nish sindromlari bo'yicha shahar hududlari o'qituvchilarida "hissiy reaksiyaning noadekvatligi" (14,0%), "hissiy-axloqiy dezoriyentatsiya" (12,3%), "kasbiy majburiyatlarni bajarish hissining kamayishi" (reduksiya) (10,2%) simtomlari ustunlik qiladi. Qishloq joylaridagi o'qituvchilarda esa "hissiy reaksiyaning noadekvatligi" (13,2%), "hissiy-axloqiy dezoriyentatsiya" (12,0%), "emotsional tanqislik" (10,4%), "psixosomatik va psixovegetativ buzilish" sindromlari yuqori darajalarni namoyon qilganligi kuzatildi.

Tadqiqotda respondentlarning mehnat staji bo'yicha kasbiy so'nish ko'rsatkichlarini K.Maslachning "Psixik so'nish darajasini aniqlash"(MBI) metodi orqali olingan natijalar bilan qiyosiy taqqoslash maqsadida quyida V.V.Boyko tomonidan ishlab chiqilgan "Emotsional so'nish darjasini diagnostikasi" metodidan olingan ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilishga harakat qildik.

V.V. Boyko konsepsiyasiga ko'ra, kasb egasidagi "taranglik" va "qarshilik" bosqichlarida shaxs mijozlari muammolariga tanlab javob berish (his-tuyg'ularni tejash) yoki mijozlarning haqiqiy sonini chegaralash orqali hamda kasb egasining irodasidan tashqarida bo'lgan mijozga o'z his-tuyg'ularini "to'kib solish" asosidagi emotsional munosabatning ifodalanishi sifatida talqin etiladi. Ushbu symptomlarga qo'shimcha ravishda aytish mumkinki, "qarama-qarshilik" bosqichida "kasbiy yutuqlar darjasining kamayishi" simtomi kuzatilib, kasbiy yutuqlarni salbiy baholash yoki mas'uliyatning kamayishi tendensiyasi ifodalanadi.



3.1.3-rasm. V.V.Boyko metodikasi bo'yicha respondentlarda ish stajiga ko'ra kasbiy emotsional so'nish darajasi namoyon bo'lish ko'rsatkichlari, n=193

Yuqoridagi ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, respondentlarning aksariyati umumiyoq ko'rsatgich bo'yicha eng yuqori daraja "qarama-qarshilik" bosqichiga to'g'ri kelishi kuzatildi (45,7%). Ikkinchisi o'rinni "psixik taranglik" (27,8%) bosqichi egalladi (3.1.3-jadval).

O'qituvchilarning ish tajribasiga qarab hissiy charchash bosqichidagi qarshilik (qarama-qarshilik) darajasi 5 yilgacha bo'lgan tajribaga ega o'qituvchilar orasida eng yuqori darajani ko'rsatdi (51,4%). Keyingi o'rinni 6 yildan 15 yilgacha ish stajiga ega o'qituvchilar (46,2%) egalladi.

"Taranglik" bosqichiga kelsak, eng yuqori ifoda darajasi 5 yilgacha bo'lgan tajribaga ega (30,2%) o'qituvchilar orasida bo'ldi. 16 yildan 30 yilgacha bo'lgan tajribaga ega bo'lgan o'qituvchilar "charchoqni his qilish" bosqichida eng yuqori darajani (30,4%) ko'rsatdi. Bu bosqich bo'yicha o'rtacha qiymat ko'rsatgichi 27,8% ni tashkil etdi.

O'qituvchilarda emotsional so'nish bosqichining mehnat stajiga bo'yicha ifodalishiga ko'ra, rezistensiya (qarama-qarshilik) bosqichi 5 yilgacha mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarda eng yuqori darajani ko'rsatdi (51,4,2%). Keyingi daraja 6-15 yillik ish stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarda ifodalandi (46,2%).

Emotsional so'nish jarayonining "Charchoq hissi" bosqichi bo'yicha 16-30 yillik stajga ega bo'lgan o'qituvchilarda yuqori ekanligi aniqlandi (30,4%). O'rtacha ko'rsatkich mazkur bosqichda 26,1%ga teng bo'ldi. Bu, 5 yilgacha mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning yosh davri xususiyati, kasbiy faoliyatga endigina ko'nikib, moslashib borish jarayoni hamda kasbiy faoliyatdag'i o'ziga xos talablar, me'yorlar va jamoa muhitining xususiyati ularda ruhiy taranglik holatining ortishiga sabab bo'lib xizmat qilishi mumkin degan xulosani beradi. Shu o'rinda bir narsaga e'tibor qaratish lozimki, mazkur bosqich darajalari yosh va staj ortib borishi bilan kamayib borganligi kuzatilgan (42,3%, 43,1%). Bu umumiy holda aytganda, kasbiy so'nishning shakllanishida yosh va ish staji asosiy omil sifatida xizmat qilmas ekan.

Tadqiqotimizda o'qituvchilarda so'nish bosqichlari ustuvorligi bo'yicha guruhi lararo farqlar mezon yordamida qayta ishlandi. Unga ko'ra, turli ish staji bo'yicha respondentlarda kasbiy emotsional so'nish namoyon bo'lishi ko'rsatgichlari taqqoslanganda respondentlarning aksariyatida sezilarli farqlanishlar kuzatilmadi. 3 faktorli tahlili bo'yicha temp qiymati muhimlik jihatiga ko'ra, quyidagicha ifodalandi:

6-15 yil va 16-30 yil ish stajiga ega bo'lgan respondentlarda birinchi bosqichda "emotsional taranglik" shkalasi ko'rsatkichi (temp.=0,824) 16-30 yil ish stajiga ega bo'lganlar ko'rsatkichidan biroz yuqoriligi aniqlandi (temp= 0,928). (3.1.4-jadval).

3.1.3-jadval

Respondentlarda ish staji bo'yicha kasbiy emotsional so'nish namoyon bo'lishi, U-Mann-Uitni mezoni bo'yicha korrelyatsion ko'rsatkichlar, n=193

Shkalalar				
Mehnat staji	Emotsional taranglik	Rezistensiya (qarama-qarshilik)	Charchoq hissi	mezon
5 yilgacha	30,2	51,4	18,6	2,061
6-15 yil	26,3	46,2	27,5	
temp	0,824	1,286	1,328	
5 yilgacha	30,2	51,4	18,6	2,103

16-30 yil	25,1	42,3	30,4	
temp	0,928	0,880	0,641	
5 yilgacha	30,2	51,4	18,6	2,108
30 yildan ortiq	28,8	43,1	28,0	
temp	1,978	0,512	0,697	
6-15 yil	26,3	46,2	27,5	
16-30 yil	25,1	42,3	30,4	2,0526
temp	2,513	0,796	2,210	
6-15 yil	26,3	46,2	27,5	
30 yildan ortiq	28,8	43,1	28,0	2,056
temp	3,247	1,026	0,697	
16-30 yil	25,1	42,3	30,4	2,089
30 yildan ortiq	28,8	43,1	28,0	
temp	0,421	0,815	1,528	

6-15 yil va 30 yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lgan respondentlarda “emotsional taranglik” shkalasi ko‘rsatkichi (temp.=0,824) ikkinchi bosqichda ham yuqoriligi kuzatildi (temp.=1,286)

6-15 yil va 16-30 yil ish stajiga ega bo‘lgan respondentlarda “emotsional taranglik” shkalasi ko‘rsatkichi o‘rtasidagi farqlanish ikkinchi bosqich ko‘rsatkichi bo‘yicha ham yuqori (temp.=0,928). Ya’ni, 15 yillik ish stajidan keyin o‘qituvchilarda “emotsional taranglik” va “charchoq” bosqichlari ko‘rsatkichlarining o‘sish tendensiyasi mavjud. Qizig‘i shundaki, 30 yildan ortiq ishlagan o‘qituvchilar guruhida “charchoq” bosqichining o‘rtacha qiymatlari oshganligi kuzatiladi.

6-15 yillik ish stajiga ega bo‘lgan respondentlar ko‘rsatgichlari bilan taqqoslanganda, bizning taxminlarimizga ko‘ra, o‘quvchilar guruhlari bilan uzoq muddat mobaynida ishlashlari holati o‘qituvchilarda yuqori ko‘rsatkichlarni ifodalashiga ta’sir qilgan bo‘lishi mumkin. Hissiy taranglik esa kasbiy so‘nish jarayonining shakllanishida jiddiylikni ifodalaydi. Chunki, emotsional taranglik o‘qituvchilarda kasbiy so‘nish jarayonining yuqori darajada shakllanishiga sabab bo‘lib xizmat qilish mumkin. Bu holat quyidagicha talqin qilinishi mumkin. Katta mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar guruhida (30 yoshdan katta) yosh chegarasi

bo'yicha "nafaqa" chiqish tanlovi mavjud bo'lib, garchand ular munosib dam olishga ketmagan bo'lsalarda, ammo ularning istalgan vaqtda nafaga ketishlari mumkinligini his etishlarining o'zi "emotsional taranglik" bosqichining simptomlari shakllanganligidan dalolat beradi.

6 yildan 30 yilgacha mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilar guruhida nafaqaga chiqish erkinligi va ko'p hollarda ish joyini o'zgartirishi yoki boshqa kasbga o'tish imkoniyatining mavjud emasligi, (mehnat bozorida raqobatbardosh jozibadorlikning pasayishi tufayli) yosh bilan bog'liq yoki shaxsiy passivlik tufayli, turmush tarzini o'zgartirishni xohlamasliklari mumkin. Ammo, ushbu guruhda pedagogik faoliyat doirasidagi hissiy jihatdan keng aloqalardan charchagan odamlar yetarlicha bo'lib, bu aslida "emotsional taranglik" bosqichi simptomlarining paydo bo'lishiga va rivojlanishiga olib kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash mumkinki, guruhlararo korrelyatsion ko'rsatgichlarda sezilarli farqlar kuzatilmagan bo'lsa-da, guruh ballarining o'rtacha darajasida, charchashning barcha bosqichlari uchun eng past ko'rsatkichlar 6 yildan 15 yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan o'qituvchilar guruhida namoyon bo'ldi. Ehtimol, bu ishslash davrida bir tomonidan, kasbiy moslashish uchun hissiy munosabatlar kamroq bo'lishi bilan bog'liq (5 yilgacha amaliyot guruhida bo'lgani kabi) bo'lsa, ikkinchi tomonidan, surunkali stressning ta'siri kasbiy staj bilan bog'liq bo'lgan (16 yildan ortiq ishlagan) omillarga nisbatan kamroq kuzatilishi bilan xarakterlanadi.

Xulosa qilib aytganda, guruhlararo farqlarni juftlik bilan tekshirish ularning ahamiyatini ko'rsatmadи (t-test ko'rsatkichi). Shuning uchun biz bu yerda faqat guruhning o'rtacha qiymatlari darajasidagi farqlar tendensiyasi haqida ta'kidlashimiz mumkin. Shunga ko'ra, charchoq hissining eng yuqori darjasasi mehnat staji 16 yildan 30 yilgacha bo'lgan o'qituvchilar guruhida ekanligi tasdiqlandi.

6 yildan 15 yilgacha mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarda emotsional so'nish umumiy ko'rinishda past darajani ifodaladi. Buning sababini ushbu mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning kasbiy moslashuv jarayonini boshdan kechirayotganliklari tufayli shaxsiyat bilan bog'liq hissiy munosabatlarning ifodalanmaganligi

bilan izohlash mumkin. Bundan tashqari, 6-15 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar kasbiy ko‘nikmalarni egallash, kasbiy faoliyatni tobora malakali bajarish sifatida kasbiy shakllanish jarayonini boshdan kechirayotganliklari holati bilan ham tushuntirish mumkin.

O‘qituvchilar yuqori darajada rivojlangan kasbiy fazilatlar va qadriyatlardan tashqari, universal bo‘lishi, boshqalarga g‘amxo‘rlik qilish istagi, xushmuomalalik, o‘zini rivojlantirish istagi ega bo‘lishi kerak. Barcha shaxsiy va kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan qiymat yo‘nalishlari mavjud bo‘lganda, o‘qituvchi o‘z ishini halol va samarali bajarishi, mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lishi, ijodiy yo‘llarni ishlab chiqishi va izlashi mumkin bo‘ladi. Ushbu fazilatlarning yo‘qligi kasbiy so‘nishlarga, kasbiy yutuqlarning pasayishiga olib kelishi mumkin. Agar o‘qituvchi kasbga va uning natijalariga yo‘naltirilgan bo‘lsa, u o‘zining kasbiy rivojlanishi uchun qo‘llanma bo‘lib, xizmat qilishi mumkin bo‘lgan o‘zining muvaffaqiyatli faoliyat modelini yaratishi mumkin. O‘qituvchi o‘z ishining tarkibiy qismlarini o‘zi uchun qadrli deb tushunsa, axloqiy barqarorlik shakllanadi, kasb ichidagi qiyin vaziyatlarni yengib o‘ta oladi.

Tadqiqotimizda o‘qituvchilarda psixik so‘nish darajasining kasbiy so‘nish jarayoniga ta’sirini o‘rganish maqsadida A.A.Rukavishnikovning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” metodikasidan foydalandik. Mazkur metodika “psixoemotsional so‘nish” (PES), “Shaxsiy begonalashuv” (ShB) va “kasbiy motivatsiya” shkalalaridan iborat bo‘lib, unga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs tuzilmalarini aniqlashning integral diagnostikasiga qaratilgan.

Shkalalarni mazmunan quyidagilarga bo‘lish mumkin: Psixo-emotsional charchoq - bu "odamdan odamga" sohasida ishlaydigan mutaxassisning hissiy, jismoniy va aqliy resurslarini asta-sekin yo‘qotish jarayoni. Bu jarayon surunkali hissiy va jismoniy charchoq, boshqalarga nisbatan befarqlik va sovuqqonlik, tushkunlik va asabiylashish sifatida namoyon bo‘ladi.


Shaxsiy begonalashuv - bu boshqa odamlar bilan ishlaydigan odamlar uchun ijtimoiy moslashuvning maxsus shakli. Bu boshqalar bilan aloqalar sonining kamayishi, muloqotda asabiylashish va

murosasizlikning kuchayishi, shuningdek, boshqa odamlarga nisbatan salbiy munosabatda namoyon bo‘ladi.

Kasbiy motivatsiya deganda altruistik mazmunga ega bo‘lgan mehnat motivatsiyasi va mehnatga ishtiyoq darajasi tushuniladi. Ushbu daraja kasbiy faoliyat samaradorligi, ishdagi optimizm va qiziqish, kasbiy kompetentsiyani o‘z-o‘zini baholash va odamlar bilan muloqot qilishdagi muvaffaqiyat darajasi kabi ko‘rsatkichlar bilan baholanadi.

A.A.Rukavishnikovning “Psixik so‘nish darajasini aniqlash” metodikasi bo‘yicha o‘qituvchilarda quyidagi natijalar aniqlandi. Xususan, “Psixoemotsional so‘nish” (PS) shkalasi darajasi Toshkent shahri o‘qituvchilarida eng yuqori darajani namoyon qildi (14,1%). *Depersonalizatsiya* (shaxsiy begonalashuvi) shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkich Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida namoyon bo‘ldi (13,8%). Keyingi “kasbiy motivaiya” shkalasi ko‘rsatkichi ham Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida eng yuqori darajani ko‘rsatdi (14,6%).

(3.1.4-rasm)



Kasb motivatsiyasi darajasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilarda kasbiy faoliyat natijadorligi va sifat oshadi. Bu, kasbiy motivatsiyasi yuqori bo‘lgan o‘qituvchilarda mehnatga bo‘lgan ishtiyоq, kasbiy

faoliyatning yuqori mahsuldorligi, optimizm va kasbiy faoliyatga qiziqishi yuqori bo‘lishi mumkinligi haqida tushuncha bo‘yicha bahs-munozaraga sabab bo‘ladi va bu boradagi tadqiqotlarni yanada chuqurroq davom ettirishni taqazo qiladi

3.2-§. Umumta’lim maktablari o‘qituvchilarida kasbiy so‘nish jarayonining shakllanishiga stress ta’siri

Pedagog xodimlarning salomatligi va ularning pedagogik faoliyati samaradorligi ko‘pgina kasbiy sohalar singari ish sharoiti, jamoadagi muhit kasbiy funksional vazifalarga bog‘liq. Biroq ko‘pgina tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, oxirgi o‘n yillikda, pedagogik faoliyat bilan bog‘liq stressogen faktorlar soni ortib bormoqda. Bugungi kunda pedagoglarning faoliyati psixogen, intellektual, emosional zo‘riqishlar bilan to‘ladir [105].

Darhaqiqat, kunlik hisobotlar, sinf rahbarligi, jamoat ishlariga jalg qilinish, pedagollar jamoasidagi rahbar-xodim munosabatlari bilan bog‘liq muammolar, o‘qituvchilarning o‘z ustida ishlashga vaqtning yetmshmasligi va boshqalar ularda ham psixik, ham jismoniy charchoq va ruhiy zo‘riqishlarning kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqotimizda o‘qituvchi-pedagoglarda kasbiy stress shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarni o‘rganishga harakat qildik. Shu maqsadda biz pedagolgardagi kasbiy stress darajasini aniqlash maqsadida D.Fontan tomonidan ishlab chiqilgan “Kasbiy stress shkalasi” metodikasidan foydalandik. Mazkur metodika 22 ta savoldan iborat bo‘lib, pedagogning stressga bo‘lgan munosabatini individual ravishda baholash imkonini beradi. Agar pedagog metodika savollariga bergen javoblari asosida 15 ball to‘plasa kasbiy stressning mavjud emasligidan dalolat beradi. Kasbiy stressning mo‘‘tadil ko‘rinishi 16-30 ball oralig‘ida namoyon bo‘ladi. Bu ko‘rsatgich o‘rtacha ko‘rsatgich hisoblanib, neyroemotsional stress alomatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin, kasbiy stressning shakllanganligini to‘liq anglatmaydi.

31 balldan 45 ballgacha bo‘lgan daraja kasbiy stressning aniq namoyon bo‘lishini ifodalaydi. Bunda psixosomatik va nevrotik asoratlarning rivojlanishi, stressning kasbiy faoliyatga hamda

jamoadagi munosabatlarga ta'siri mavjedudligini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkich kasbiy stressning o'rta darajasini anglatadi. Agar stress darjasasi 46 balldan yuqori bo'lsa, shaxsning moslashish qobiliyatining izdan chiqishi, psixosomatik simptomlarning rivojlanishi xavfini orttiradi, kasbiy faolichyatdagi natijadorlik, kasbiy mas'uliyatning pasayishi kuzatiladi.

D.Fontanning kasbiy stress shkalasi bo'yicha maksimal daraja 60 ballni tashkil etadi. Bundan tashqari ushbu metodika stress parametrlarini aniqlash uchun mazmunli tahlil qilish imkonini beradi.


Tadqiqotda Toshkent shahri shahri Olmazor tumanidagi 159-sonli, Shayxontoxur tumanidagi 20-sonli, Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi 34-sonli, Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 6 sonli, Shahrisabz tumanidagi 27-sonli umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 160 nafar pedagoglari ishtirok etdi.

Tadqiqotimizda o'qituvchilarda kasbiy stress darajasining kasbiy so'nishga ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida respondentlarda kasbiy stress namoyon bo'lish darajalarini jins, yosh va ish staji bo'yicha tahlil qilishga harakat qildik.

Olingan natijalardan ma'lum bo'lishicha, kasbiy stress darajasining gender xususiyati bo'yicha ifodalanishiga ko'ra, Toshkent shahri ayol o'qituvchilarida yuqori ko'rsatkich kuzatildi (42,0%). Erkaklarda bu ko'rsatgich 44,2% ni tashkil qildi (3.2.1-jadval). Bundan ko'rinadiki, kasbiy stress darjasasi ayol o'qituvchilarga nisbatan erkak o'qituvchilarda biroz yuqori darajani ko'rsatadi.

Deyarli xuddi shunday ko'rsatkich tadqiqotmizning oldingi paragraflarida tahlil qilingan K.Maslach va S.Jeksonning "Psixik so'nish darajasini aniqlash" (MBI) so'rovnomasining olingan natijalarda ham xuddi shunday ya'ni, psixik so'nish darjasasi erkaklarda 57,2%, ayollarda esa 52,8% ni ko'rsatgan edi.

Demak aytish mumkinki, psixik so'nish va kasbiy stress darjasasi ayollarga nisbatan erkak o'qituvchilarda bir muncha yuqoriligi kuzatiladi. Buni gender psixologik xususiyatlar ya'ni, voqelikni ichiga yutish, stressogen ta'sirlarni ayollar singari tezda o'tkazib yubora olmaslik, erkakning oila boquvchisi, ta'minotchisi sifatidagi burch va mas'uliyatini his qilishi va boshqa individual-psixologik xususiyatlar bilan izohlash mumkin.



3.2.1-rasm. D.Fontanning «Kasbiy stress shkalasi” bo‘yicha respondentlarda kasbiy stress darajalarining namoyon bo‘lishi ko‘rsatgichlari, n=193

Kasbiy stress darajasining yosh davrlari bo‘yicha ifodalanishining yuqori ko‘rsatkichi asosan 31-40 yosh davriga to‘g‘ri kelmoqda (32,5%). Bu ko‘rsatkich o‘qituvchilarda yosh ortib borishiga qarab, biroz pasaygani kuzatiladi (23,9%). Toshkent va Qashqadaryo viloyati o‘qituvchilarida yanada pasayish holati aniqlandi (21,3; 19,6%).

Kasbiy stress darajasining ish staji bo‘yicha namoyon bo‘lishi quyidagicha ifodalandi: 11 yildan 20 yilgacha eng yuqori (37,6%), eng past daraja 31 yildan 40 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilar zimmasiga to‘g‘ri keldi (19,4%).

Yuqoridagi ko‘rsatkichlardan ma’lum bo‘ladiki, respondentlarning yoshi va ish staji ortgani sari kasbiy stressning o‘rtacha darajasi bo‘yicha natijalar ham ortib borganligi kuzatiladi. Mazkur holatni o‘qituvchilarning ishga to‘liq ko‘mib tashlanganligi tufayli ularning bo‘sh vaqtining deyarli yo‘qligi, pedagogik jamoadagi muhitning nosog‘lomligi, pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasining pastligi

yoki berilgan topshiriqqa nisbatan haddan ortiq ma'suliyatning yuqoriligi, ma'muriyat tomonidan beriladigan topshiriqlarni xodimlarning salohiyati, tajribasini hisobga olmay berilishi va boshqalar bilan izohlash mumkin. Bu holat bo'yicha 1-10 yil ish stajiga ega bo'lgan respondentlarning ko'rsatkichlari biroz pasayganligi kuzatiladi. Buni, bu davrga kelib pedagog jamoada o'z mavqeiga ega bo'lib borayotgani va shuning natijasida berilgan topshiriqlarni, pedagogik muammolarning yechimini konstruktiv tarzda hal qilish va shaxslararo munosabatlarda hamkorlikka intilishning shakllanib borishi, pedagogik jamoa, pedagogik faoliyatga moslashishib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Yuqorida keltirilgan rasmdan 30,1% sinaluvchilarda kasbiy stress darjasini yuqoriligi aniqlandi, shulardan 5 yilgacha ish stajiga ega bo'lgan pedagoglarda 1,1%, 10 yilgacha ish stajiga ega bo'lganlarda 1%, 15 yilgacha ish stajiga ega pedagoglarda 9,6%, 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlarda 18,4% ni tashkil etdi. Agar natijalarni tahlil qiladigan bo'lsak, ish staji ortib borishi bilan sinaluvchilarimizdagi kasbiy stressga moyillik darjasini ortib borgan.

Yosh mutaxassislar har tomonlama kuch g'ayratga to'la bo'lganligi bois, dastlabki 10 yilda kasbiy stressning yuqori darjasini unchalik katta ko'rsatgichga ega bo'lman. Chunki, 5 yilgacha bo'lgan davrda pedagog jamoaga moslashish va o'z o'rniga ega bo'lish uchun berilgan topshiriqlarni intensiv tarzda o'zlashtirib bajarishga harakat qiladi.

5 yildan 10 yilgacha bo'lgan muddatda esa endi ular jamoada o'z mavqeiga ega, har qanday vaziyatdan pedagogik ijodkorlik bilan chiqib keta oladilar. Shu boisdan, kasbiy stressga unchalik berilmaydilar. 4-guruh sinaluvchilarimizda, ya'ni 15 yildan ortiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan pedagoglarimizda kasbiy stress darjasini yuqori chiqqan. Mazkur holat ularda tafakkurdagi rigidlik, ijtimoiy stereotipler, ishchanlik darajasining pastligi, yuqori darajadagi xavotirlanish, emosional zo'riqishlar, charchoq, emosional noturg'unlikning yuqoriligi, aksariyat sinaluvchilarimiz 25-30 yillik ish stajiga ega ekanligini hisobga olsak, ulardagi nafaqaga chiqish bilan bog'liq xavotirlanishning kuchligi bilan harakterlanadi.

Shularni hisobga oladigan bo'lsak, pedagogning tinimsiz ravishda kognitiv ma'lumotlarni qayta ishlashi va ularni auditoriyaga

yetkazib berishi natijasida, unda kognitiv informatsion zo'riqish va shu bilan bir qatorda hamkasblar, o'quvchilar va ularning ota-onalari rahbariyat bilan muloqot orqali qabul qilinadigan ma'lumotlarni idrok qilish, qayta ishlash, ijtimoiy rollardagi noaniqlik (jamoat ishlariga haddan ziyod jalb qilinishi), berilgan topshiriqning ko'pligi va uni bajarishga qo'yilgan muddatining qisqaligi natijasida pedagogning vaqtini to'g'ri taqsimlay olmasligi bilan bog'liq emotsiyal zo'riqish kasbiy stresslarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Aynan mana shu stressogen omillar pedagogik faoliyatdagি stressning yuqori ko'rsatgichga ega bo'lishiga sabab bo'lib xizmat qilgan bo'lishi mumkin.

50,6% sinaluvchilarda kasbiy stressning o'rta darajasi aniqlandi. Bu ish staji 5 yilgacha bo'lganlarda 12,3%, 10 yilgacha bo'lganlarda 16,1%, 15 yilgacha bo'lganlarda 8,1%, 15 yildan yuqori bo'lganlarda 14,1%ni tashkil etgan.

3.2.1-jadval

O'qituvchilarda kasbiy stressning emotsiyal va psixik so'nish sindromlari o'rtasidagi bog'liqlikning yosh, ish staji bo'yicha korrelyatsiya ko'rsatgichi, n =193

Shkalalar	Yosh davri	Ish staji	Psixoemotsional charchoq	Depersonalizatsiya (shaxsiy begonalashuv)	Kasbiys motivatsiyaning psayishi	Taranglik	Rezistensiya (qarshilik)	Hissiy charchoq
Kasbiy stressning yuqori darajasi	20-30 yosh	1-10 yilgacha	0,18	0,21	-0,05	0,11	0,0,09	0,05
	31-40 yosh	11-20 yilgacha	-0,02	0,04	-0,06	-0,17	-0,11	-0,13
	41-50 yosh	21-30 yilgacha	0,34**	0,31**	0,10	0,51**	0,43**	0,39**
	51-60 yosh	31-40 yil	0,37**	0,35**	0,18	0,17	0,15	0,20*

Kasbiy stressning o‘rta darajasi	20-30 yosh	1-10 yilgacha	0,23	0,11	0,04	-0,34	0,33*	0,33*
	31-40 yosh	11-20 yilgacha	0,07	0,03	0,05	0,23	0,19	0,25
	41-50 yosh	21-30 yilgacha	0,17	0,18	0,14	-0,15	0,04	-0,06
	51-60 yosh	31-40 yilgacha	0,26**	0,33**	0,13	0,18	0,16	0,13
Kasbiy stressning past darajasi	20-30 yosh	1-10 yilgacha	0,33*	-0,22	- 0,005	-0,35*	- 0,36**	0,35*
	31-40 yosh	11-20 yilgacha	0,19	0,15	-0,01	0,13	-0,05	-0,11
	41-50 yosh	21-30 yilgacha	-0,28	-0,29	-0,21	-0,09	-0,20	-0,09
	51-60 yosh	31-40 yilgacha	-	-	-0,15	-0,20*	-0,13	-0,11

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $p \leq 0,00$

Shu o‘rinda qayd etib o‘tishimiz joizki, tadqiqotimiizning oldingi paragraflarida ham ta’kidlaganimizdek, psixik so‘nish, emotsiyal so‘nish shu jumladan, kasbiy stress darajasining yuqoriligi o‘qituvchining yoshi, ish stajining ortib borishiga qarab, ortib borish tendensiyasi kuzatilmadi.

Shunday qilib, o‘rganilgan respondentlarning aksariyatida stress belgilarining yorqin ifodalanmasligi kuzatilib, kasbiy stressning o‘rtacha darajasi umumiyligini bo‘yicha ustunlik qilishi aniqlandi. Ammo, Toshkent shahri o‘qituvchilarida kasbiy stress darajasi o‘rtacha va umumiyligini bo‘yicha biroz yuqoriligi kuzatildi. Bu respondentlarning kasbiy faoliyati va undan tashqaridagi stressogen omillarning ta’siri natijasida tashvishlanish, xavotir, kuch yo‘qotish va turli xil buzilishlarning kelib chiqishiga olib keladi hamda stress bilan kurashish uchun safarbar qilingan manbalarning tugashi kasbiy charchash bosqichining rivojlanishini ta’minlaydi.

Tadqiqotimizda kasbiy stressning emosional va psixik so‘nish sindromlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni yosh, ish staji bo‘yicha korrelyatsion tahlilini amalga oshirdik. Bunga ko‘ra, kasbiy stressning yuqori darajasi 31-40 yosh, 11-20 yilgacha pedagogik

stajga ega o‘qituvchilarda psixoemotsional charchoq ($r=0,34$; $p\leq 0.05$), depersonalizatsiya (shaxsiy begonalashuv) ($r=0,31$; $p\leq 0.05$), taranglik ($r=0,51$; $p\leq 0.001$), qarshilik ($r=0,41$; $p\leq 0.001$), so‘nish ($r=0,45$; $p\leq 0.001$), 15 yildan ortiq ishlaganlarda esa psixoemosional holsizlanish ($r=0,35$; $p\leq 0.001$), depersonalizasiya ($r=0,33$; $p\leq 0.001$), zo‘riqish ($r=0,19$; $p\leq 0.05$), rezistensiya (qarshilik) ($r=0,22$; $p\leq 0.05$) bilan ijobiy statistik ahamiyatli korrelyatsiya kuzatildi.

Kasbiy stressning o‘rta darajasi 20-30 yosh, 1 yildan 10 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan o‘qituvchilarda psixoemotsional charchoq ($r=0,23$; $p\leq 0.05$), depersonalizatsiya (shaxsiy begonalashuv) ($r=0,11$; $p\leq 0.05$), 20 yilgacha ishlaganlarda psixoemotsional charchoq ($r=0,07$; $p\leq 0.001$), depersonalizasiya ($r=0,03$; $p\leq 0.001$) bilan statistik ahamiyatlilik bog‘liqligi aniqlandi.

Kasbiy stressning past darajasi 5 yilgacha ish stajiga ega bo‘lganlarda psixoemosional charchoq ($r=-0,34$; $p\leq 0.05$), zo‘riqish ($r=-0,37$; $p\leq 0.05$), qarshilik ($r=-0,37$; $p\leq 0.05$), so‘nish ($r=-0,38$; $p\leq 0.001$), 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo‘lganlarda esa psixoemosional holsizlanish ($r=-0,28$; $p\leq 0.001$), depersonalizasiya ($r=-0,33$; $p\leq 0.001$), zo‘riqish ($r=-0,18$; $p\leq 0.05$) orasida teskari statistik aloqa aniqlandi (3.2.1-jadval).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, qayd etish mumkinki, psixoemosional charchoq va kasbiy stress darajalari orasidagi ijobiy korrelyatsiyaning mavjudligi o‘qituvchilardagi hissiy jismoniy quvvat imkoniyatlarining kamayishi, holdan toyishi holatlarini ifodalash bilan kuzatiladi. Agar respondentlarning natijalariga qaraydigan bo‘lsak, kasbiy stressning yuqori va o‘rta darajalari asosan 15 yilgacha va undan ortiq pedagogik stajga ega bo‘lganlarda namoyon bo‘lishi kuzatilganligining guvohi bo‘lamiz. Bunday pedagoglarda xavotirlanish, surunkali charchash, atrofdagilarga nisbatan depressiya, asabiylashish, shaxsning immun va asab tizimidagi kuchsizlik, psixosomatik kasalliklarga moyillikning ortishi, befarqlik va sovuqqonlikning namoyon bo‘lishi kuzatildi.

Psixoemosional holsizlanish va kasbiy stressning darajalari orasidagi ijobiy korrelyatsiyaning mavjudligi pedagoglardagi hissiy jismoniy energetik resurlarning kamayishi, holdan toyishi holatlari bilan kuzatiladi. Agar sinaluvchilarimizning natijalariga qaraydigan bo‘lsak, kasbiy stressning yuqori va o‘rta darajalari asosan 15

yilgacha va undan ortiq pedagogik stajga ega bo‘lganlarda namoyon bo‘lgan. Bu holat pedagoglarda xavotirlanish, surunkali charchash, atrofdagilarga nisbatan depressiya, asabiylashish, shaxsning immun va asab tizimidagi kuchsizlik, psixosomatik kasalliklarga moyillikning ortishi, befarqlik va sovuqqonlikda namoyon bo‘ladi. Bunday holatlarda kasbiy faoliyatning bir xilligi shaxsda stress holatining yuzaga kelishiga ta’sir qiladi. Chunki, tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, insonda stressning rivojlanishidan avval kuchli xavotir kuzatiladi. Bu jarayonda inson organizmida asab tizimi ta’sirida adrenalin va noradrenalin moddasi miqdori ko‘payib ketadi. Natijada inson organizmida kortizol va aldosteron gormonlarining (bular stress gormonlari deb ham ataladi) ajralib chiqishi ham kuchayib, shaxsda qarshilik ko‘rsatish reaksiyalarini paydo qiladi. Organizmda mazkur holatning uzoq davom etishi esa, adaptatsion energiya tanqisligini chiqaradi hamda organizm o‘z zahirasidagi vitamin va minerallarni organizmdagi charchoqni bartaraf etish uchun safarbar eta boshlaydi. Uning surunkali davom etishi esa inson organizmida psixoemosional charchoqni keltirib chiqarib, turli psixosomatik kasalliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu boisdan ham, psixoemosional charchoq va kasbiy stress orasida hamisha ijobjiy ahamiyatli korrelyatsiya kuzatilgan.

Kasbiy stressning past darajasi 1-10 yilgacha ish stajiga ega bo‘lgan mutaxassislarning ko‘rsatkichlarida psixoemotsional charchoq bilan teskari korrelyatsiyani ifodalaydi. Bu holat yosh mutaxassisning jismonan sog‘lom, yoshga oid psixofiziologik funksiyalar faoliyatining barqaror ekanligini anglatadi. Huddi shunday holat ayrim 11-20 yildan ortiq ishlaganlarda ham kuzatiladi. Buning asosiy sababi esa o‘qituvchilarda o‘z jismoniy, ruhiy salomatligiga nisbatan sog‘lom psixoemosional munosabatning shakllanganligiga taqaladi. O‘qituvchilardagi depersonalizasiya va kasbiy stressniing yuqori hamda o‘rta darajalari bilan 11-20 yil va undan ortiq ishlagan pedagoglar natijalari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik kauzatilgan. Aslida depersonalizatsiya o‘qituvchilardagi ijtimoiy dezadaptatsiyaning o‘ziga xos shakli hisoblanib, bunda shaxsning shaxslararo munosabatlarga kirishish imkoniyati kamayadi va xavotirlanish darajasi ortadi.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, o‘qituvchi faoliyatidagi asosiy stress omillaridan biri bu jamoadagi noqulay psixologik muhit bo‘lib, u ikkita asosiy holat bilan belgilanadi: ziddiyat vertikal ravishda, "nazoratchi-bo‘ysunuvchi" tizimida va gorizontal ravishda – "hamkasb-hamkasb" munosabatlari ko‘rinishida namoyon bo‘lishi aniqlandi. Shuningdek, ularda yuqori darajadagi tashvishlanish, barqaror kasbiy faoliyat uchun kuch-quvvatning yetishmasligi, asab tizimining buzilishi holatlari ham mavjud bo‘lib, bu jismoniy va psixologik kasallikkarning har xil turlarini shakllantirishga olib kelishi mumkin va natijada, kasbiy stress, kasbiy so‘nish darajalari rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi.

Pedagoglardagi kasbiy stressning yuqoriligi mehnat yuklamasining intensivligidan, beriladigan topshiriqlarning murakkab va ko‘pligi, kognitiv zo‘riqqanlik va ijtimoiy nazoratning kuchliligi, shaxslararo munosabatlardagi muammolar, emotsiyal zo‘riqqanlik, jismoniy diskomfort, hattoki, pedagog kasbiga nisbatan ijtimoiy stereotiplarni qo‘llanilishi natijasida pedagogning o‘zini yomon his qilishi bilan xarakterlanadi.

3.3-§. Pedagolgarda kasbiy so‘nish jarayonining ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish natijalari

Mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli xil ijtimoiy xizmatlardagi o‘qituvchilar va mutaxassislarning ishi neyropsik stressning yuqori darjasini bilan bevosita bog‘liq.


Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, pedagoglarda kasbiy so‘nish jarayonining kelib chiqishiga bir qator ijtimoiy-psixologik omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, pedagoglarni ish sharoitlarining qulay emasligi, jamoadagi nosog‘lom psixologik muhit, maktab menejment faoliyatidagi nuqsonlar, ish yukamlarining yuqoriligi, maoshning yetarli emasligi, shaxslarao muloqotdagi muammolar, o‘quvchilar tarbiyasi va xulq-atvorining salbiy yo‘nalishda ifodalanishi, mehnat sharoitlari bilan bog‘liq muammolar va boshqalar omillar pedagoglarda kasbiy so‘nishning kuchayishiga ta’sir qiladi. Bunday vaziyatlarda, pedagoglarda kundan-kunga ruhiy zo‘riqish darjasini oshishi kuzatiladi.

X.Freydenbergning ta'kidlashicha, kasbiy charchash – bu ijtimoiy yordam sohasidagi mutaxassislarning boshqa odamlarning muammolari bilan haddan tashqari yuklanganligini his qilganda energiyaning kamayishi sifatida ifodalandi. Uning fikricha, bu holat beadablik bilan birga keladi: “Nima uchun bezovtalanish kerak? Buning farqi yo‘q”. Xodim biron bir sababga ko‘ra yonib ketganda, u o‘z maqsadlari va harakatlarida samarasiz bo‘lib qoladi, shuning uchun u bajaradigan ish sifati pasayadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotimizda pedagoglarda kasbiy so‘nish jarayonining ijtimoiy-psixologik omillarini o‘rganish maqsadida o‘zimiz tomonimizdan ishlab chiqilgan 20 savoldan iborat bo‘lgan “Pedagoglarda kasbiy so‘nishning ijtimoiy-psixologik omillari”ni o‘rganish bo‘yicha so‘rovnomadan (IPS) foydalanildi. Tadqiqotga jami 193 nafar respondentlar jalb qilindi. Quyida so‘rovnomadagi ayrim ta’kidlarni psixologik tahlil qilishga harakat qilamiz.

So‘rovnomadan olingan natijalardan ma’lum bo‘lishicha, pedagoglarda kasbiy so‘nish jarayonining kelib chiqishiga ta’sir etuvchi jamoadagi shaxslararo munosabatlardagi ziddiyatlar, jamiyatda o‘qituvchilik kasbi nufuzining pastligi, maoshning yetarli emasligi, jamodagi muhitning nosog‘lomligi, jamo faoliyatidaadolatsizliklarning uchrab turishi, jamoadagi shaffoflikning yetarli emasligi, jamaa a’zolaridagi hamkorlikning yetarli emasligi, ish sharoiti, moddiy-maishiy imkoniyatlarning yaratilmaganligi, pedagogik faoliyatda ish yuklamasining yuqoriligi, o‘quvchilarning tarbiyasi, xulq-atvoridagi nuqsonlar kabi omillar aniqlandi.

Jumladan, “Jamoangizdagi shaxslararo munosabatlarni Siz qanday baholaysiz?” nomdagi savolga respondentlar 29,2% yomon baholayman, 30,0% o‘rtacha baholayman, 25,4 % yaxshi baholayman, 15,4% o‘ta yomon va baholayman degan javoblarni berishganligi aniqlandi.




(3.3.1-rasm). “Jamoangizdagi shaxslararo munosabatlarni Siz qanday baholaysiz?” savoliga berilgan javoblar, n=193

So‘rovnama bo‘yicha qo‘lga kiritilgan empirik natijalarni tahlil qilamiz. Jumladan, “Jamoangizdagi shaxslararo munosabatlarni Siz qanday baholaysiz?” nomdagi savolga respondentlarning 29,2% “yomon baholayman”, 30,0% o‘rtacha baholayman, 25,4 % yaxshi baholayman, 15,4% o‘ta yomon baholayman degan javoblarni berishganligi aniqlandi. Oxirgi ko‘rsatgichlar, ya’ni, 25% “yaxshi” deb baholaganlar aslida kamchilikni tashkil etsa, 15,4% “o‘ta yomon” deganlarning fikri ham e‘tibortalab, chunki bu – jamoadagi shaxslararo munosabatlar aksariyatning talabiga javob bermaydi, ya’ni muhit yaxshi emas. To‘g‘ri har 4 nafar xodimning bittasi uchun munosabatlar ijobjiy, lekin pedagogik jamoa uchun bu yetarli emas. Demak 29,2% shaxslararo munosabatni yomonligi o‘qituvchilar orasida kasbiy so‘nish jarayonini tezlashtiradi, degan xulosaga sabab bo‘ladi, ishga zo‘r-zo‘raki kelib ketish bora-bora kasbiy so‘nishga olib kelishi mumkin.

So‘rovnama bo‘yicha olingan empirik natijalarni tahlil qilsak, “Siz o‘qituvchilik kasbida qiziqishning pasayishiga nimalar sabab bo‘ladi deb o‘ylaysiz?” deb, berilgan savolga respondentlar

tomonidan “maoshning yetarli emasligi” (24,2%) eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilgan bo‘lsa, “jamiyatda o‘qituvchilik kasbi nufuzining pastligi” (21,3%) omili ikkinchi asosiy sabab sifatida ko‘rsatishgan. “Jamo faoliyatidagiadolatsizliklar (20,2%) va “Jamodagi muhitning nosog‘lomligi” (18,4%) omili ham yuqori darajani ifodalaganligi kuzatildi.




3.3.2-rasm “Siz o‘qituvchilik kasbida qiziqishning pasayishiga nimalar sabab bo‘ladi deb o‘ylaysiz?” savoliga berilgan javoblar, n=193

So‘rovnama bo‘yicha qo‘lga kiritilgan empirik natijalarni tahlil qilamiz. Jumladan, “Siz o‘qituvchilik kasbida qiziqishning pasayishiga nimalar sabab bo‘ladi deb o‘ylaysiz?” deb, berilgan savolga respondentlar tomonidan “maoshning yetarli emasligi” (24,2%) eng yuqori ko‘rsatkichni tashkil qilgan bo‘lsa, “jamiyatda o‘qituvchilik kasbi nufuzining pastligi” (21,3%) omili ikkinchi asosiy sabab sifatida ko‘rsatishgan. “Jamo faoliyatidagiadolatsizliklar (20,2%) va “Jamoadagi muhitning nosog‘lomligi” (18,4%) omili ham yuqori darajani ifodalaganligi kuzatildi. Ko‘rsatgichlarni taxlil kiladigan bulsak mazkur omillar ham pedagoglarni kasbiy so‘nishiga olib kelayotgan asosiy omillar ekan, shu sababli biz jamiyatda

o‘qituvchilar obro‘-nufuzini oshirishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot ishlarini kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq ekan. Qolaversa biz tadqiqotimiz davomida o‘qituvchilar jamoasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish va jamoadagi konformiz xodisasiga alohida e‘tibor qaratdik.

Demak, mazkur omillar ham pedagoglarni kasbiy so‘nishiga olib kelayotgan asosiy omillar ekan, shu sababli biz jamiyatda o‘qituvchilar obro‘-nufuzini oshirishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot ishlarini kuchaytirishimiz maqsadga muvofiq ekan. Qolaversa, tadqiqot davomida o‘qituvchilar jamoasida sog‘lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish va jamoadagi konformizm xodisasiga alohida e‘tibor qaratdik.

Shuningdek, “Jamoangizdagи shaffoflik hayat me‘yori hisoblanadimi?” savoliga respondentlarning katta qismi “hayot me‘yori sifatida hisoblanmaydi” (39,0%) deb baholashgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatgichni “ba’zan hayat me‘yori sifatida hisoblanadi” (26,4%) javoblarini belgilashgan (3.3.3-rasm).




So‘rovnama bo‘yicha qo‘lga kiritilgan empirik natijalarni tahlil qilamiz. Jumladan, “Jamoangizdagи shaffoflik hayat me‘yori hisoblanadimi?” savoliga respondentlarning katta qismi “hayot me‘yori sifatida hisoblanmaydi” (39,0%) deb baholashgan bo‘lsa,

eng past ko‘rsatgichni “ba’zan hayot me‘yori sifatida hisoblanadi” (26,4%) javoblarini berishganligi aniklandi. Yuqoridagi foizlardan ma’lum bo‘lishicha, ko‘pchilik pedagogik jamoalarda shaffoflik, oshkoraliq, tanish-bilishchilik va hatto korruption holatlarning uchrab turishi holatlari ham pedagoglarda o‘z kasbidan ko‘ngli qolishga, kabiyl so‘nishga olib kelishi mumkinligi ma’lum bo‘ladi.

Jamoangiz a’zolarining hamkorligidan qoniqish his qilasizmi? nomli savolga 33,2% respondentlar qoniqish his qilmayman, 28,3% qoniqish his qilaman, 13,9% umuman qoniqish his qilmayman deya javob berishganlar (3.3.4 rasm).

Mazkur empirik ma’lumotlar ko‘rsatkichlari 33,2% respondentlarni o‘z jamoasidan qoniqish his qilmaymanyotganligini qayd etgan. Bizning tahlilarimizga ko‘ra albatta bunday holatda jamoda nosog‘lom muhit yuzaga keladi va mazkur holat pedagoglarda ma’lum darajada kasbiy so‘nishni yuzaga keltiradi.

Demak jamodagi ijtimoiy-psixologik muhitni sog‘lomligi va jamodagi o‘zaro hamkorlikni to‘g‘ri tashkil qilmasdan turib kasbiy so‘nish holatini korreksiyalash qiyin kechadi. Shuningdek pedagog xodimlarni o‘z jamoasidan qoniqish hosil qilmaligi uni kasbiy faoliyatida ma’lum darajadagi su‘niy psixologik to‘siqlar, bareralar va komplekslarni hosil bo‘lishiga olib keladi.




3.3.4-rasm “Jamoangiz a’zolarining hamkorligidan qoniqish his qilasizmi?” savoliga berilgan javoblar, n=193.

